Tizimlarni tashkiliy-tuzilmaviy jihatdan tadqiq etish esa jarayon va hodisalar kechishini modellashtirish usuli yordamida hal etiladi. Bunday muammolar ta'limda biror o'quv jarayonini yoki mavzuni o'zida aks ettiruvchi tizim sifatida va faoliyatida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni modellashtirish metodlari yordamida xal etiladi va ular yordamida qaralayotgan jarayonni o'zlashtirishning didaktik asosi yaratiladi. Modellashtirish metodining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, uning yordamida ta'lim oluvchilar faqatgina yangilikni bilibgina qolmasdan, balki, bilimlarni rivojlantirish imkoniga ham ega bo'ladi va ayniqsa, bilimlarni o'qitish va tarqatishda ham ishonchli didaktik asos bo'ladi. Shu sababli ham dinamik tizimlardan amaliy faoliyatda foydalanishda ularning tashkiliy-tuzilmaviy modelini mukammal tadqiq qilish qaralayotgan muammoga oid ishonchli va asosli yechimni qo'lga kiritishga keng imkoniyatlar yaratadi, degan fikrga kelish mumkin. Bunga sabab, tashkiliy-tuzilmaviy model qaralayotgan jarayondagi elementlar - ko'rsatkichlar va ular negizida shakllantiriladigan qism tizimlar orasidagi bog'liqliklar (qonuniyatlar) xarakterini to'liq ochib berishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu holatda jarayonlarni modellashtirishning aniqligi va muvofaqiyati ta'lim jarayonini va bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonini, ularning o'ziga xos xususyatlarini hamda ular orasidagi bog'lanishni tasvirlash aniqligi bilangina belgilanadi.

Umuman modellashtirish tadqiqot usuli doimo o'rganilayotgan obyektning aniq tariflashni nazarda tutadi va u orqali biror jarayon haqidagi empirik hamda intellektual tasavvurlar aniq shakllantiriladi hamda ular asosida qaralayotgan jarayonlarning kechishini oldindan aytib beriladi, hamda bu bilan modellarning qo'llanilish chegarasini tekshirish va aniqlash imkoniyati ham yaratiladi. Shuningdek, modellashtirishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, uning yordamida jarayonlar kechishining axborotli boshqaruv tizimini ham yaratish mumkin.

Bu fikrimizning tasdig'ini quyidagi manba orqali ham isbotlashimiz mumkin: "Ta'limiy axborotli tizimning vazifaviy tuzilishida axborot ta'lim muhitining modelining mavjudligi talab qilinsa, uning tashkiliy-tuzilmaviy modelida axborot ta'lim muhitining tashkil etuvchi elementlar va qism tizimlar o'rtasidagi aloqadorlik hamda ulardagi kirish va chiqish ma'lumotlarining maqsad-vazifalarini e'tiborga olib borishga qaratiladi. Shu asosda bosh va hududiy axborot markazlar o'rtasidagi ma'lumot almashinuvining ishonchiligi ta'minlanadi va ta'limiy axborotli boshqaruv tizimini informatsion ta'minotida uning tashkiliy-tuzilmaviy va vazifaviy tuzilishi faoliyatlari birgalikda e'tiborga olinadi. Ular yordamida ta'limiy axborotli boshqaruv tizimining, tashkiliy-vazifaviy tuzilishini ishlab chiqish metodini shakllantirishga muhim asos yaratiladi va bular keyingi paytlarda axborot ta'lim markazlarining yaratishga tashkiliy-tuzilmaviy jihatdan yondashuvining keng tarqalishiga sabab bo'ladi" [1].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar: bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning dolzarbligi va ularning asosiy yo'nalishlari, ta'lim jarayoni va bo'lajak mutaxassislarni dinamik tizim sifatida ifodalanishi, dinamik tizimlarning tashkiliy-tuzilmaviy ko'rinishlarining ilmiy-metodik jihatdan asoslanishi va ularni modellashtirishning imkoniyatlari (afzalliklari) ga asoslanib qayd etish mumkinki, bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni tashkiliy-tuzilmaviy modellari yordamida amalga oshirish mumkin.

Yuqoridagilarga ko'ra bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-tuzilmaviy modelini 1-rasmdagidek ifodalash imkonini berdi va bu model axborot ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashdagi ta'lim mazmunini shakllantirishga hamda ularni amaliyotga joriy etishning innovatsion metodikasi va texnologiyasini ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratadi. Axborot ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-tuzilmaviy modelidagi komponentlar (elementlar va qism-tizimlar) va ularning funksional vazifalariga qaralayotgan jarayonning samaradorligini oshirish talabi ham qo'yildi. Shu sababli ham mazkur tadqiqot va ularni amaliyotga joriy etish istiqbolli pedagogik samaralarni berdi deb aytalimiz. Bu borada quyidagi manba ham ahamiyatli: "Innovatsion faoliyatning funksional komponentlari - bu shunday mantiqiy tartib bo'lib, unda yangilikka ehtiyoj paydo bo'ladi; maqsadni aniqlash, qaror qabul qilish, konsepsiya yaratish uni ro'yobga chiqarish yo'llari, yangilikni kiritish, natijalarni kuzatish amalga oshiriladi.

Chizmada innovatsion faoliyat funksional komponentlarning har biri yangilikni amalga oshirish bosqichlaridan iborat bo'lgan pedagogik vazifalarni hal etish algoritmidan iborat.

Funksional komponentlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda axborotlar tahlil qilinadi va qayta ishlanadi. Ikkinchi bosqichda muammoni shakllantirish, maqsadni aniqlash, maqsadga erishish jarayonlarini aniqlash va muammoni mumkin bo'lgan yechimlari, yechimlardan kelib chiqadigan oqibatlarni baholash, vazifalarni hal etish tartibi va metodlarini ishlab chiqish hamda natijalarini baholash yuzasidan qaror qabul qilinadi. Keyingi bosqichda mualliflik konsepsiyasining tadbiq etish imkoniyatlari tahlili, ta'lim-tarbiya natijalari va oqibatlari loyihalashtiriladi [3].

Demak, axborot ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlash uchun rejalashtirilgan tashkiliy-tuzilmaviy model bo'lajak mutaxassislarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni samaradorligi va sifatiga ijobiy ta'sir qiladi. Bundan ushbu texnologiya axborot ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning optimal variantini ishlab chiqish mumkin degan xulosaga kelishi mumkin.

Keltirilgan tashkiliy-tuzilmaviy model asosan to'rtta qismdan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'langan, ular bog'liqliklarida ham bog'lanish qonuniyatlari mavjud. Yuqoridagi manbalarda ta'kidlanganidek ularning har biri uchun kirish va chiqish axborotlari mavjud. Shuningdek, eng avvalo axborot ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-tuzilmaviy modeliga va uning har bir qism tizimi uchun maqsad va vazifalar belgilab olingan.

Xulosa qilib aytganda axborot ta'limi muhitida bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-tuzilmaviy modelidan bo'lajak mutaxassislarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi muhim va mukammal ishlanmalarni tayyorlashda bema'lol foydalanish mumkin va ular orqali qaralayotgan muammoning yechilishini optimallashtirishga erishiladi.

Adabiyotlar

1. To'raqulov O.X. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillash-tirish. Fan doktori (DSc) ... diss. avtor. - Toshkent: 2017. 64-b.
2. Xasanboyev J., To'raqulov X.A., Xaydarov M., Xasanboyeva O., Usmonov N.O'. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - Toshkent: "Fan va texnologiya", 2009.
3. Yunusova D. Bo'lajak matematika o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dok. ... diss. avtor. - Toshkent: 2016. 28-b.
4. Sharipov Sh.S. Talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakllanti-rishning pedagogik sharoitlari. Ped. fan. nom. ... diss. -Toshkent: 2000. 137-b.

РЕЗЮМЕ. Ushbu maqolada bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatning mazmuni hamda ushbu faoliyatga tayyorlashning ilmiy-amaliy jihatlarini tahlil qilish orqali ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-tuzilmaviy modeli yaratilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье на основе анализа содержания инновационной деятельности и научно-практических аспектов подготовки их к этой деятельности создана организационно-структурная модель подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности.

SUMMARY. In this article, based on an analysis of the content of innovative activities and the scientific and practical aspects of preparing them for this activity, an organizational and structural model of preparing future teachers for professional activities has been created.

ОЛИЙ ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ҲАРБИЙ ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ҲАЛҚАРО ТАЖРИБАНИНГ ТАҲЛИЛИ

К.А.Ақбарходжаев – ўқитувчи, капитан

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси

Таянч сўзлар: ҳарбий таълим, ҳарбий педагог кадрлар, олий ҳарбий таълим муассасалари, педагогик фаолият.

Ключевые слова: военная подготовка, военно-педагогический состав, военно-учебные заведения, педагогическая деятельность.

Key words: military training, military teaching staff, military educational institutions, pedagogical activity.

Давлат таълим стандартлари асосида ҳарбий таълимни такомиллаштириш ва модернизацияси қилишда асосий эътибор ҳарбий таълим жараёнини тўғри ташкил этиш ва бошқариш тизимини мазмунан янги босқичга олиб чиқишни тақозо этмоқда. Чунки, бугунги кунда ҳарбий таълим тизимида яратилаётган шароитлар, замонавий ўзгаришлар барча имкониятлардан фойдалана оладиган, ўзига ва ҳарбий фаолиятига нисбатан талабчан, ўз касбининг устаси

бўлган, ҳарбий соҳанинг сирларини ҳар томонлама чуқур ўзлаштирган, ўзини ўзи ривожлантирувчи ҳамда ўз қобилияти ва имкониятларини тўла ишга сола биладиган маҳоратли ҳарбий-педагог кадрларга бўлган эҳтиёжни қучайтирмоқда.

Ҳарбий таълим - Қуролли Кучларнинг турли бўғинлари, ҳарбий қисмлар ва махсус кучлар учун кадрлар тайёрлаш тизими ҳисобланиб, ушбу термин офицер ва бошқа ҳарбий хизматчиларнинг амалий

фаолиятида зарур бўлган фундаментал ва махсус ҳарбий фанлар бўйича тизимлаштирилган билимлар ва кўникмалар йиғиндисини англатади [2].

Замонавий тараққиётнинг тамал тоши ҳам, мамлакатни қудратли, миллатни буюк қиладиган куч ҳам бу – илм-фан, таълим ва тарбиядир [1]. Давлатимиз раҳбарининг ушбу сўзлари ўзбек миллий таълим тизимини бугунги давр даъвати замирида тубдан модернизация қилишнинг бош маёғи, қатъий шиори, десак асло муболага бўлмайди.

Табиийки, ҳозирги замонда ёш авлодга таълим ва тарбия беришнинг замонавий мезонлари ҳамда андозаси ўзгарди. Улар билимни, ахборотни, ҳаёт тарзига таъсир этувчи бошқа маълумотларни нафақат оилада, мактабда, олий таълим даргоҳида, балки дунёвий микёсдаги вертуал ахборот маконидан, Интернет ва ижтимоий тармоқлардан, матбуот, радио, телевидение ҳамда ўзга манбалардан олиш имкониятига эгалар. Таълим ва тарбияни ташкил этишда ушбу реал воқеликни инобатга олмаслик асло мумкин эмас.

Ҳарбий кадрларни тайёрлашда ҳарбий жамоаларни тайёрлашга комплекс ёндашувни амалга ошириш, педагогик жараённинг ҳар бир функциясининг қоидалари ва шартларига риоя қилинса кадрларни тайёрлаш жараёнини ташкил этиш ва ўтказиш давлатнинг ҳарбий сиёсати талабларига мувофиқ, кўмондонлик буйруқлари ва кўрсатмалари билан амалга оширилади. Таълим тизимини ривожлантиришда инновацион ёндашувлар ҳамда ривожланган мамлакатлар тажрибасини ўрганиш самарали усуллардан бири ҳисобланади. Биз ҳам ушбу мақолада баъзи бир ривожланган мамлакатларнинг ҳарбий педагог кадрлар тайёрлаш тизимига назар солдик.

Ривожланган хорижий мамлакатларда ҳарбий таълим тизимидаги муҳим хусусиятларидан бири бу ташкилий хусусиятдир. Ушбу жараён қуйидагиларни ўз ичига олади:

- танловга ягона ёндашувлар;
- ўқитувчиларни тайёрлаш, малакасини ошириш тизими;
- профессор-ўқитувчиларни касбий фаолият қараб ягона талаблари;
- мамлакатдаги олий ҳарбий таълим муассасалари ўқув дастурлари фуқаролик ўқув муассасалари билан биргаликда амалга оширилиши.

Педагогик фаолиятнинг муҳим хусусияти шундан иборатки хорижий олий ўқув юртлари ўқитувчилари юқори ижтимоий мақомга (давлатнинг катта хизматчиси мақоми), ишончли ижтимоий ҳимоя, қафолатланган юқори маошли доимий ишга эгалигидир.

Ғарб ҳарбий экспертларига кўра: қуrolли кучларнинг ҳарбий қисмлари, махсус қўшинлар ва таълим муассасаларининг ўқув дастурлари мазмуни ва муддатлари жиҳатидан фарқ қилади, шундан келиб чиқиб долзарб масалаларини самарали хал қилиш мақсадида НАТО ҳарбий блокига аъзо давлатлари учун умумий, илмий асосланган, энг яхши таълим ресурсларидан фойдаланган ҳолда таълим олувчилар ва ўқитувчиларга ягона тил тайёргарлиги ўқитиш тизимини ташкил этиш кераклигини таъкидлашади.

Хорижий олий ҳарбий таълим муассасаларида профессор-ўқитувчиларининг миқдорий ва сифат кўрсаткичлари ўрганиш шуни кўрсатадики шаҳодатланган ходимлар ва эркин ёлланганларни сони тенгдир базан эркин ёлланганлар сони кўпроқдир, масалан АҚШда асосан профессор-ўқитувчилар таркибини эркин ёлланганлар ташкил этади – захирадаги собиқ ҳарбий хизматчилар. Бирок

кафедралар раҳбарияти ҳамда умумҳарбий фанлар ҳарбий хизматчилардан тайинланади.

Ақш Қуrolли Кучларида ўқитишдан асосий мақсад ҳарбий таълим муассасаси битирувчисини юқори интеллектуал салоҳиятли офицер бўлиши. Шу сабабли, ҳозирги кунда ҳарбий таълим соҳасидаги жанговар фанлар ҳажми Америка Қўшма Штатлари муассасалари умумий ўқув соатларининг 15% дан ошмайди ўқув соат. Ўқув соатлари гуманитар фанларга асосланган бўлиб, улар ўқиш соатларининг ярмини ташкил қилади, 3 ва 4 ўқув курсларида уларнинг ҳажми 70% га етади [3].

Хорижий олий ўқув юртлари ўқитувчиларига қўйилаётган ҳозирги талаб уларнинг кенг дунё қарашга эга бўлишидир. Шунинг учун АҚШ, Германия, Франция университетларида ўқув вақтининг 40% га яқини гуманитар фанларни ўрганишга ажратилади. Университетларнинг таълим дастурларида тарих, сиёсатшунослик, психология, фалсафа, социология, ҳуқуқшунослик, иқтисод, адабиёт, жаҳон маданияти ва санъати, чет тиллари, етакчилик ва бошқарув назарияси фанларини чуқур ўрганиш назарда тутилган [4].

Университетнинг ўқитувчи лавозимига тайинланувчи номзодлар учун муҳим талаб бу: тегишли соҳада ҳарбий ва педагогик тажриба ҳамда мажбурий мунтазам малака оширишдир ва хорижий олий ҳарбий ўқув юртлари ўқитувчиларининг профессионал ва шахсий фазилатларига қуйидаги асосий талаблар қўйилади: илмий даражали олимларнинг мавжудлиги; кенг дунё қараш; инсонларварлик; педагогика ва психология бўйича чуқур билим; таълим олувчиларни бошқара олиш қобилияти; юқори даражадаги профессионал тайёргарлик, шу жумладан ҳарбий профессионал тайёргарлик фуқаролик ўқитувчилари учун; бой ҳарбий тажриба жумладан: маҳаллий урушларда қатнашиш ва қуrolли зиддиятлар; доимий шахсий ва касбий профессионал ўзини-ўзи такомиллаштириш; илмий ишларда фаол иштирок этиш; таълим олувчилар ўртасида ғарб демократияси ғояларини шакллантиришдаги тиришқоклик.

Шуни таъкидлаш жоизки, таълим муассасалари ўқитувчилик лавозимига талабгорлар: қўшинлардан келган офицерлар ва фуқаролик таълим муассасалари ўқитувчилари қўшимча тайёргарликдан ўтишлари ҳамда олий ҳарбий таълим муассасаси ўқитувчиси дипломига эга бўлиши лозим.

Ўқитувчи ёшларни ғоявий – сиёсий жиҳатдан чиниктириб, табиат ва ижтимоий ҳаёт қонуниятларини ўргатади. Ёшларни меҳнат фаолиятига тайёрлаб, касб–хунар сирларини пухта эгаллашларида кўмаклашади. Ана шу масъулият ўқитувчидан ўз касбининг моҳир устаси бўлишни, таълим олувчиларга тарбиявий таъсир кўрсатиб, уларнинг қизиқиши, қобилияти ва амалий кўникмаларини ҳар томонлама ривожлантириш йўллариини излаб топадиган касб эгаси бўлишни талаб этади [5].

Ҳозирда замонавий хорижий университетларда педагогларнинг ўрни ва мақсади ўзгартиралётганини кузатишимиз мумкин: яъни: асосий манба ва билим ташувчиси сифатида эмас балки, бошқарувчига талабаларнинг фаолияти давомида таълим муаммоларининг турли ахборот манбалари билан ишлашни ўргатувчига айлантириш йўлга қўйилмоқда. Бунинг натижасида педагог кадрларни профессионал тайёргарлигига кўпроқ эътибор берилиб, уларнинг ижтимоий мавқеини оширилмоқда.

Ривожланган хорижий мамлакатларда ҳарбий кадрлар таълим тизими ҳолати кўп даражали ва кўп цикллидир. Педагог кадрларни касбий ва профессионал тайёргарлиги ҳамда илмий-педагогик талаблар даражадан даражага ошириб борилади шунинг учун

уларнинг малакасини ошириш бир неча босқичларни ўз ичига олади, масалан, АҚШда - 4 босқич.

Биринчи босқич (40 соат) - ўқитувчини ўзини тайёрлаш қуйидагиларни ўз ичига олади: катталарни ўқитишда принципларни ўрганиш; шахсни тарбиялаш фалсафаси; ўқитиш назарияси; ижодий фикрлаш хусусиятлар.

Иккинчи босқич (6 ой) – ўқув курсларини ишлаб чиқувчилар учун; ўқув курсларининг ўзига хос хусусиятлари ва уларни ўқитиш методикаси; педагогнинг профессионал компетенцияси; ўқув жараёнини баҳолаш методикаси.

Биринчи ва иккинчи босқич дастурларини муваффақиятли тамомлаганлар АҚШ куриқликдаги қўшинлар штаб-командирлик колледжиди таълим буриш ҳуқиқини беради

Учинчи босқич (1 йилгача) – ўқув дастурларини ўзгартиришларни бошқариш. Бу босқич дарсликлар, қўлланмалар ва ўқув материаллари муҳаррирлари ҳамда муаллифлари учун мажбурийдир.

Тайёргарликнинг тўртинчи босқичи(1 йилгача) - малака ошириш. Ўқув курси – ўқув муассасаларининг бўлажак ва амалдаги раҳбарлари учун, ушбу ўқув курсини ташкил этиш ва бошқариш учун ҳарбий ва

фуқаролик муассасалари ҳамда мудофаа вазирлигининг етакчи мутахассислари жалб этилади.

Хорижий давлат таълим муассасалари ўқитувчиларнинг сифатли касбий тайёргарлик ҳамда ўз-ўзини тарбиялаш учун ўқув юкмаси камайтирилиб уларга қулай шароитлар яратиб берилди. Ўқитишнинг муваффақиятли педагогик фаолияти машғулотларнинг оптимал сони билан маъқулланади.

Хулоса қилиб айтганда ҳарбий педагогларни тайёрлашга қўйилган талаблар асосида соҳага педагог кадрларни тайёрлашни сифат жиҳатдан юксалтириш лозим. Бунда, олий ҳарбий таълим муассасаларида педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш тизимини мазмун жиҳатдан бойитишда ривожланган хорижий мамлакатлар андоза олишни талаб қилмоқда. Чунки, бугунги кунда ҳарбий таълим тизимида яратилаётган имкониятлардан самарали фойдалана оладиган, ўзига ва ўз фаолиятига нисбатан талабчан, ҳарбий касбий билимларни чуқур егаллаган, ўз устида мунтазам ишлайдиган, замонавий билимларни қўллаш қобилиятига эга, креатив фикрлайдиган, касбига содиқ, маҳоратли ҳарбий педагогларга эҳтиёж янада кучаймоқда.

Адабиётлар

1. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида мамлакатимизда таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, илм-фан соҳаси ривожини жадаллаштириш масалалари муҳокамаси бўйича 2020 йилда ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги <https://Mirziyo.uz/>. Мурожаат санаси - 07.12.2022.

2. Хасанбаев Х.Х. Мудофаа соҳасида ҳарбий педагог кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш омиллари: автореф. дис. д-ра филос. пед. наук (PhD) : 13.00.01 / Х.Х. Хасанбаев; -Ч., 2023. – 42 с.

3. Музыкантов А.Н. Зарубежный опыт формирования педагогической готовности военнослужащих / А.Н. Музыкантов // Международная научно-практическая конференция. – Санкт-Петербург., 2021. – №3. – С. 241.

4. Дудолатов, А.А. Педагогический анализ подготовки преподавателей зарубежных военно-учебных заведений / А.А. Дудолатов // Вестник военного образования. – М., 2020. – №3. – С. 64-66.

5. Хусанов Р.Б. Ҳарбий таълим муассасаларида кадрларни тайёрлаш тизимини такомиллаштириш / Ҳарбий фанларни ўқитиш самардорлиги ошириш: муаммо ва ечимлар мавзусидаги ўқув-методик конференция 26.11.2023., Т.-369 б.

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада ривожланган хорижий мамлакатларда ҳарбий таълим тизимидаги муҳим хусусиятлари, олий ҳарбий ўқув юртлари ўқитувчиларига қўйиладиган асосий талаблар ҳамда профессор-ўқитувчиларнинг тайёрлаш ва малакасини ошириш босқичлари баён этилган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье описаны важные особенности системы военного образования в развитых зарубежных странах, основные требования к преподавателям высших военных учебных заведений, этапы подготовки и повышения квалификации профессорско-преподавательского состава.

SUMMARY. This article describes the important features of the military education system in developed foreign countries, the main requirements for teachers of higher military educational institutions, and the stages of training and professional development of professors.

ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМ РЕСУРСЛАРИ ВОСИТАСИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ЙЎНАЛТИРИБ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ

М.Х.Алламбергенова – педагогика фанлари номзоди, доцент

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Таянч сўзлар: электрон ресурслар, ахборот технологиялар, касбий фаолият, электрон қўлланмалар, видео дарслар, дидактик воситалар.

Ключевые слова: электронные ресурсы, информационные технологии, профессиональная деятельность, электронные пособия, видеоуроки, дидактические средства.

Key words: electronic resources, information technology, professional activities, electronic aids, video lessons, didactic tools.

Замонавий ахборот технологияларининг таълим жараёнида қўлланилиши мавжуд бўлган кўпгина тушунчаларни ҳам мазмунан, ҳам моҳиятан қайта кўриб чиқишни таққоза этади.

Таълим жараёни дейилганда ўқитувчи ва талаба ўзаро муносабатидаги ахлият жараён кўз олдимизга келади. Эндиликда ушбу жараён электрон таълим ресурслари, интерактив ўқув мажмуалар, видео ва аудио ёзувлар, компьютер дастурлари, телевизион ва ижтимоий тармоқлар орқали он-лайн ўқув курслари билан уйғунлашиб бормоқда. Бу жараёнда ўқитиш талабанинг кўпроқ ички имкониятлари, интеллектуал потенциаллари, ахборотни қабул қилиш ва ўзлаштириш хусусиятларига бевосита боғлиқ.

Замонавий ахборот-коммуникация технологияларини миллий иқтисодиётимизнинг барча тармоқ ва соҳаларига кенг ва жадал қилиб бориши

ахборотлашган жамиятни шакллантиришга замин яратмоқда. «Ахборотлашган иқтисодиёт», «Электрон ҳукумат», «Электрон бошқарув», «Масофавий таълим», «Очиқ таълим», «Электрон таълим» каби тушунчалар ҳаётимизга кенг кириб келди.

Таълим жараёнини ахборотлаштириш масалалари билан қўллаб олимлар (психологлар, файласуфлар, педагоглар) шуғулланишган: Абдеев Р. Ф., Аванесов В. С., Гершунский Б. С., Тализина Н. Ф., Роберт И. В., Ракитов А. И. ва бошқалар. И. В. Роберт АКТ қўлланилишда қуйидаги педагогик мақсадларни кўрсатиб ўтган: таълим олувчининг шахсий ривожланиши, уни замонавий ахборотлашган жамиятнинг оммавий коммуникация ва глобаллашуви шароитида комфорт иш фаолиятига тайёрлаш; ахборотлаштириш, глобаллашув ва оммавий коммуникациялар шароитида ижтимоий буюртмани

ишлаб чиқиш; узлуксиз таълим тизимида ўқув жараёнининг барча босқичларини интенсификациялаш.

А.В.Соловов жамиятнинг таълимда АКТга бўлган муносабатларини ўзгартирувчи муҳим факторларни таъкидлаб ўтган: қўлланилаётган технологияларнинг адекватлиги; тушунарлилик; ўзаро муносабатлардаги акцентларнинг ўзгариши; индустриаллаштириш (ихтисосликни киритиш имконияти ва таълим жараёнида меҳнатни тақсимланиши); ҳар хил таълим процедураларини унификациялаш ва стандартлаштириш; миллий таълим тизимларини интеграция қилиш; таълим муассасаларини виртуаллаштириш; сифатни ошириш; иқтисодий самарадорлик; билимни товарга айлантириш; таълим соҳасида бозор муносабатларини ривожлантириш; инсоният катта қисмининг ривожланишида қалокликни енгиб ўтиш.

Хорижий мамлакатларда, жумладан Америка Қўшма Штатлари(АҚШ), Англия, Испания, Франция, Россия, Туркия, Япония, Жанубий Корея каби мамлакатларда таълим муассасалари учун электрон таълим ресурслари – электрон қўлланмалар, электрон дарсликлар, педагогик дастурий воситалар, интерактив ўқув мажмуалар яратиш ва улардан таълим муассасаларида фойдаланишга доир туркум илмий тадқиқотлар олиб борилган.

Фан ва техника соҳасидаги янгиликларни ўқув дастурлари мазмунига тез сингдириб бориш ва бу орқали ўқувчиларда замонавий билимларни шакллантириш замонавий таълимнинг муҳим омилларидан ҳисобланади. Бу ўз навбатида таълим сифатини ошириш учун электрон таълим ресурсларининг замонавий шакллари яратиш ва улардан таълимда фойдаланиш кўплаб фундаментал тушунчаларни нисбатан енгиб, чуқур ва мустақкам шакллантириш учун қулай шароит яратади.

«Ресурс» ибораси ҳозирги вақтда жуда кенг маънода ишлатилади. «Таълим ресурси» деганда эса ўқув жараёни давомида билим олишда фойдаланиладиган турли хил кўриниш ва шакллардаги ўқув материаллари манбаси тушунилади. Бошқача айтганда, таълим ресурси - ўқув жараёнида фойдаланиладиган ахборотларнинг электронлашган яъни компьютер ёрдамида махсус дастурий таъминот ёрдамида яратилган ўқув воситаси сифатида қараш мақсадга мувофиқ.

Мустақил давлатимиз ўзининг келажаги бўлган ёшлар орасидан замон талаблари даражасида билимга эга бўлган юқори малакали ва ҳар томонлама етук кадрларни кутмоқда. Биз олий таълим педагоглари талабаларда касбий кўникма ва малакаларини шакллантиришда миллий электрон таълим ресурслари базасини шакллантириш зарур. Чунки, амалий иш фаолиятида кенг фойдалана оладиган етук мутахассислар ҳамма вақт мамлакатимиз қудратини мустақкамлашга қаратилган барча иқтисодий ва рақамлашган соҳалар учун ҳамиша зарур.

Узлуксиз таълим тизимини бошқариш ва педагог кадрларнинг таълим сифатини ошириш бўйича миллий электрон таълим ресурслар базасини яратиш ва унинг асосида таълимга ахборот технологияларини жадал татбиқ этиш, қолаверса профессор-ўқитувчилардан дарс жараёнида ўзига хос янгича услубни қўллашни, касб маҳоратини доимий такомиллаштириб боришини талаб этади. Шу маънода ҳар бир раҳбар ходим ва профессор-ўқитувчилар ўзининг фаолиятида ахборот технологиялардан самарали фойдаланиб уни ўқув жараёнида татбиқ эта билмоғи, дидактик ўқитиш воситаларидан, жумладан электрон таълим ресурси имкониятларидан

фойдаланишни билиши, уларни таълим жараёни сифатини оширишда фаол қўллаш олиши керак. Чунки таълим жараёни сифати замонавий ахборот-коммуникация технологияларининг жадал суръатда амалиётга жорий этилиши билан боғлиқ бўлмоқда.

Таълим олувчилар учун касбий билим ва малакаларини электрон ахборот ресурслари ёрдамида шакллантириш учун зарур шароитларни яратиш таълим мазмунини такомиллаштиришнинг муҳим шартларидан бири саналади.

Замонавий электрон ресурслар ва ўқиш, мустақил таълим олиш ва олинган билимларни текшириш учун махсус дастурлар биргаликда «Электрон таълим ресурслари» деб аталади. Электрон таълим ресурси иборасига бирқанча таърифлар берилган бўлиб улар:

Электрон таълим ресурслари(ЭТР) деганда, фойдаланувчи, яъни ўқувчининг шахсий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда автоматик ростилаш имконини берувчи, эгалланган билимни автоматик назорат қилиш тизими билан бирлашган ўқув материалларини узатиш тизими тушунилади.

Электрон таълим ресурслари электрон қурилмалардан фойдаланган ҳолда тақдим этиладиган ўқув материалларидан иборат ўқув воситасидир. Умумий ҳолда ЭТР га ўқув видеофилмлари ва овоз ёзувлари қиради, уларни кўриш ва тинглаш учун оддий магнитофон ёки CD-плеер етарли. ЭТР таълимда қўллаш учун айниқса замонавий қурилма бу смарт техникалар ва албатта компьютердир [4].

Замонавий ЭТР га талаблар Давлат таълим стандартларига мослик; таълим беришнинг замонавий шаклларига йўналтирилган, юқори даражадаги интерфаоллик ва мультимедик таъминланиши; ўқув фаолиятини ташкил эта олишга қулай; индивидуал ва гурпуада ишлашни таъминлаши; ишончли материалларга асосланган; мос дарслик мазмунини тўлдирувчи ва қулай тарзда қўшимча маълумот бера олиш; техник платформага мослашиши; қулай интерфейс, навигация ва ранглар гаммасидан эга бўлишлик мақсадга мувофиқдир.

Педагог учун ЭТР функциялари:
рақамли объектларни намоиш қилиш;
виртуал лабораторияларни ва интерактив моделлардан фойдаланиш;
компьютерда тест ўтказиш;
қўшимча маълумотларни кооператив равишда олиш;
ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини оширишдан иборат.

Ўқувчи учун ЭТР функциялари:
- дарсда индивидуал, илмий тадқиқот ва ижодий ишларни бажариш;
- уй вазибаларини бажаришда ёрдам;
- қизишни ошириш;
- автоматлашган назорат;
- билим олиш вақтининг ва темпининг ўқувчи томонидан танланиши;
- реферат, презентациялар тайёрлаш учун етарли даражадаги маълумотлардир.

ЭТР нинг асосий инновацион сифатлари
1. Таълим жараёнининг барча компонентларини қамраб олади.

- маълумот олиш;
- амалий машғулот;
- баҳолаш.
2. Интерактивлик. Оддий китобдан фойдаланиб бажарилган топшириқ ва виртуал борлиқдан фойдаланиб саёҳат қилишни амалга ошириш.

3. Аудиториядан ташқари таълим имкониятлари. Фақат аудитория бажариладиган машғулотларни хоҳлаган пайт ва хоҳлаган жойда бажариш.

Билимларни ўзлаштиришнинг муҳим шарти уни тушунишдир. Ижодкорлик қобилиятларини ривожлантиришда ЭТРдан фойдаланиш ўзига хос афзалликларга эга. У ўрганувчиларни мантикий фикрлашга, фанга илмий ва ижодий ёндошишга ўргатади, ўқувчилар учун ўқув мавзуларини янада асосли ва ишончли қилади, илмий дунёқарашни шаклланишида муҳим омил бўлиб хизмат қилади, билимларни мустақкам эгаллашга ёрдам беради, ҳис туйғуларга, эрқага таъсир этган ҳолда машаққатли ақлий фаолият натижасида фанга ва касбга нисбатан муҳаббат уйғотади. Шунга кўра, таъкидлашимиз мумкинки, ЭТРнинг дидактик имкониятлари бошқа ўқув воситаларига нисбатан, ўқувчиларнинг ижодий фаоллиги ва бу фаолиятнинг тўғри ташкил этилишида авзал ҳисобланади.

Мисол тариқасида бўлажак информатика ўқитувчилари дастурлаш тилларини билиши зарур. Дастурлаш тилларини бир дарс мобайнида бирданига тушуниш қийин жараёнларнинг бири. Бул қийинчиликларни бартараф этиш мақсадида бизлар тамонидан электрон ўқув қўлланмаси яратилди ва талабалар учун ёкин ёрдамчи ўқув қуроли бўлди.

Бугунги кунда энг замонавий дастурлаш тилларидан бири бу-Python dasturlash тилидур.


Информатикадан интерактив ўқув мажмуаларнинг самарадорлигига ва ундан фойдаланиб кизикарли дарс ўтилишига замин яратилади, бунда ўқувчилар мавзуларни мустақил ўрганиш малака ва қўникмаларини ўзлаштирадидлар, амалий ва назарий масалаларни ечадилар.

Ўргатувчи, намоёйшли, билимни назорат қилувчи, ўқувчилар ёки талабалар билимини баҳоловчи компьютер технологияларини дарс жараёнига татбиқ қилиб, электрон таълим ресурсларни яратиш ва уларни махсус яратилган дастурий воситалар ёрдамида ўтиш ўқувчи ёшларнинг ижодкорлик қобилиятларини янада ривожланишига олиб келади.



Яратилган электрон қўлланма 6 бўлидан иборат. Шунинг 4 таси ўқув машғулотларига тегишли дидактик контентлардан иборат.

Мисоли, дастур тузишни ўрганувчи “Тапсырмалар” бўлими 2 ойнадан иборат. Биринчи ойнада dasturning kodlari tartibsiz holda joylashtirilgan bo’lib унда kodlarni киритиш orqali o’ng tarafga ketma-ket joylashtirib algoritm tuziladi. Foydalanuvchi берилган misolning algoritmini next tugmasini bosib ишга туширади, agar algoritm to’g’ri bo’lsa foydalanuvchiga 2 ball beriladi va keyingi misolga o’tadi, aks holda algoritm xato chiqsa 1 ball kamaytirib boradi va u misolning to’liq algoritmini tuzmaguncha keyingi misollar oynasi ochilmaydi va aktiv ko’rinishga ega bo’lmaydi.



Демак, талаба дастурни тўғри тузуш алгоритмини билмагунча дастур кейинги топшириқларга ўтмайди. Бу эса, электрон қўлланма интерактив тарзда талабалар билан мулоқат қилишини таъминлайди.

Бугунги кунда ЭТРларнинг қўйидаги турлари мавжуд:

Электрон дарсликлар (ўқув қўлланмалар, маъруза матнлари...)

Педагогик дастурий воситалар

Электрон маълумотнома

Компьютерли машқлар тўплами

Компьютерли лаборатория амалиёти (моделлар, тренажёрлар..)

Компьютерли тестлаш тизими

Бундай ЭТРлардан бугунги кунда таълим жараёнида таълим сифатини оширишда самарали фойдаланиб келинмоқда. ЭТР шакллариининг ҳар бирининг ўзининг мазмуни, мақсади ва фойдаланиш ўринлари мавжуд.

Шу боис, барча фанлардан ЭТР яратишга катта аҳамият берилмоқда. Сабаби биринчидан, ЭТРда ахборотлар замонавий усулда мультимедия ва анимация воситалари ёрдамида тўлақонли ёритилади.

Иккинчидан олинган билимларни интерактив усулда назорат қилиш имкони мавжуд.

Учинчидан, ўқув-услугий мажмуаларнинг бугунги ҳолати ўқувчига оғирлик қилади, бинобарин унинг ЭТРни дискларда олиб, ундан бошқа компьютерларда ҳам фойдаланиш имкони мавжуд [3].

Шу боис ҳам республикаимизда айни даврда ЭТР яратиш соҳасида аппарат шаклланимоқда. Бунда қўйидагилар асосий тушунчалар бўлиб ҳисобланади: ЭТР - булар давлат таълим стандарти асосида мутахассислик ва йўналишлар бўйича фанларнинг алоҳида муҳимроқ бўлимларига оид нашрлар, намунавий ва ишчи режа, шунингдек, машқлар ва масалалар тўплами, харита ва схемалар альбоми, тузилмаларга оид атласлар, хрестоматия, диплом лойиҳаси бўйича кўрсатмалар, маълумотнома, энциклопедия, тренажёр кабилардир.

Шундай қилиб, ЭТР:

- ўқув дастурига мос келиши ва ўқув - услубий нашрларга қўйилган талабларга жавоб бериши керак;

- ўрганилаётган курс (ёки унинг қисми)нинг мазмунини очиб бериши, ўқув - услубий мақсадга эришиш учун етарли ҳажмга эга бўлиши лозим;

- ўқув-услугий мақсадларга эришишга хизмат қилувчи иллюстратив элементларни ўз ичига олиши, яъни унда компьютернинг мультимедияли имкониятларидан мумкин қадар максимал даражада фойдаланиш зарур.

Ўқув-таълим жараёнида қўлланиладиган ЭТР талабанинг қизиқишини қиска вақт ичида ўқув материалларини имкон қадар мустақил ўзлаштиришини ва ўқувчининг мантикий фикрлаш ва эслаб қолиш каби салоҳиятли имкониятларидан фойдаланишини таъминлаши лозим.

Адабиётлар

1. O'zbekiston respublikasining «Ta'lim to'g'risi»da qonuni, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тарақиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сонли Фармони.

3. Алламбергенова М. «Информатика ва ахборот технологиялари фанини» ўрганишда интерактив ўқув мажмуадан фойдаланиш. // Таълим муаммолари. 2013. №2.

4. Рўзимуродов О.Н., Ҳамдамов Р.Ҳ. Электрон ўқув нашрларни яратишда уларнинг мослашувчанлигини ошириш. «Фан ва таълимда ахборот-коммуникация технологиялари» Республика илмий-техник конференциясининг материаллари.

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада бугунги кунда электрон таълим ресурсларини яратиш ҳамда унинг дидактик аҳамияти ҳақида сўз юритилади.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматривается создание электронных учебных ресурсов и его дидактическое значение на сегодняшний день.

SUMMARY. This article discusses the creation of electronic learning resources and its didactic significance today.

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING
O'QISH-BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH**

M.R.Annayeva – o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: integratsion ta'lim, pedagogik texnologiya, kompetensiya, sintez, fanlararo loyihalar, "O'quvchi-jamoat ishlari" loyihasi, "Reflektiv jurnallar yoki portfel" loyihasi.

Ключевые слова: интегративное образование, педагогическая технология, компетентность, синтез, междисциплинарные проекты, проект «Студент-связь с общественностью», проект «Рефлексивные журналы или портфолио».

Key words: integrative education, pedagogical technology, competence, synthesis, interdisciplinary projects, "Student-public affairs" project, "Reflective journals or portfolio" project.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarga bilim berishda, kasbiy tajribalardan kelib chiqib, turli fan sohalari o'rtasida aloqa o'rnatishlari uchun integratsiyalashgan ta'lim usullaridan foydalaniladi [4:3]. Bu ta'lim shakli o'quvchilarga bilim, ko'nikma, malaka jihatidan muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini beradi, shuning uchun dunyoning eng rivojlangan Yaponiya, Finlandiya kabi mamlakatlarida integrativ yondashuv asosida o'qitish usullaridan keng foydalanib keladi.

Integrativ usullarda o'qitish masalalariga to'xtalishdan oldin bu istilah anglatgan ma'noga to'xtalib o'tmoqchimiz: integrativ ta'lim asosida o'qitish – o'quvchilarning ong-tasavvurida bizni o'rab turgan dunyo haqida yanada to'liq va atroflicha keng tasavvur qilish imkoniyatini yaratishdan iborat bo'lib, bolalar o'z bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, bilimlarning tub mohiyatini keng ochib berish, olamni bir butunlikda, bir-biriga bog'liq holda tasavvur qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Integratsion yondashuv har bir mamlakat ta'lim tizimining milliy xususiyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi kunda mamlakatimizning zamonaviy ta'lim tizimida tub o'zgarishlar qatorida ta'lim tizimini hayotiy jarayonga integratsiyalash masalasi birinchi o'ringa chiqib bormoqda. Bu tizimni amaliyotga joriy qilishdan avval pedagog-xodimlarni quyidagi jarayonlarga tayyorlash kerak:

“...Birinchi bosqich: yangi g'oyaning paydo bo'lishi yoki yangilikning yuzaga kelishi bosqichi: uni shartli ravishda fundamental va amaliy-ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo bo'ladigan) natijalaridan kelib chiqadigan yangilik bosqichi deb ataydilar.

Ikkinchi bosqich: kashf etish bosqichi: ya'ni moddiy yoki ma'naviy namuna ko'rinishidagi yangilik yaratish.

Uchinchi bosqich: yaratilgan yangilikning amalga qo'llanishi uni qo'shimcha ishlab mukammallashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu bosqich yangilik kiritish orqali yuqori samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi.

To'rtinchi bosqich: faqatgina yangilikni qabul qilish sharti bilan amalga oshirish.

Beshinchi bosqich: yangilikning tarqalishi, uning yangi sohalarga keng tatbiq etishni amalga oshirish.

Oltinchi bosqich: yangilikning biror sohada hukmron bo'lishi, bunda, xususan, yangilik o'z yangiligini yo'qotib, yangilik sifatida mavjud bo'lmay qoladi.

Yettinchi bosqich: yangilik qo'llanilishining doirasi qisqarib, uning yangi mahsuldorligi bilan almashadi...” [5:60].

Yuqoridagi bosqichlarni tashkil qilish va amaliyotga tatbiq qilishda jahon tajribasini o'rganish va uni milliy ta'limga joriy qilish bilan birga o'qituvchi tajribasi, sinf auditoriyasi muhiti, o'quvchi va o'qituvchilar hamkorlikni qay darajada tashkil qilinganligi ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga integratsion ta'lim tushunchalarni real jahon tajribasi bilan bog'lashni ham o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilarni muloqot va tanqidiy fikrlash kabi yumshoq ko'nikmalarga ega bo'lishga undaydi, ular keyinchalik turli masalalar yoki hayotiy jarayonlarga bog'lash mumkin. Bu jihatdan asosiy maqsad shundan iboratki, o'quvchilar o'z bilimlarini egallab, turli fanlar bo'yicha mazmunli aloqalar o'rnatadigan va murakkab vaziyatlarda o'z malakalarini qo'llay oladigan tanqidiy fikrlovchilarga aylanadi. Bu jarayonni amaliyotga joriy qilishda pedagog-xodim innovatsion faoliyatni tashkil etish va dars jarayonini quyidagi bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

“...Birinchi bosqich: tayyor metodik tavsiyanomalar aniqlab ko'chiriladi.

Ikkinchi bosqich: mavjud tizimga ayrim yangi moslama (modifikatsiya)lar, metodlar kiritiladi.

Uchinchi bosqich: yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakli to'la ishlab chiqiladi.

To'rtinchi bosqich: o'qituvchi o'qitish va tarbiyalashning o'z konsepsiyasini va metodikasini ishlab chiqadi...”[5:56].

Bu jarayonlarni tashkil qilishda pedagogdan ta'lim-tarbiya sohasida nazariy bilimlarni muvofiqlashtiruvchi; obyektivlik, mavzuning dars jarayoniga mosligi, ilmiy nazariyasi amaliy jarayon bilan bog'langanligi, ilmiy nazariyaning hayotiy jarayonga zid kelmasligi asosiy qoidalardan biridir.

Ayniqsa, bu jarayonda ona tili darslarida o'quvchilarning o'qish-bilish faolligini rivojlantirishda asosiy chora-tadbirlarda integrativ yondashuv usullari birlamchi o'rinda turadi. Pedagog nazariy qoidalarni amaliyot bilan bog'lashda quyidagi talablarga e'tibor berishi kerak:

1. Kompetensiyalarga muvofiq o'quvchilarga ta'lim berish. O'quvchilarni yangi texnologiyalar, ma'lumotlar va zamonaviy kelajak kasblarga yo'naltirish asosida dars berish. Misol uchun, “Ona tili” darslarida zamonaviy aqli mashinalar, “IT va logistika”ga oid bo'lgan materiallarni berish orqali ularda bu sohaga qiziqish uyg'otish;

2. Amaliy tajriba va laboratoriya ishlari orqali o'qitish. Bunda fanga oid bo'lgan materiallarni amaliy tajriba orqali o'qitish [1:3]. Masalan: “Ona tili va o'qish savodxonligi”

darslaridagi so'z o'yinlariga oid topshiriqlarni "Texnologiya", "Tabiiy fanlar", "Tasviriy san'at" kabi fanlar bilan bog'lash. Bunda o'quvchilar topshiriqni o'zlashtirish bilan birga amaliy va uy-ro'zg'or buyumlarini yasashni o'rganadi. Bu esa o'quvchilarni kelajak hayotga tayyorlashda amaliy ko'nikma vazifasini bajaradi.

Bizning fikrimizcha, integratsion ta'lim tizmiga o'tishda faqatgina o'quvchini yo'naltirishning o'zigina kamlik qiladi. Bunda o'quvchi bilan bir qatorda o'qituvchilarga ham quyidagi talablarni qo'yish kerak:

1. Ta'lim sifati va fan kompetensiyalarining o'zgartirilishi. Boshlang'ich ta'limning "Ona tili" darslarida integrativ yondashuv usullari yangi ilmiy ma'lumotlar va tajriba bilan biriktirilgan bo'lishi kerak.

2. Tashabbuskorlik va turli ilmiy jurnallardagi maqolalar bilan ishlash. O'qituvchilarning ilmiy tatqiqotlar va tezislar bilan chiqishlarini ta'minlash, o'qituvchilar va maktablar o'rtasida muammoli ta'lim texnologiyalari asosida integrativ malaka almashishni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bu kabi tajriba almashish tashqi integratsion yondashuvni tashkil etadi. Eng avvalo, bu kabi yangiliklarni ommaga e'lon qilib, monitoring o'tkazib borish kerak.

3. Boshqaruvchi jamiyat bilan hamkorlik: "maktab, texnikum yoki universitet"ning o'zaro hamkorligini ta'minlash, integrativ yondashuv asosida tashkil etish va jamiyat tizimlari bilan muammolarni hal etish [2:3].

Bu kabi yondashuv "o'qituvchi-o'quvchi-kelajak hayot" o'rtasidagi integratsiyani yuzaga keltiradi. Bu yangilik ta'lim jarayoniga tatbiq qilinsa, integratsion ta'lim uchta asosiy komponentiga e'tibor berish o'rinli bo'ladi:

a) aloqa: turli tajribalar o'rtasidagi umumiylikni topish;

b) almashish: bir kontekstda o'rganilgan g'oyalari yoki ko'nikmalarni boshqasiga qo'llash;

c) sintez: yangi bilim olish uchun ikki yoki undan ortiq g'oya yoki ko'nikmalarni egallash [6:15].

Integratsion ta'limda o'quvchilar fan mavzularini hayotiy vaziyatlarda qo'llash mumkin bo'lgan chuqurroq va tizimli bilimlar bilan qurollantirish, sinfda integral ta'lim, fan sohaslarini chuqurroq tushunish va qadrlashga yordam beradi, bu esa tez o'zgaruvchan ish joyi ehtiyojlariga moslashishga yordam beradi.

Tadqiqotimiz davomida quyidagi integratsion yondashuvlarni qo'llashni tavsiya qilamiz:

Fanlararo loyihalar: o'quvchilar loyiha ustida ishlash yoki haqiqiy muammolarni hal qilish uchun turli fanlar bo'yicha hamkorlik qiladilar. Misol uchun, chiroqli shahar bog'ini yaratish uchun tabiatshunoslik, texnologiya va rasm darslarini birlashtirish. Bunda o'quvchilar shahar bog'ini yaratishda o'zlarining tasavvuridan foydalanib, ixcham, tejamkor, ekologik toza shaharcha yaratishga harakat qiladi. Bu esa bolaning atrof-muhit bilan munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

O'quvchi – jamoat ishlari loyihasi: bu loyihada o'quvchilarni jamoat ishlarida qatnashish uchun rag'batlantiriladi. Sinf xonasini tozalash, gullar ekish va bezatish ishlarini o'qituvchi bilan birgalikda bajaradilar. Bu kabi usullar zamonaviy rivojlangan mamlakatlar, xususan, Yaponiyada keng qo'llaniladi hamda o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. Bundan tashqari uy hayvonlarini boqish va ular haqida taassurotlarini boshqa o'quvchilar bilan o'rtoqlashish orqali o'quvchilarning bir-biri bilan muvoqot texnikasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari o'quvchilarda mehr-shafqat tuyg'usining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Reflektiv jurnallar yoki portfel loyihasi. Bu loyihada o'quvchilar tarixiy obidalar yoki tabiatga sayohatga chiqqanlarida o'zlari bilan kundalik daftarlarini olib yuradilar. Bunda o'quvchilar ko'rgan ajoyibotlari, taassurotlari haqida yozib boradilar hamda do'stlari bilan fikr almashadilar [3:2]. Bu loyihaning o'ziga xos ijobiy xususiyatlaridan

biri atrof-muhitga befarq bo'lmaslik, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan birga o'quvchining yozma savodxonligini rivojlantiradi. Bu kabi loyihalarni o'zga tili sinflarda ona tili darslarida qo'llash, ayniqsa, samarali bo'ladi.

Bu kabi loyihalarni hayotga tatbiq qilishda ham bir qancha muammo va qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Tadqiqotimiz davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bir qancha muammolarni sanab o'tmoqchimiz:

O'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha muammolar: an'anaviy ta'lim tizimlari ko'pincha fanlarni alohida tashkil etish, undagi topshiriqlar ham faqatgina aynan bir fan yuzasidan tuzilganligi, integratsion ta'lim berishga to'sqinlik qilishi mumkin.

O'quvchilar qarshiligi: ba'zi o'quvchilar maxsus fanlardan, shu fangagina tegishli topshiriqlarni bajarishni afzal ko'radilar. Bu toifadagi o'quvchilarni integratsion o'qitishga moslashtirishga biroz vaqt va mehnat talab qiladi.

Logistik cheklovlar: ayrim chekka hududlardagi maktablarda yuqoridagi sanab o'tgan loyihalarimizni amalga oshirishda masofa bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bunda o'qituvchilarga beradigan tavsiyamiz shundan iboratki, hudud sharoitidan kelib chiqqan holda topshiriqlarni berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Vaqt cheklovlari: yuqoridagi topshiriqlar berilganda dars vaqti va topshiriq hajmini to'g'ri hisoblash kerak bo'ladi.

Tadqiqotimiz davomida integrativ yondashuvlar asosida o'qitish usullari yuzasidan tajriba-sinovlarimiz natijasiga tayangan holda quyidagi tavsiyalarimizni berib o'tmoqchimiz:

1. Ta'lim ko'rsatkichlarini o'stirish: o'quvchilarga o'qish va bilishni o'rganishda ko'rsatkichlarni qo'llash juda muhimdir. Bu, o'quvchilarning o'qish va bilish darajasini nazorat qilishga yordam beradi. Misol uchun, o'quvchilarning o'qish darajasini baholash uchun ekspressiv testlar, turli xil ta'lim texnologiyalari va boshqa ko'rsatkichlardan foydalanishingiz mumkin.

2. O'quvchilarni o'qish va bilishga o'rgatish: o'quvchilarga o'qish va bilishni o'rgatish, ularning o'z fikrlarini ifoda qilish va savollar berishga o'rgatishga yordam beradi. Bu usullar orqali o'quvchini baholashda "Testkari savol-javob", "Bumerang usullari" dan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi.

3. O'quvchilarning o'qish va bilish qobiliyatini motivatsiyalar orqali oshirish: o'quvchilarni motivatsiyalar orqali rag'batlantirish, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu yuqori natija beradi. O'quvchilarni baholashda kunlik, haftalik, oylik baholarning sifati, sonini hisoblash orqali quyidagi namunaga o'xshash "medallardan" dan foydalanishni tavsiya qilamiz:



Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, o'quvchilarga integratsiyalashgan ta'lim berishda shunchaki bilim beradigan vosita sifatida qaramasdan, ta'lim sohasidagi bo'shliqlarni bartaraf etuvchi, aktiv kelajak hayotning bir qismini ta'minlab beradigan loyiha sifatida qarash kerak.

Adabiyotlar

1. Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). – Koreya: 2015. 3-b.
2. Кадырова М. Теория компетентностного подхода и взгляды на его педагогическое содержание. –М.: “Молодой учёный”. № 43 (333). 2020. –С.343.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014. -R. 4.
4. Mavlyanova R., Raxmankulova N. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va intergatsiya (o'quv qo'llanma). –Toshkent: 2013.
5. Зеер Э.Ф., Шахматова Н. Личностью ориентированные технологии пофессионального развития специалиста. – Екатеринбург: 1999. –С. 58.
6. Furqatovna X.D. Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. PEDAGOGS jurnali. –Toshkent: 2022/4/15.

REZYUME. Mazkur maqolamiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish-bilish faolligini integrativ yondashuvlar asosida o'qitish usullariga bag'ishlagan bo'lib, o'quvchilarni turli xil metod, loyihalar asosida o'qitish, o'quvchilarning muloqot va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarga ega bo'lishga undaydigan metodlardan foydalanilgan. Bundan tashqari, o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash, zamonaviy kelajak kasblariga o'quvchilarni tayyorlash bo'yicha zaruriy ko'nikma, malaka, tavsiyalar haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. Данная статья посвящена методам обучения на основе интегративных подходов учебно-познавательной активности учащихся начальных классов, использованы методы, способствующие приобретению учащимися в обучении таких навыков, как общение и критическое мышление на основе различных методов и проектов учащихся. Кроме того, были обсуждены необходимые навыки, умения и рекомендации по применению полученных знаний учащимися на практике, подготовке учащихся к современной будущей профессии.

SUMMARY. This article is devoted to teaching methods based on integrative approaches to educational and cognitive activities of primary school students, using methods that help students master skills such as communication and critical thinking, based on various methods and student projects. In addition, the necessary skills, competencies and recommendations were discussed for applying the acquired knowledge through hands-on learning to prepare students for today's future professions.

TA'LIMNI INDIVIDUALLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

S.F.Arzikulova – tadqiqotchi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: ta'lim, individuallashtirish, kredit-modul, mustaqil ta'lim, kommunikativ jarayon, psixologik, pedagogik.

Ключевые слова: образование, индивидуализация, кредитный модуль, самостоятельное обучение, коммуникативный процесс, психологический, педагогический.

Key words: education, individualization, credit module, independent learning, communicative process, psychological, pedagogical.

Kirish. Jahondagi turli mamlakatlar oliy ta'lim tizimini uyg'unlashtirish, ta'lim mazmuni, davomiyligi va tayyorlanadigan kadrlar darajalarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirlar uchun 1999-yil iyun oyida Italiyaning Bolonya shahrida dunyoning 29 ta mamlakati o'rtasida imzolangan Bolonya deklaratsiyasi muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu deklaratsiyadagi asosiy kelishuvlardan biri ta'lim jarayoniga kredit-modul tizimini tatbiq etish hisoblanadi. Oliy ta'limdagi o'quv jarayoniga o'qitishni tashkil etishning kredit-modul tizimini joriy etish pedagogik salohiyat va talabning o'z-o'zini tarbiyalash faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish omili bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda modul so'ziga e'tibor qaratish lozim. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori Ziyodulla Mardonov dissertatsiyasida modul- lotincha so'z bo'lib, "modules" – "o'lov", "uslub" ma'nolarini anglatadi. "Modul" atamasi pedagogika ga informatika fanidan kirib kelgan bo'lib, u turli axborot tizimlarida foydalaniladigan konstruktsiya ma'nosini beradi hamda ularning egiluvchanligini ko'rsatadi [1:207].

Bilimlarni ijodiy o'zlashtirish, o'quv jarayonini tartibga solish doirasida va bilimlar hajmini hisobga olgan holda mutaxassislik, tanlov asosida ta'limni individuallashtirishda har bir bilim oluvchining hayotiy pozitsiyasi, ehtiyojlari, imkoniyatlari va qobiliyatlari inobatga olinadi.

Ta'limni individuallashtirish muammosi ko'p jihatdan har bir ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Ma'lumki, davlat tomonidan qabul ilinadigan o'quv dasturlari va rejalar asosan o'rta darajada o'zlashtiruvchilar uchun mo'ljallanadi. O'z navbatida bunday dastur yuqori darajada o'zlashtiruvchi talabalar uchun ancha yengillik qiladi va zeriktiradi. O'z navbatida qiyoin o'zlashtiruvchi ham muammoga duch kelib, ularning mazkur dasturni o'zlashtirishlari uchun qo'shimcha mehnat talab etiladi. Shu nuqtai nazardan talabalarining mustaqil faoiyatlarini individual asosda tuzish ularning bilim o'zlashtirish sifatini yaxshilashga olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Individual ta'lim jarayonida quyidagi turdagi kommunikativ jarayonlar amalga oshadi:

Birinchidan, o'qituvchi har bir o'quvchi uchun alohida muloqot shakli va mazmunini ishlab chiqadi va individual yondashadi;

Ikkinchidan, bilim oluvchi mustaqil ravishda ma'lum bir ta'lim vositasi (darslik, qo'shimcha adabiyotlar, internet manbalari, axborot vositalari, ta'limiy dasutrlar kabi) bilan muloqotga kirishadi;

Uchinchidan, bilim oluvchilar o'zaro bilim o'zlashtirish ko'rsatkichlari mutanosib bo'lgan hamkor bilan muloqotga kirishadilar. Bunda har ikkalasining bilim o'zlashtirish ko'rsatkichlari teng yoki yuqori darajada bilim o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan talaba past o'zlashtiruvchi talaba bilan yordam berish maqsadida muloqotga kirishadi.

Mustaqil ta'lim jarayoniga individual yondashuv – pedagogikaning umumiy tamoyillariga mos bo'lib, **birinchidan,** talabalarining individual psixologik va pedagogik xususiyatlariga mos ravishda mustaqil ta'lim modellari ishlab chiqish bilan tavsiflanadi;

Ikkinchidan, talabalarining individual qobiliyatlarini, rivojlanish yo'nalishlarini inobatga olishni anglatadi;

Uchinchidan, talabalar bilan o'zaro muloqot o'rnatishda ularning psixologik holatlarini to'g'ri baholashni nazarda tutadi;

Mustaqil ta'limni individuallashtirish – bu talabalarining individual sifatlarini, psixologik-pedagogik xususiyatlariga asoslanuvchi mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish va tashkil etish jarayonidir. Ushbu jarayon o'z ichiga individual yondashuvni amalga oshirishga yordam beruvchi turli o'quv-metodik, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlarini qamrab oladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda foydalaniladigan individual ta'lim texnologiyasida individual yondashuv va individual ta'lim topshiriqlari ustuvorlik qiladi. Umumiy holda olib qaraydigan bo'lsa, ta'limga individual yondashuv bugungi kunda ko'plab ta'lim texnologiyalarida ustuvorlik qiladi.

Ta'limni individuallashtirish muammosi o'tgan asrning boshlaridayoq ko'zga tashlanib, YE. Parkxarst tomonidan 1919 yilda Dalton shahrida (AQSH) sinf-dars tizimining

o'rniga o'quvchilarning o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan maxsus reja asosida amalga oshiriladigan individual mustaqil ishlaridan foydalanish nazariyasi taklif etiladi. Mazkur nazariya Dalton-plan deb nom oldi. Bugungi kunda ta'limni individuallashtirish borasida ham qator texnologiyalar ishlab chiqilmoqda va ulardan quyidagilar keng qo'llanilib kelinmoqda:

– Inga Unt tomonidan ishlab chiqilgan individuallashtirilgan ta'lim texnologiyasi;

– A.S. Granitskayaning adaptiv ta'lim tizimi;

– V.D.Shadrikov tomonidan ishlab chiqilgan individuallashtirishgan o'quv rejasi asosidagi ta'lim.

Oliy ta'lim jarayonida talabalar individual ta'lim topshiriqlari quyidagi mazmunda tuzilishi mumkin:

- Turli ilmiy manbalar (darsliklar, lug'atlar, ilmiy ma'ruzalar, o'quv qo'llanmalar, xrestomatiyalar) bilan ishlash;

- Turli topshiriqlar, masalalarni yechish;
- Kuzatuvlar tashkil etish;
- Empirik topshiriqlar;
- Pedagogik eksperiment o'tkazish;
- Esse, referat, maqola yoki insholar yozish.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni asosida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarining 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Kredit-modul tizimida auditoriya va mustaqil ta'lim soatlari nisbati o'rtacha 40/60 foizni tashkil etadi [2]. Ta'lim-tarbiya jarayonida talabalar mustaqil

ta'limini tashkil etish masalasini tahlil etish va ishlab chiqishga zamonaviy nuqtai nazardan yondashish, uning samarali metod, shakl hamda vositalaridan foydalanishga e'tibor qaratish bugungi kunning talabidir.

Tahlillar va tadqiqotlar mazkur muammolarni yechishda tayanch nuqta bo'lib pedagogning o'z pozitsiyasi, yangicha pedagogik tafakkurga ega bo'lishga xohishi va qobiliyati, alohida pedagogik dasturlar va texnologiyalarni tanlash va ishlab chiqish ko'nikmasi belgilanishini ko'rsatadi [3:78]. I.M.Osmolovskaya fikricha individuallashtirish ta'limni tabaqalashtirishning muhim shakli bo'lib, unda o'quv jarayoni nafaqat guruhning, balki har bir alohida olingan ta'lim oluvchining xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi.

Xulosa va takliflar. Ta'limni individuallashtirish muammosi ko'p jihatdan har bir ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Ma'lumki, davlat tomonidan qabul qilinadigan o'quv dasturlari va rejalar asosan o'rta darajada o'zlashtiruvchilar uchun mo'ljallanadi. O'z navbatida bunday dastur yuqori darajada o'zlashtiruvchi talabalar uchun ancha yengillik qiladi va zeriktiradi. O'z navbatida qiyin o'zlashtiruvchi ham muammoga duch kelib, ularning mazkur dasturni o'zlashtirishlari uchun qo'shimcha mehnat talab etiladi. Shu nuqtai nazardan talabalarning mustaqil faoiyatlarini individual asosda tuzish ularning bilim o'zlashtirish sifatini yaxshilashga olib keladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, talaba psixologiyasi asta-sekin tayyor bilimning "iste'molchisi" dan ta'limni ijodiy idrok etishga o'tadi. Ta'limning muhim jihati - zamonaviy talabaning "ma'naviyati"dir.

Adabiyotlar

1. Mardonov Z.A. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda modul texnologiyalarini takomillashtirish ped.fan. – Chirchiq: 2019. 207- b.

2. O'zbekiston Respyblikaci Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847 sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/4545884>

3. Vozgova Z.V. Deyatelnostniy podxod k modelirovaniyu regionalnoy sistemi neprerivnogo povisheniya kvalifikatsii nauchno-pedagogicheskix rabotnikov: diss... dok.ped.nauk. -Moskva: 2015. 388-b.

REZYUME. Mazkur maqolada ta'limni individuallashtirish muammosi, individual ta'lim jarayonida kommunikativ jarayonlar, mustaqil ta'lim jarayoniga individual yondashuv, mustaqil ta'limni individuallashtirish, kredit-modul tizimi sharoitida ta'limni individuallashtirishning muhim jihatlari haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются проблема индивидуализации обучения, коммуникативные процессы в процессе индивидуального обучения, индивидуальный подход к процессу самостоятельного образования, индивидуализация самостоятельного образования, важные аспекты индивидуализации обучения в условиях кредитно-модульной системы.

SUMMARY. This article discusses the problem of individualization of learning, communication processes in the process of individual learning, an individual approach to the process of independent education, individualization of independent education, important aspects of individualization of learning in the conditions of a credit-module system.

BENEFICIAL LITERARY WORKS IN TEACHING ENGLISH

D.A.Atadjanova – a trainee teacher

N.M.Omarova – a trainee teacher

Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: adabiyot, romanlar, o'qish, so'z boyligini oshirish, sarguzashtli hikoyalar.

Ключевые слова: литература, романы, чтение, расширить словарный запас, приключенческие рассказы.

Key words: literature, novels, reading, expanding vocabulary, adventurous stories.

Literature gives people pure pleasure and satisfaction to the life while reading thrilling works of the writers. By reading a mixed variety of novels or a short piece of writing readers can visualize the actions that are happening in these books. As a result, individuals can boost their world knowledge by means of reading literary works in different genres such as detective, drama, historical, folklore and others. Due to plenteous advantages, educators bring literary materials for the classes not only reading for excitement but also reading for main purposes as improving reading comprehension and vocabulary development. Moreover, "Many works in literature establish a strong connect with their audience through the stories they narrate or the message they carry. Readers tend to associate themselves with the emotions portrayed in these works and become emotionally involved in them. Literature thus has a deep impact on the readers' minds and in turn, their lives" [2]. Honestly,

literary works exerts a considerable influence on people's minds that assists them to identify what is good and bad. In this article some literary books will be suggested to teach English language with useful and feasible ways.

The Great Gatsby by Scott Fitzgerald. This masterpiece is referred as one of the beneficial and thrilling novels for individuals with its spellbinding events. "The Great Gatsby, a novel which engages with contemporary political and social issues, such as race, gender, assimilation, integration and class stratification, and has the potential to develop students' learning experiences through its reading, could be considered as a potent example of literature that is relevant to students' interests" [1:4]. According to this viewpoint, this work arouses interests of readers to enhance their language skills such as reading. The reason why, people who are learning foreign languages by literature can acquire knowledge quickly about a target language with the

help of engrossing poetry, novels, compilations. Furthermore, while reading new advanced words, word expressions are faced that urge students to work on themselves. So that *Great Gatsby* creates more possibilities to enrich students' vocabulary, improves personal experience, broadening their knowledge about real life situations.

Robinson Crusoe by Daniel Defoe. It is referred as one of the popular novels all over the world with its adventurous and amazing events. There is no one who does not know about this fascinating novel. People have overwhelming desire to read this work with enthusiasm again and again. Due to many advantageous sides, it is suggested for students to enhance their comprehension, vocabulary generally, it helps broaden their mind how to do, what to do if they come across challenging situations as Robinson. This novel tells the story of a shipwrecked person who stays alone on an island during many years. In this period, he begins to adapt this terrible situation by learning new skills to survive such as filtering fresh water, building a shelter, hunting dangerous animals to live. Specifically, he develops his innovative skills to create own necessities. From this novel, readers can take ample benefits:

- Expanding vocabulary;
- Developing reading comprehension;
- Learning life skills;
- Improving problem-solving abilities: critical thinking, creativity;
- Developing innovative skills;
- Learning how to overcome tough situations;
- Adapting for all situations of life;

"Robinson's actions and transactions demonstrate his openness to the opportunities presented to him. This characteristic is the key to success for any aspiring entrepreneur, because even if the opportunity sometimes does not match our initial plan, it may open up new avenues that can lead to unexpected improvements" [5:14]. Not only those benefits above, but also this idea about entrepreneurship gives a hand for youngsters to develop their entrepreneurial skills. Since, innovative abilities, creativity, adaptation, searching new opportunities and attempts to get rid of problematic situations can be clear examples for entrepreneurship. Truthfully, this novel is more appropriate for students of Secondary School and Higher Institution with its numerous of merits as specified above.

The Adventures of Huckleberry Finn by Mark Twain. This masterpiece describes the adventures of Huckleberry Finn that are full of captivating events for readers. Schoolchildren and students of Higher Institutions can read this work with pleasure and mostly develop their narrative skills. The absorbing stories of it engage learners' attention to pore over this novel ardently. The most crucial part of this novel is considered the description of slavery period.

Luciano Cabral mentioned that "Huckleberry Finn can teach us realism, non-standard language, tall tale, religion, humor, and rebellion. Nonetheless, there is yet one last issue we can learn from this novel. The moment Huck runs away from Widow Douglas's house, he inevitably sets off for a metaphorical journey. The Mississippi River through which he sails becomes the passage to a symbolic relationship between the black and the white American skin. The runaway Huck meets the runaway Jim, and then they establish a deep and close friendship" [3]. As it can be clear from this point of view, from this literary work learners not only can improve their English but also, they can improve social skills as friendship. Besides this, it is full of positive sides for learners that knowledge about realistic ideas, informal language, religion, and etc. is extended. Communities can learn to look the world with a real viewpoint in order to adapt all situations of life not to defeat while encountering troubles. The sequence of actions engrosses readers in reading till the end of the story that aids to boost their vocabulary and reading skill. In addition to this, due to unravelling of the plot learners cannot put it down. Over the years this bestseller is being sold by individuals and passed one generation into another.

Gulliver's Travels by Jonathan Swift. This marvelous feat has a significant role both in past times and modern years as well. It could be because it consists of a plethora of gripping occurrence that attracts readers' attention. Owing to compulsive reading, individuals feel themselves like in the fairytale that can imagine all events by absorbing in a book. "Gulliver's Travels contains humorous moments, most memorably those related to bodies and bodily functions, but its criticism reaches across a number of topics and uses a number of other techniques" [4:5]. Truthfully, satire is represented by such kind of humorous moments that includes lots of implied actions. In addition to this, people can learn some new terms as Lilliputian that describes the items or people that are tiny and interesting. The plot, settings, characters, all of them are beautifully described that make readers to read it from cover to cover.

To conclude, all of the books that are mentioned above are suitable for English learners who have great passion for literary works. Especially, they are dedicated to teach students of Secondary School and Higher Education due to the suitability for their levels. "Great Gatsby", "Robinson Crusoe", "The Adventures of Huckleberry Finn", "Gulliver's Travels" are meaningfully and beautifully written works with hilarious stories. Even if films were made with amusing events based on these books. English language learners can boost their language skills by learning new words, reading captivating stories. Due to numerous beneficial sides, these masterpieces are highly recommended for those who are really adore to improve language skills.

References

1. Anna Sefertzi. F. Scott Fitzgerald's *The Great Gatsby*. Developing Narrative Empathy through Literature in the Upper Secondary Classroom. Mittuniversitet, Mid Sweden University. 2022. -P.4.
2. Dr. Prasanta Kumar Padhi. The Relevance of Reading Literature in the 21st century. Dept. of Humanities, Veer Surendra Sai University of Technology, Burla 768018 Odisha India. International Journal of Management, Technology and Engineering Volume 8, ISSN NO:2249-7455. September 2018.
3. Luciano Cabral. What Can The Adventures of Huckleberry Finn Teach Us When We Teach The Adventures of Huckleberry Finn? Article originally published in: *Escritos Discentes em Literaturas de Língua Inglesa*. Vol. XII. Fernanda Medeiros & Vanessa Cianconi (ed.). In Portuguese, Universidade do Estado do Rio de Janeiro. Rio de Janeiro: Letra Capital, 2019.
4. Krishna Mahali, Assistant Professor. Course material on Gulliver's Travels for English Hons. Semester-II Paper-CC3 (British Literature: fiction and nonfiction) Department of English, Raja Narendralal Khan Women's College (Autonomous) Midnapore, West Bengal. April, 2020. -P.5.
5. Rachid Benfares. Reading Defoe Today. Robinson Crusoe: an Inspiring Entrepreneur. The international journal of applied language studies and culture (IJALSC), 6(2). English Department, University of Hassan II, Casablanca, Morocco. 2023. -P.14.

РЕЗЮМЕ. Ushbu maqola ingliz tilini muvaffaqiyatli o'rganish uchun foydali bo'lgan adabiy asarlar haqida. O'quvchilarga ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan kitoblar haqida ma'lumot beradi.

РЕЗЮМЕ. Данная статья о литературных произведениях, которые полезны для успешного изучения английского языка. Представляет читателям информацию о книгах, которые можно использовать в учебном процессе.

SUMMARY. This article is about literary works that are beneficial to learn English language successfully. It provides readers with the information about the books that can be used in teaching process.

SUN'IIY INTELLEKT TIZIMLARIDAN FOYDALANISHNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

Z.E.Azimova – pedagogika fanlari doktori, professor

Andijon davlat pedagogika instituti

M.V.Abdujabborov – tayanch doktorant

Andijon davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: intellekt, sunʼiy intellekt, kompyuter, platforma, shaxsiylashtirish, repetitorlik, baholash, chatbot, oʻzgaruvchanlik, qiyin vazifa, moslashtirish, soddalashtirish, aniqlashtirish.

Ключевые слова: интеллект, искусственный интеллект, компьютер, платформа, персонализация, обучение, оценка, чат-бот, вариативность, вызов, настройка, упрощение, доработка.

Key words: intelligence, artificial intelligence, computer, platform, personalization, tutoring, assessment, chatbot, variability, challenge, customization, simplification, refinement.

Mamlakatimizda soʻnggi yillarda taʼlim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish boʻyicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Xususan, sunʼiy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qoʻllash, raqamli maʼlumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini taʼminlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasiga katta eʼtibor qaratildi.

Yurtimizda sunʼiy intellekt keng joriy etishda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Sunʼiy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” [1]gi qarori va Prezidentimizning “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi toʻgʻrisida” [2]gi farmoni ijrosini taʼminlash borasida ushbu maqolaning mazmuni sunʼiy intellektning taʼlim tizimidagi oʻrni, yutuq va kamchiliklarini yoritishga qaratilganligi bilan dolzarblik aks etadi. Sunʼiy intellektni tadbir qilinishini xattoki, hayotimizning kundalik holatlarida kuzatishimiz ham mumkin. Masalan, moliyaviy xizmatlarda firibgarlikni aniqlash, chakana savdoda ehtiyojni bashorat qilish, mijozlar bilan onlayn muloqat qilish yoki masofaviy qoʻllab-quvvatlash xizmatlarini amalga oshirish [3].

Sunʼiy intellekt bizning kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi va har bir sohaga oʻz taʼsirini koʻrsatib bormoqda. Sport sohasidan taʼlimgacha, sunʼiy intellekt bizning ishlashimiz va foydalanishimizni taqozo etmoqda. Taʼlimdagi sunʼiy intellekt barcha yoshdagi oʻquvchilar uchun yangi imkoniyatlar ochdi.

Uzluksiz taʼlim tizimida sunʼiy intellektidan foydalanish yuzasidagi yondashuvlar dunyo olimlari Melanie Mitchel, Stuart Russell, Kevin P. Murphy, Max Tegmark, Henry a. Kissinger, Erich Schmidt, Daniel Huttenlocher [6] va respublikamiz olimlari T.A.Xoʻjaqulov, N.T. Malikova [4]; Sh.A.Sadullayeva, D.Yusupov, F.Yusupov [3]; H.N.Zaynidinov, T.A.Xoʻjaqulov, M.P.Atadjonova [5] lar tomonidan tadqiq etilgan va ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda sunʼiy intellekt taʼlimning muhim va eng zamonaviy koʻrinishlaridan biri boʻlib, taʼlimda samaradorlikni oshirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Quyida oliy taʼlim tizimida sunʼiy intellekt samaradorligining ahamiyatli tomonini koʻrib chiqamiz:

– oʻqituvchilar sunʼiy intellektidan foydalanib, talabalar uchun moslashtirilgan taʼlim dasturlarini yaratishlari mumkin;

– har bir talabaning oʻz oʻzgaruvchanliklariga mos keladigan darslar va taʼminotlarni taklif qilishga yordam berishi;

– oʻqituvchilarga kontentni yanada samarali yaratish va yangilash imkonini berishi, bu esa oʻquv materiallari doimo dolzarb boʻlishi;

– talabalarga oʻz taʼlim sohasidagi soʻnggi yangiliklardan xabardor boʻlishga yordam berish va kelajakda uchrashi mumkin boʻlgan muammolarni bartaraf etishga yordam berishi;

– har bir talabaga oʻrganish uslublari, qiziqishlari va qobiliyatlarini asosida shaxsiylashtirilgan taʼlim tajribasini taqdim etish orqali taʼlimni rivojlantirishi;

– taʼlim dasturlarini talabalar uchun yanada qiziqarli qilish uchun moslashtirishi;

– talabalarining taraqqiyotini kuzatib boradi va kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi;

– talabalar oʻzlarining koʻp vaqt talab qiladigan va qiyin vazifalarini, topshiriqlarini va koʻp tanlovli testlarni bajarishga koʻmaklashishi;

– chatbotlardan foydalanib, talabalar oʻqituvchilar va guruh rahbarlari bilan jonli suhbatlar oʻtkazish;

– botlardan moslashtirilgan javoblar boʻyicha chet tilini oʻrganish jarayonini soddalashtirish;

– til oʻrganish boʻyicha eng katta platforma ekanligi;

– talabalarni audio va vizual suhbatlarga ega boʻlish va til oʻrganishni oson va qulaylashishi;

Bundan koʻrinadiki, uzluksiz taʼlimda sunʼiy intellektning qoʻllanilishi eksponensial surʼatlarda oʻsib borayotgani uning oʻrni va ahamiyatini oshirmoqda. Xususan, 2020-yilda sunʼiy intellektning taʼlim bozori hajmi 1,1 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Yunesko hisobotlariga koʻra, 2024 yilga kelib u 6 milliard dollarga yetishi kutilmoqda bu atigi toʻrt yil ichida 445 foizga sezilarli oʻsgan deb hisoblasak, Market Research Engine hisobotiga koʻra, bozor hajmi 2027-yilga kelib 12 milliard AQSh dollariga yetishi va uch yildan soʻng u yana 100 foizga oʻsishi kutilmoqda.

Dunyo boʻylab koʻplab institutlar jarayonlarni avtomatlashtirish va samarali taʼlim berish uchun sunʼiy intellektidan foydalanmoqda. Sunʼiy intellekt taʼlimni kamaytirmaydi, balki uni koʻp jihatdan yaxshilaydi. Sunʼiy intellektning ijobiy afzalliklari va salbiy kamchiliklari uning interaktivligi hamda intellektualligini taʼminlaydi. Sunʼiy intellekt taʼlimga integratsiyalashning beshta qiziqarli potentsial afzalliklari mavjud:

– shaxsiylashtirish

– repetitorlik

– baholash

– kurs sifati boʻyicha fikr-mulohazalar

– talabalar uchun mazmunli va tezkor fikr-mulohazalar

Shaxsiylashtirish: bitta oʻqituvchi uchun har bir oʻquvchining oʻz sinfidagi ehtiyojlarini qanday qondirishni bilish juda qiyin boʻlishi mumkin. Sunʼiy intellekt tizimlari har bir oʻquvchining individual taʼlim ehtiyojlariga osongina moslashadi va oʻrganishni ularning kuchli va zaif tomonlariga yoʻnaltirishi mumkin.

Repetitorlik: sunʼiy intellekt tizimlari oʻquvchiga ularning oʻrganish uslubi va mavjud bilimlarini aniqlash orqali yordam berishi va yoʻnaltirishi mumkin.

Baholash: albatta, sunʼiy intellekt javob kalitlari yordamida imtihonlarni baholashga yordam beradi; ammo u talabalar qandav ishlaganligi haqida maʼlumot toʻplash baholashni mavhumlashtirishi mumkin.

Kurs sifati boʻyicha fikr-mulohazalar: misol uchun, agar koʻplab talabalar savolga notoʻgʻri javob berishsa, sunʼiy intellekt talabalarga yetishmayotgan aniq maʼlumotlar yoki gʻoyalarni taqdim etishi mumkin.

Talabalar uchun mazmunli va tezkor fikr-mulohazalar: baʼzi talabalar tavakkal qilishdan yoki sinfdan tanqidiy fikr-mulohazalarni olishdan uyalishlari mumkin, ammo sunʼiy intellekt yordamida talabalar oʻrganish uchun zarur boʻlgan xatolarga yoʻl qoʻyishlari va yaxshilash uchun zarur boʻlgan fikr-mulohazalarni olishlari mumkin.

Bu dunyodagi hamma narsa muvozanatli boʻlishi uchun oʻzining ijobiy va salbiy tomonlariga ega boʻlishi kerak va

sun'iy intellekt ham bundan mustasno emas. Ta'limga integratsiyalashda sun'iy intellektning 4 ta kamchiliklarini ko'rib chiqamiz:

- o'qituvchining mehnat xavfsizligiga tahdid;
- insonparvarlashtirilgan ta'lim tajribasi;
- o'qituvchilar uchun amalga oshirish qimmat;
- texnologik qaramlik.

O'qituvchining mehnat xavfsizligiga tahdid: Bu hali sodir bo'lmayapti, ammo sun'iy intellektning rivojlanishi ta'limdagi muayyan ish rollariga bo'lgan ehtiyojga ta'sir qilishi mumkinligi tashvishlidir. Ta'lim jarayonining ko'proq jihatlari avtomatlashtirishda davom etar ekan, inson o'qituvchilariga kamroq talablar qo'yilishi mumkin, bu esa mahsulдорlikning oshishiga va ishning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Insonparvarlashtirilgan ta'lim tajribasi: Ta'limdagi sun'iy intellektning eng katta kamchiliklaridan biri shundaki, u o'rganish tajribasini insoniylashtirishi mumkin. Tarkibni yaratuvchi va darslarning tezligini hal qiluvchi sun'iy intellekt algoritmlari bilan talabalar inson o'qituvchisi taklif qiladigan nozik yondashuvni o'tkazib yuborishi mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellekt algoritmlari tarfakashlikni davom ettirishi mumkin, ya'ni ular har bir talabaning ehtiyojlariga moslashtirilgan inklyuziv va xilma-xil o'quv dasturini taqdim eta olmasligi mumkin.

O'qituvchilar uchun amalga oshirish qimmat: sun'iy intellektning ta'limdagi yana bir kamchiligi shundaki, uni qo'llash o'qituvchilar uchun qimmatga tushishi mumkin. Hamma maktablar va ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt vositalari va texnologiyalariga sarmoya kiritish uchun

byudjet mablag'lari mavjud emas. Bundan tashqari, maktablarda sun'iy intellektni ommaviy qabul qilish narxi hozir juda yuqori bo'lishi mumkin. Agar o'qituvchi xarajatlarni o'z zimmasiga olsa, uni ushlab turish qimmat va qiyin bo'lishi mumkin.

Texnologiyaga qaramlik: maktablar sun'iy intellektga asoslangan yechimlarga tobora ko'proq tayanar ekan, o'qituvchilar va o'quvchilar texnologiyaga haddan tashqari qaram bo'lib qolish xavfi ostida. Uzoq muddatda bu qaramlik muhim an'anaviy o'qitish usullarini e'tiborsiz qoldirishi va tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, quyidagicha xulosa qilish maqsadga muvofiq. Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlari juda kuchli; lekin o'qituvchi sifatida siz o'zingizni sun'iy intellektidan ta'lim maqsadlarida foydalanishni cheklashingiz kerak emas. Bizning dunyomiz u borada rivojlanmoqda va biz sun'iy intellektning kuchi zarardan ko'ra ko'proq foyda keltirishi mumkinligini tan olishimiz kerak, shuning uchun siz uni nafaqat ta'limda, balki barcha sohalarida qo'llanilishini kutishingiz mumkin. Biz uni me'yorida ishlatishni o'rganishimiz va talabalarimiz uchun sun'iy intellektga to'liq tayanmasliklari uchun yaxshi imidj yaratishimiz kerak.

Umuman olganda, sun'iy intellektning ta'limdagi roli o'qituvchilar hamda talabalar uchun yangi imkoniyatlarni taklif qiladi. Undan faol foydalanish orqali o'qituvchilar va talabalar o'sishi, rivojlanish talabalar natijalarini yaxshilash va guruhdagi tenglikni ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 17.02.2021-yildagi PQ-4996-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 05.10.2020-yildagi PF-6079-son Farmoni.
3. Sadullaeva Sh., Yusupov D., Yusupov F. "Sun'iy intellekt va neyron to'g'ri texnologiyalar". – Toshkent: 2020. 8-b.
4. Xo'jaqulov T.A., Malikova N.T. "Sun'iy intellekt". – Toshkent: 2020. 4-b.
5. Zayniddinov H.N., Xo'jaqulov T.A., Atadjanova M.P. "Sun'iy intellekt". – Toshkent: 2018. 18-b.
6. <https://www.eecs.mit.edu/people/daniel-huttenlocher/>

REZYUME. Maqolada sun'iy intellektning ta'lim tizimidagi o'rni, uning imkoniyatlari va ushbu sohadagi ilmiy yangiliklari keltirilgan. Ta'lim tizimida sun'iy intellektidan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari ta'kidlangan. Sun'iy intellektidan to'g'ri foydalanish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha yondashuvlar izohlangan.

РЕЗЮМЕ. В статье представлена роль искусственного интеллекта в системе образования, его возможности и научные инновации в этой области. Выделены преимущества и недостатки использования искусственного интеллекта в системе образования. Объясняются подходы к правильному использованию искусственного интеллекта и его эффективности.

SUMMARY. The article presents the role of artificial intelligence in the educational system, its possibilities, and scientific innovations in this field. It highlights the advantages and disadvantages of using artificial intelligence in the educational system. Approaches to the correct use of artificial intelligence and its effectiveness are explained.

ТАЙМ-МЕНЕДЖМЕНТ ТА'ЛИМ FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VOSITASI SIFATIDA

B.S.Bekniyazov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: vaqt, ta'lim tashkiloti, rahbar, taym menejment, vaqtni boshqarish, ta'lim texnologiyalari, ta'lim jarayoni, ta'lim faoliyati, Eyzexauer matritsasi.

Ключевые слова: время, образовательная организация, руководитель, тайм-менеджмент, образовательные технологии, образовательный процесс, образовательная деятельность, матрица Эйзенхауэра.

Key words: time, educational organization, leader, time management, time management, educational technologies, educational process, educational activities, Eisenhower matrix.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim tizimining samaradorligi uning raqobatbardosh bo'lishi juda ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular ichida zamonaviy taym-menejment funksiyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Taym-menejment (ingl. «time-management» – **vaqtni boshqarish**) – shaxsiy va professional sohalarida maqsadlarga erishishga hissa qo'shadigan ish va shaxsiy vaqtni samarali tashkil etishga imkon beradigan texnologiya sifatida qarash kerak bo'ladi. Bizning fikrimizcha **taym-menejment** – eng avvalo, insonning jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishiga qaratilgan mehnat va mashqlar yig'indisidir [2:49].

L.J.Zeyvertning fikricha, vaqtni boshqarish – bu o'z-o'zini boshqarish va o'z turmush tarzini intensiv shakllantirishdir. Vaqtdan unumli foydalanish doimiy

ravishda insonni bezovta qiladi. Chunki, barcha insonlar ham belgilangan muddatga muvofiq oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshira olmaydilar [3:25].

Kimdir kam kuch sarflash orqali muvaffaqiyatlarga erishadi, kimdir esa ko'p kuch yo'qotish hisobiga past natija ko'rsatkichiga ega bo'ladi. Shu boisdan ham vaqtdan unumli foydalanish masalasi psixologik muammo sifatida boshqaruv faoliyatimizda uchrab turadi. Ko'p holatlarda vaqtni unumli boshqarish jarayoni quyidagi unsurlarni o'z ichiga oladi: ishlash qobiliyati va his-tuyg'uni boshqarish; maqsadni to'g'ri rejalashtirish; vazifalarni belgilash va amalga oshirish; oldinga qo'yilgan maqsadga erishish; xulosa chiqarish [4:7].

Hozirgi kunda o'qituvchilar o'z ishlarini ko'p qirrali rejimda bajarmoqda. Ular nafaqat ta'limning ijtimoiy

mavqeini yaxshilash, balki o'quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, ularning o'sishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, umumiy shaxsiy madaniyatni shakllantirish bilan bog'liq muammolar majmuasini hal qilishlari, axloqiy, estetik va intellektual qadriyatlarini singdirish, shuningdek, ularni sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish kabi vazifalarni hal qilmoqda.

O'qituvchining o'zi o'z ishini samarali bajarishga imkon beradigan muayyan vakolatlar va maxsus bilimlarga ega bo'lishi kerak. O'qituvchining doimiy o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy mahoratini oshirish bilan bog'liq ko'plab mehnat vazifalari va muammolarni hal qilishning muhimligi, shuningdek, ma'lum uy ishlarini bajarish zarurati jiddiy vaqt tanqisligi sharoitida amalga oshirilmoqda. Bu neyropsix charchoq nafaqat uning sog'lig'iga, balki pedagogik jarayonning o'ziga ham xavf tug'dirishiga olib kelishi mumkin.

Har qanday faoliyatda vaqtni boshqarish usullarini o'zlashtirish va undan ish faoliyatida oqilona foydalanish pedagog xodimlarning samarali ishlashlari uchun katta yordam beradi. Gleb Arxangelskiyning fikriga ko'ra, vaqtni boshqarish – bu almashtirib bo'lmaydigan hayot vaqtidan shaxsiy maqsadlar va qadriyatlarga muvofiq foydalanish imkonini beradigan texnologiya. Shuning uchun vaqtni boshqarishning maqsadli funksiyasi baxtdir [1:13].

Vaqtni boshqarish elementlariga quyidagilar kiradi: vaqtdan foydalanishni tahlil qilish, maqsadni belgilash, vaqtni rejalashtirish, vaqt resurslaridan noratsional foydalanish sabablariga qarshi kurashning turli usullarini ishlab chiqish. O'z navbatida, to'g'ri qo'yilgan maqsad identifikatsiyalash mezonlarini belgilaydi, maqsadga erishish haqidagi savolga asosli javob berishga imkon beradi va o'z vaqtini samarasiz sarf-xarajatlardan tejab, keyingi ko'zlangan maqsadga tez va zudlik bilan o'tish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda vaqtni boshqarish muammosiga turli xil yondashuvlar mavjud. Shunday qilib, mutaxassislar vaqtni boshqarishning uch turini ajratib ko'rsatishadi: Personal (shaxsiy), rolga asoslangan (professional), ijtimoiy vaqtni boshqarish [4].

Personal (shaxsiy) taym-menejmentning asosiy maqsadi insonga shaxsiy maqsadlariga erishishda, ya'ni "ichki muvaffaqiyatga" erishishda yordam berishdir.

Personal (shaxsiy) taym-menejment usullari orasida insonga o'zini chuqurroq bilishda, uning istak va intilishlarini aniqroq aniqlashda, muvaffaqiyatga erishishdagi ichki to'siqlarni yengib o'tishda yordam berish va boshqalar kiradi. Personal (shaxsiy) taym-menejmentda hayotning turli sohalariga sarflangan vaqtni optimal-lashtirish go'yo «ichkaridan» insonning o'zini uyg'unlashtirish orqali erishiladi.

Rolga asoslangan (professional) taym-menejmentning vazifasi insonga har qanday ijtimoiy rolni bajarish doirasida muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam berishdir. Ushbu ijtimoiy rollardan biri bu bizning professional rolimiz – qayerda va kim bilan ishlaymiz, qanday ish vazifalarini bajaramiz va buni qanchalik samarali amalga oshiramiz. Professional taym-menejmentning 50% ini mehnat faoliyati psixologiya-si, ya'ni 50% ini MIT (mehnatni ilmiy tashkil etish) rein-jiniring va sifat menejmenti ya'ni mehnat samaradorligini oshirish usullari tashkil etadi.

Misol uchun, siz rahbarlik lavozimida ishlaysiz va har qanday kichik ikkinchi darajali vazifalarni mustaqil rav-ishda bajarish uchun juda ko'p vaqt sarflaysiz. Ehtimol, bu sizning ba'zi boshqaruv kompetensiyalaringiz yetarli dara-jada rivojlanmaganligi bilan bog'liq: ishingizga ustuvorlik bera olmaslik; ish kunini rejalashtira olmaslik; kichik vazifalarni qo'l ostidagilarga topshira olmaslik va hokazo. Siz-ning kasbiy faoliyatingizda «vaqt yetmaslik» sabablari aniqlangandan so'ng, siz uning salbiy oqibatlarini «davo-

lash» sxemasini va vaqtni boshqarish usullarini tanlashingiz lozim [5].

Ijtimoiy taym-menejment shaxslararo munosabatlarda yoki bir nechta odamlarning umumiy vaqt boshqaruvi-ga bog'liq muammolarni o'rganadi. Bunga korporativ vaqtni boshqarish misol bo'la oladi munosabatlar vertikal ravishda tartibga solinganda, aloqa ikki tomonlama: menejerdan xo-dimgacha va aksincha.

Vaqtni yo'qotishning aniqlangan faktlarini yengishga yordam beradigan turli xil vaqtni boshqarish texnologiya-lari mavjud, ammo zamonaviy taym-menejment nafaqat usullar va individual texnika va texnologiyalar to'plami, balki o'zini va o'z faoliyatini boshqarishning keng qamrovli tizimidir. Shunday qilib, S.Kovi vaqtni boshqarishning to'rtta darajasini belgilaydi [6:76].

1-daraja - bu kuch va vaqt sarflashni talab qiladigan hamma narsani tartibga solish va tizimlashtirish uchun eslatmalar. Biroq, ushbu texnologiyadan foydalanish inson resurslarini rivojlantirishga va ulardan samarali foyda-lanishga yordam bermaydi;

2-daraja taqvim va kundaliklardan foydalanishni tavsi-flaydi, bu kelajakka qarash, voqealar va tadbirlarni re-jalashtirishga urinishni aks ettiradi. Ushbu texnologiyadan foydalanadigan odamlar ko'proq o'zini tuta bilish bilan ajralib turadi, ular hamma narsani o'z vaqtida bajarishga muvaffaq bo'lishadi;

3-daraja - vaqtni boshqarishdagi zamonaviy vaziyat, ustuvorliklar belgilab qo'yilgan, aniq maqsadlarni belgilash va kundalik rejalashtirishga e'tibor qaratish. Bu darajadagi odamlar maqsadlarni aniq belgilaydilar, har bir kunni re-jalashtirishadi va ustuvorliklarni aniqlaydilar. Bu daraja vaqtni boshqarishning zamonaviy yondashuviga eng mos keladi;

4-daraja bizning umidlarimizni harakat va vaqtning o'ziga emas, balki munosabatlarni saqlab qolish va rivojlantirish va natijalarga erishishga qaratadi. Vaqtni boshqarishning to'rtinchi darajasining mohiyati shundaki, biz vaqtni to'rtta usuldan birida o'tkazamiz. Shoshilinch (tezkor e'tibor talab qiladigan narsa) shoshilinch emas; mu-him (sizning missiyangiz, qadriyatlarangiz va maqsadlar-ingizni amalga oshirishga hissa qo'shadigan narsalar) - mu-him emas. Bu usul D.Eyzenxauer matritsasi deb ataladi.

D.Eyzenxauerning «matritsa»si vazifalarga ustuvorlik berish va vaqtni rejalashtirish uchun yaxshi vositadir. Bu sizga nimaga e'tibor qaratish, nimani topshirishga harakat qilish va nimani butunlay tark etishni hal qilishga yordam beradi.

Aynan ushbu usulning asosiy tamoyili: «Hamma sho-shilinch masalalar ham muhim emas va hamma muhim masalalar ham shoshilinch emas» iborasi ham unga tegish-lidir. Matritsa ikkita ustunga asoslangan - «muhim» va «shoshilinch». Har qanday muammoni ko'rib chiqayotgan-da, biz faqat ikkita savolga javob berishimiz kerak: «Bu muhimmi?» ha/ yoq; «Bu shoshilinchmi?» ha/yoq; Javo-blarga qarab, vazifalarni sektorlarga taqsimlang: muhim, shoshilinch; muhim, shoshilinch emas; shoshilinch, ahamiyatsiz; shoshilinch emas, ahamiyatsiz.

Olingan tarmoqlar bilan nima qilish taklif qilinmoqda?

Muhim shoshilinch masalalar: bajarilmasligi maqsadga erishish uchun xavf tug'diradigan vazifalar; katta qiyin-chiliklarga duch kelmaslik uchun hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar; sog'liq muammolari.

Shoshilinch bo'lmagan muhim masalalar: joriy ish loyihalarini amalga oshirish; moddiy baza bilan bog'liq uy-ro'zg'or ishlari; muhim voqealarga tayyorgarlik; o'z-o'zini tarbiyalash; kasalliklarning oldini olish, sport, sog'lom tur-mush tarzi.

Eng muhim sektor. Bu yerda strategik maqsadlar va ke-lajakdagi muvaffaqiyatlar yashaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, ushbu sohaga e'tibor qaratganlar katta muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Ushbu sektordagi vazifalarni o'zingiz hal qilish va ularga maksimal vaqt ajratish tavsiya etiladi.

Shoshilinch ahamiyatsiz masalalar: chalg'itadigan narsalar; ba'zi qo'ng'iroqlar va uchrashuvlar; to'satdan paydo bo'ladigan kundalik muammolar; qarindoshlar va do'stlar doirasidan tashqaridagi odamlarga nisbatan xushmuomalalik imo-ishoralari (bayramlarda bo'lish, uzoq suhbatlar); do'stlarning o'zlari hal qilishlari mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish uchun so'rovlari.

Ushbu segmentdagi vazifalar asosiy maqsadlarga erishishga ta'sir qilmaydi. Ular sizni chalg'itadi va muhim narsaga e'tiboringizni qaratishingizga to'sqinlik qiladi.

Muhim bo'lmagan shoshilinch masalalar: teleseriallar va ijtimoiy tarmoqlar; kompyuter o'yinlari; telefonda suhbatlashish; hech qanday foyda keltirmaydigan sevimli mashg'ulotlar. Bu yerda vaqtni behuda o'tkazadigan va bizning sevimli, lekin foydasiz narsalarimiz yashaydi, hamma narsadan ajralish juda qiyin, chunki bu «dam olish» va «mening qulayligim».

To'rtinchi daraja muhimlik va samaradorlik nuqtayi nazaridan vaqtni yaratadigan xodimning ichki samaradorligi va muvaffaqiyati tamoyillariga asoslanadi.

Shunday qilib, vaqtni boshqarishning asosiy darajalariga quyidagilar kiradi:

1. Samaradorlik va muvaffaqiyatni oshirish texnologiyalari. So'zning odatiy ma'nosida vaqtni boshqarish quyidagi savollarga javob beradi: «Qanday qilib vaqt birligida ko'proq ishlash mumkin?», «Muddatlarda qanday bajarish kerak?» «Qanday qilib ishlar va vazifalarni unutmaslik va ularni o'z vaqtida bajarish kerak?» va boshqalar.

2. Vaqtni boshqarish tizimining ikkinchi darajasi – rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish. Birinchi va ikkinchi elementlar strategik qarorlar qabul qilish, maqsadlarni belgilash va ularning o'zaro bog'liqligi bilan uzviy

bog'liqdir. Aynan shu bosqich harakat yo'nalishini belgilaydi va vaqtni samarali boshqarishning muayyan vositalari va usullarini tanlash bilan bog'liq.

3. Falsafiy darajasi. Vaqtni boshqarish kontekstida quyidagi savolga javob beradi: «Nima uchun?». Tanlangan maqsadlarning qiymatini aniqlash. Ushbu bosqich, ayniqsa, vaqtni boshqarishning korporativ tamoyillarini ishlab chiqish bosqichida, vaqtning va har bir xodimning qiymati butun tashkilotda vaqtni boshqarish tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga hissa qo'shadigan hal qiluvchi omil bo'lganda muhimdir. Biz vaqtni boshqarish bo'yicha o'rganishni samaradorlik texnologiyalari darajasida boshlaymiz. Ushbu daraja vaqtni boshqarish sohasida samaradorlikni oshirish yo'lidan muvaffaqiyatli o'tish, chuqurroq o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va kelajakda foydali bo'lgan asosiy vaqtni boshqarish vositalarini ishlab chiqish uchun zarurdir. Va bu bosqichda birinchi qadam vaqt sarfini nazorat qilish uchun shaxsiy tizimni shakllantirishdir [7].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim muassasalarida pedagog-xodimlar tomonidan bajariladigan vazifalarning maqsadini belgilash, maqsadiga ko'ra bajariladigan vazifalarning muhimlik darajasini aniqlash hamda ulardan qaysilari muassasa faoliyatini takomillashtirishda o'ta muhim, qaysilarini bosqichma-bosqich bajarish mumkinligini belgilab olish zarur. Pedagog-xodimlar kunlik ishlarini tahlil qilishlarida, ma'lum bir vazifani bajarish uchun qancha vaqt sarfladim yoki shunga yaqin, turdosh bo'lgan vazifani bajarishga qancha vaqt sarfladim-u, qanday xatoliklarga yo'l qo'ydim va bu xatolarimni tuzatishga qancha vaqt ketdi, bu ortiqcha sarflangan vaqt davomida qancha muhim ishlarni amalga oshirishim mumkin edi kabi savollarga javob topishlari vaqtni to'g'ri taqsimlash va faoliyatni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Архангельский Г. Корпоративный тайм-менеджмент: Энциклопедия решений. -М.: «Альпина Паблишер», 2015. –С. 211.
2. Богославец Л.Г. Тайм-менеджмент в работе образовательных учреждений: методическое пособие. Л.Г.Богославец, О.И.Давыдова. - Москва: «Сфера», 2013. – С.125.
3. Зайверт Л. Если спешишь - не торопись: новый тайм-менеджмент в ускорившемся мире: семь шагов к эффективности и независимости в использовании времени /Л.Зайверт; пер. с нем. Н.С.Сироткина. -Москва: «Интерэксперт», 2011. –С. 255.
4. Юсупова Н. Тайм менеджмент вақтни бошқариш. -Т.: «Янги авлод» 2009. 88-б.
5. Богославец Л.Г. Тайм-менеджмент в работе образовательных учреждений: методическое пособие / Л.Г.Богославец, О.И.Давыдова. – Москва: «Сфера», 2013. –С. 125.
6. Кови С. Первое прежде всего. -Москва: «Колибри», 2003. –С. 284.

REZYUME. Ushbu maqolada umumta'lim maktab rahbarlari faoliyatida vaqtni boshqarish vositalari, vaqtni boshqarish texnologiyalari va ta'lim jarayonini boshqarish sohasida ushbu texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье освещены инструменты и технологии тайм-менеджмента и особенности использования этих технологий в сфере управления образовательным процессом в деятельности руководителей общеобразовательной школы.

SUMMARY. This article describes time management tools, time management technologies and the specific features of using these technologies in the field of educational process management in the activities of general education school leaders.

AJDODLAR MEROSI – BUYUK QADRIYAT

G.M.Ergasheva – dotsent

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: ma'rifatparvar ajdodlar, buyuk ajdodlar merosi, milliy qadriyatlarni ulug'lash, ta'lim-tarbiya jarayonida qadriyatlar.

Ключевые слова: просвещенные предки, наследие великих предков, прославление национальных ценностей, ценности в процессе воспитания.

Key words: enlightened ancestors, heritage of great ancestors, glorification of national values, values in the process of education.

Kirish. Respublikamizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-sentabrdan kuchga kirgan «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv bilim yurti nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi. Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, birinchidan, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'alarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz

oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish; ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfkrlikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya — milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash; uchinchidan, yoshlarni baynalmilal jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat tug'dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash; to'rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash; beshinchidan, yosh avlodni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash

ruhida tarbiyalash O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir [1:488].

Adabiyotlar tahlili. Sharq mutafakkirlari va allomalarining ijodiy meroslarida o'qituvchi tarbiyachi mahorati, ustozlik-shogirdlik shartlariga ham alohida o'rin berilgan. Quyida shularga misollar keltiramiz: Masalan, mashhur faylasuf va mutafakkir, qomusiy ilmlar bilimdoni Abu Nasr Farobiydir. Abu Nasr Farobiyning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Farobiy ta'lim tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. "Fozil odamlar shahri", "Baxt saodatga erishuv to'g'risida", "Ixxo - al - ulum", "Ilmlarning kelib chiqishi", "Aql ma'nolari to'g'risida" kabi asrlarida ijtimoiy - tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Farobiy o'z ishlarida ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o'z o'rnini va xususiyati bor ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Farobiy "Baxt - saodatga erishuv to'g'risida" asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu - olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi.

Farobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvchi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi. Uning fikricha tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhimdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni o'zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim.

Bunga Farobiy ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim - tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib qoidalariga rioya etadi [3:55-56].

Farobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir. Ta'lim - so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya - esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilhomlantiruvchi so'zlar va majbur etish. Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin. Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ularidan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'rgan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.

Qaraqalpaq muzıkasında atqarıwshılardı baqsı, jıraw, sazende, qıssaxan, qosıqshı dep bólgan. Solarǵa qaray olardıń atqaratuǵın qosıqların janrlardı ayırıp, soǵan qaray xalıq qosıqları hám qaraqalpaq xalıq kompozitorların shıǵarmaları dep eki iri toparǵa bólgan. Qaraqalpaq folklorındaǵı miyraslarımızda qaraqalpaq xalıq qosıqları úlken, ayırıqsha orındı iyeleydi. Olar kóp tarmaqlı bolıp: miynetli jırlawshı, tariyxıy waqıyalardı baylanıslı, Watan, tábiyat gózallıqların táriyplewshi mazmun-maǵanaǵa iye. Solardıń qatarında dástúr-salt qosıqları bolıp, olarǵa besik jırı, hawjır, yaramazan, joqlaw, sınsıw hám qaraqalpaq xalıq dóretiwshiliginde keń taralǵan túrleriniń biri aytıslar, adamnıń kewil sezimlerin obrazlı súwretlep beretuǵın muhabbat qosıqları, qızlar qosıqları sonıń menen birge dinge baylanıslı aytımlar bádik, gúlapsan túrleri sózimizdiń ayqın dáliyli bola aladı. Xalıq qosıqları adamlardıń jasaw turmısınan, islegen isinen hámde sol eldiń tariyxına múrajat etip alıńǵan sóz qatarlarınan bolǵanlıǵı ushin bul qosıqlardı hár bir qosıq shaydası atqarıwına haqlı. Sebebi, olardan professionallıqtı talap etpeydi, olardıń basım kópshiligi massalıq atqarıwına da ılayıq bolıp, dóretiwshi de hám atqarıwshı da xalıq [7:83].

Solay etip, qaraqalpaq xalıq muzıkası atqarıwshılardıń bóliniwine hám shıǵarmanıń specifikalıq ózgesheligine qaray anıqlanadı. Qaraqalpaq xalıq qosıqlarınıń túrleri oǵada kóp. Olar keń kólemde bolıp namanıń ápiwayılıǵı, quramalıǵı, onıń forması, jáne de atqarıwshılıq usılı jaǵınan eki iri toparǵa: tar diapozonlı qosıqlar hám keń diapozonlı qosıqlar bolıp bólinedi. Qaraqalpaq xalıq qosıqlarınıń ishinde ayırım qosıqlar teksti jaǵınan júdá ápiwayı bolıp hám olardıń qosıq qatarları úsh sezuradan qurılǵan. Olardıń nama dúzilisi júdá ápiwayı, qısqa túrde kvarta, kvinta hám siyregirek seksta intervallardan ibarat bolıp, tar diapozonlı qosıq toparına kiredi.

Sóz qatarları qısqa bolǵanlıǵı sebepli naması da kishirek kólemdegi frazalar menen bir-eki qatarǵa jazılıp bir kupletti quraydı, keyingi kupletlerge sol nama tákiratlanadı. Bul kishi frazalardan qurılǵan nama óziniń jeńil ırǵaqları menen qaytalanıwı qıssaxannıń namasına uqsap ketedi. Qıssaxan jolında aytılauǵın qosıqlardıy bolıp hár bir buwıǵa bir ses tuwra keledi, lekin teksttiń anıq mazmunın nama arqalı bayanlap onı bayıtıp baradı. Poetikalıq tekst qatarları qosıqtıń melodiyalıq qatarlarına teń bóleklerge bólinip, xalıq qosıqlarında bir neshe qatardıń belgili uyqasıyqta tákiratlanauǵın qosıq túrleri kóp ushırasadı.

Адебиетатлар

1. Айымбетов К. Халық даналығы. – Нөкіс: «Билим», 1968.
2. Айтмуратов Ж. Культура Каракалпакстана в 70-90 годы: Общее состояние и тенденции развития. Автореферат дис. кандидата исторических наук: 07.00.02. – Нукус: 1997.
3. Nadirova A. Qaraqalpaq muzika tariyxı. –Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2019.

4. Максетов Қ. Қарақалпақ жыраў баксылары. –Нөкис: «Қарақалпақстан», 1983.

5. Палуаниязов П. История музыкальной культуры Каракалпакстана (1925-1950 гг.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата. Исторических наук специальность 07.00.02. – Нукус: 2003.

6. Назайкинский Е. Логика музыкальной композиции. -М.: « » 1982

7. Халимов А. Қарақалпақ халық намалары («Узбекская народная музыка» сериясы). Т.VIII. – Т.: 1959.

REZYUME. Ushbu maqolada bastakor G'.Amaniyozovning qoraqalpoq xalq qo'shiqlari rivojidadagi o'imi va xalq hayoti bilan chambarchas bog'liqligi ko'rib chiqiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматривается роль композитора Г.Аманиёзова в развитии каракалпакской народной песни и его тесная связь с жизнью народа.

SUMMARY. This article examines the role of the composer G.Amaniyozov in the development of Karakalpak folk songs and his close connection with the life of the people.

TA'LIM SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH – IJTIMOIIY PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA

X.X.Xamzayev – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: oliy ta'lim, klassik ta'lim, ta'limni raqamlashtirish, elektron ta'lim, masofaviy ta'lim, platforma, sun'iy intellekt, qonunchilik.

Ключевые слова: высшее образование, классическое образование, цифровизация образования, электронное образование, законодательство.

Key words: higher education, classical education, digitization of education, electronic education, legislation.

Bugungi globallashuv jarayonida zamonaviy oliy ta'limning maqsadi kelajakda mutaxassislarni kasbiy faoliyat sohasi bilan bog'liq muayyan bilim va ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishdir. Raqamli iqtisodiyotning ta'siri ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi.

Klassik an'anaviy ta'lim usullarining ilg'or raqamli usullar bilan uyg'unligi ta'lim samaradorligini maksimal darajada oshirishga imkon beradi, chunki ushbu usul yordamida ta'lim olayotgan bo'lajak mutaxassislar rivojlanayotgan raqamli muhitda talabgor va raqobatbardoshdir. COVID-19 tarqalishining oldini olish maqsadida respublikamiz ta'lim muassasalari, jumladan oliy ta'lim muassasalari ham to'liq onlayn shaklga o'tkazildi. Aytish mumkinki, pandemiya universitetlarda onlayn xizmatlar ulushini ko'paytirdi va o'qituvchilarga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirdi.

Ta'limni raqamlashtirish jarayoni masofaviy o'qitish texnologiyalari va elektron ta'limning boshqa elementlarini o'quv jarayonlariga tatbiq etishni anglatadi. Ya'ni, ta'limni raqamlashtirish – bu o'quv jarayonini to'liq qayta ko'rib chiqish, eng ilg'or raqamli texnologiyalarni birlashtirgan jarayondir, xususan, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida asosan internet orqali va turli xil raqamli manbalar va boshqa aloqa kanallaridan foydalangan holda o'zaro aloqalarni o'rnatishga imkon beradi.

Bu sohada respublikamizda bir qancha olimlar o'z tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish, ularni raqamlashtirilgan ta'lim muhitida rivojlantirish, raqamli texnologiyalarning ta'lim sifatini oshirishdagi roli kabi muammolar bo'yicha U.N.Nishonaliyev, A.R.Xodjabayev, N.SH.Shodiyev, N.A.Muslimov, X.I.Ibragimov, E.I.Ro'ziyev, O'.Q.Tolipov, N. Sayidahmedov, D.Ergashev, O.Abduquddusov, E.T.Choriyev, O.To'raqulov, J.Hamidov, A. Jo'rayev, U.Jumanazarov, O.Qo'ysinovlar va boshqa ko'plab respublikamiz olimlari tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bugungi kunda ta'limni raqamlashtirish elementlari “elektron ta'lim” va “masofaviy ta'lim texnologiyalari” tushunchalari orqali ochib beriladi. Ushbu tushunchalar raqamlashtirishning ajralmas qismi bo'lib, ta'lim faoliyatini raqamlashtirish ruhida tashkil etishni tavsiflaydi, ta'lim jarayonlarida raqamli muhit elementlaridan foydalanishni qonuniylashtiradi.

Ta'limni raqamlashtirish bir vaqtning o'zida sodir bo'lishi mumkin emas, bu raqamli texnologiyalarni ta'lim sohasiga bosqichma-bosqich joriy etishdan iborat uzoq jarayon. Global miqyosda ta'limni raqamlashtirishga

asoslangan uchta jarayon mavjud:

- 1) mehnatni kapital bilan almashtirish;
- 2) mehnatni mehnat bilan almashtirish;
- 3) kapitalni kapital bilan almashtirish.

Birinchi jarayon video ma'ruzalar va turli xil elektron materiallar va qo'llanmalar yaratish orqali o'quv materiallarini raqamlashtirish tendensiyasi bilan bog'liq bo'lib, ular nazariy jihatdan an'anaviy ma'ruzachi “ma'ruzachi” figurasini ikkinchi o'ringa qo'yadi. Inson resursi qisman raqamli material-kapital bilan almashtiriladi va masofaviy o'qitish tizimlari yaratiladi.

Ta'limni raqamlashtirishning ikkinchi jarayoni professor-o'qituvchilar o'rtasida ish yukini qayta taqsimlash bilan bog'liq, chunki ba'zi fanlar onlayn shaklga o'tmoqda va bir vaqtning o'zida ularga kengroq auditoriyani jalb qilish imkonini beradi. Misol uchun, agar universitetda kampuslar bo'lsa, kampuslararo fanlarni onlayn shaklda yaratish mumkin.

Uchinchi jarayon masofaviy o'qitish texnologiyalari elementlarini oliy ta'limning klassik shakllariga: kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shakllariga kiritish bilan bog'liq. Biz ta'lim tashkilotlarining klassik moddiy-texnik imkoniyatlarini masofaviy ta'lim modeli elementlari bilan bo'lishish imkoniyati haqida gapiramiz, bunda dunyoning istalgan nuqtasidan o'rganish minimal maxsus texnik vositalar (noutbuk, smartfon va boshqalar) va internet tarmog'iga ulanish tufayli mumkin bo'ladi.

Shu bilan birga, ta'limni raqamlashtirishni murakkab jarayon sifatida ko'rib chiqish eng oqilona yo'l bo'lib, unga normativ-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, texnik baza va dasturiy ta'minotni yaratish, natijalarni baholashning samarali tizimini ishlab chiqish, shuningdek, o'qituvchilarning o'zlarini qayta tayyorlash mexanizmlari kiradi. Ta'limni raqamlashtirish ikkita ajralmas komponentni o'z ichiga olishini tushunish muhimdir: o'quv jarayonining o'zini raqamlashtirish, shuningdek, uni boshqarish.

Pandemiya sharoitida ta'lim tashkilotlari onlayn ta'limni boshqarish tizimining yo'qligi muammasiga duch kelishdi. Dastlab, onlayn shaklda darslarni o'tkazish, oraliq va davlat yakuniy attestatsiyasini tartibga soluvchi mahalliy hujjatlarni ishlab chiqishda qiyinchiliklar yuzaga keldi. Shuningdek, test va imtihonlarni birinchi va ikkinchi marta qayta topshirishni tashkil etish, apellyatsiya shikoyati berish tartibi bilan bog'liq savollar tug'ildi va bir qator ta'lim tashkilotlari davlat va boshqa qonun bilan muhofaza qilinadigan sirlardan iborat fanlarni, shuningdek, majburiy yuzma-yuz o'qitishni talab qiladigan fanlarni amalga oshirish masalalarini zudlik bilan hal qilishlari kerak edi (masalan, davlatni himoya qilish, qonun va tartibni ta'minlash manfaatlarini uchun kadrlar tayyorlash bilan

shug'ullanadigan tashkilotlarda jismoniy tarbiya modullari).

Mamlakatimizda ta'lim faoliyatini raqamlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bir qator davlat tashabbuslari amalga oshirilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida raqamli texnologiyalari sanoatini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish doirasida o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish belgilangan. Xususan, ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish;

- yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish;

- o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritish;

- texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o'qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta'lim tizimiga joriy etish;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq yo'nalishda kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari sonini, axborot texnologiyalar sohasida o'rtacha darajada kompetensiyaga ega bo'lgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini oshirish;

- axborot texnologiyalar sohasidagi tashkilotlarining o'quv jarayonlarga qatnashishini rag'batlantirish orqali umumta'lim maktablarda fanlarni o'qitish metodlarini takomillashtirish;

- oliy ta'lim muassasalarida tegishli sohalarida "Buyumlar interneti", robototexnika, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va o'rganish bo'yicha laboratoriyalar, shuningdek, xorijiy korxonalarni ushbu sohaga jalb qilishni tashkil qilish;

- qog'oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish shakllaridan foydalanish bo'yicha davlat yagona talabini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash orqali ta'limda o'quv materiallarini raqamlashtirish;

- raqamli texnologiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va rag'batlantirish, ularning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish;

- maktabgacha, o'rta, professional va oliy ta'lim tizimi uchun elektron ta'lim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki va jahon ta'lim resurslaridan foydalanishni ta'minlash;

- inson kapitalini rivojlantirish, shu jumladan, ixtisoslashgan ta'limni rivojlantirish hamda IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish, IT-korxonalar uchun institutsional sharoitlarni yaxshilash va ma'muriy to'siqlarni kamaytirish;

- elektron xizmatlarga aholi ishonchini shakllantirish va aholining tez rivojlanayotgan raqamli imkoniyatlaridan foydalanish yuzasidan zarur ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha samarali choralarni ko'rish;

- ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda, texnologiya hayotiy muhim masalalarni hal qilish, o'qitish, ish qidirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan mavzularda muntazam ravishda ta'lim kampuslarini o'tkazish [2].

Zamonaviy raqamli ta'lim muhitini yaratish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'limni o'zgartirish mamlakatimiz uchun ustuvor ahamiyatga ega. Oliy ta'limni raqamlashtirish tegishli meyoriy-huquqiy bazasiz mumkin emas. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim dasturlarini amalga oshirishda elektron ta'lim va masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanishni qonuniylashtirdi [1].

Elektron ta'lim jarayoni ta'lim dasturlarining barcha elementlari uchun elektron ta'limni joriy etishga imkon beradi. Gap shundaki, ta'lim dasturi to'liq onlayn muhitda amalga oshirilishi mumkin: o'quv ma'ruzalari va amaliy mashg'ulotlardan davlat yakuniy nazoratlariga qadar.

Shu bilan birga, elektron ta'limdan faqat ma'lum bir ta'lim dasturlarida foydalanadigan ta'lim tashkilotlari uchun maxsus talablar qo'yiladi, xususan: onlayn muhitning ishlashi uchun sharoit yaratish, shuningdek, uning xizmatga yaroqliligini ta'minlash, talabning shaxsini majburiy identifikatsiyalashni ta'minlash, bilimlarni nazorat qilish va tegishli baholash. Ushbu talablar juda mantiqiy va birinchi navbatda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim dasturlarida o'qish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan.

Bundan tashqari, Davlat ta'lim standartlari ta'lim tashkilotlarini talabalarga o'quv dasturlariga kirishni ta'minlaydigan elektron axborot va ta'lim muhitini, fanlarning ish dasturlari (modullar), amaliyot, elektron kutubxona tizimlari va elektron ta'lim resurslari nashrlari, ish dasturlarida ko'rsatilganidek, o'quv jarayonining borishini qayd etish, oraliq sertifikatlash natijalari va asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirish natijalari, barcha turdagi darslarni o'tkazish, o'quv natijalarini baholash tartibini yaratishga majbur qiladi va bu masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalangan holda ta'minlanadi.

Zamonaviy qonunchilik bazasi ta'lim tashkilotiga ta'lim dasturlarini amalga oshirish yo'llarini tanlash imkoniyatini beradi, klassik va elektron usullarning kombinatsiyasiga ruxsat beriladi, shuningdek, ikkala usuldan ham sof shaklda foydalanish mumkin, ammo elektron ta'limga nisbatan ma'lum cheklavlar bor, chunki faqat masofaviy o'qitish usulidan foydalanish mumkin bo'lmagan mutaxassisliklar ro'yxati mavjud. Bu yerda biz professional ta'lim bilan taqqoslashimiz mumkin, chunki ushbu ta'lim darajasi uchun elektron ta'limni sof shaklda ishlatishda ham ma'lum cheklavlar mavjud.

Ta'limni raqamlashtirish kontekstida onlayn kurslarning huquqiy maqomi va huquqiy tartibga solish asoslarini aniqlash alohida qiziqish uyg'otadi, chunki ular hozirda ko'plab universitetlarning ta'lim dasturlariga faol kiritilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, onlayn kurslardan foydalanishga jalb qilingan talabalar soni 7 yilda 2016 million kishini tashkil etdi [3]. 2019-yilda faqat Coursera raqamli platformasidan foydalanuvchilar soni 40 million kishini tashkil etdi, bu onlayn kurslar auditoriyasining 5 barobardan ko'proq o'sishini ko'rsatadi.

Shunga ko'ra, onlayn kurslarni huquqiy tartibga solishni aniqlashtirish kerak. Qonunchilik darajasida birinchi marta "onlayn kurs" atamasi elektron ta'lim tartibida qayd etildi va ushbu qonunga binoan onlayn kurslar, birinchi navbatda, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish usuli hisoblandi. Ikkinchidan, bu aslida elektron kurs mustaqil ta'lim dasturi, chunki onlayn kurslarga kirish u cheksiz ko'p foydalanuvchilar tomonidan internet orqali amalga oshiriladi. Ya'ni onlayn kurs – bu zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan va tizimlashtirilgan elektron ta'lim va boshqarish vositalari asosida uslubiy va tizimli ravishda qurilgan mustaqil va avtonom o'quv bo'linmasini ifodalovchi o'quv kursi.

Onlayn kurslarni aniqlashga ikkinchi yondashuv nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham keng tarqalgan, aynan shu ta'rif oliy ta'lim sharoitida onlayn kurslarni zamonaviy qo'llashning mohiyatini aniq ochib beradi. Ya'ni onlayn kurs – bu oliy yoki professional ta'lim o'quv dasturiga kirmaydigan, talabalar tashabbusi bilan, shu jumladan, ta'lim tashkilotidan tashqarida o'zlashtirilgan mustaqil bilimdir.

Onlayn kurslar natijalariga ko'ra, ta'lim dasturini tugatganligini tasdiqlovchi sertifikat olish mumkin. Shu munosabat bilan, talabalar tomonidan onlayn kurslarni o'tkazish amaliyoti deyarli o'z universitetlari hududlaridan

tashqarida tarqalmoqda, bu esa keyinchalik o'zlashtirilayotgan ta'lim dasturiga ma'lum fanlar bo'yicha onlayn kursni kreditlash masalasini hal qilish zarurligiga olib keladi.

Raqamlashtirishning yana bir qiziqarli jihati – ta'limda xorijiy onlayn kurslardan foydalanishning qonuniyligini ta'minlash. Bugungi kunda O'zbekiston va xorijiy universitetlar ta'lim sohasida hamkorlik qilishlari uchun harakatlar boshlangan. Talabalarga ta'lim faoliyati bilan shug'ullanadigan bir nechta tashkilotlarning, shu jumladan, xorijiy tashkilotlarning resurslaridan foydalangan holda ta'lim dasturini o'zlashtirishga ruxsat beriladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // "(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" [strategiyasini](#) tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2020 yil 12 oktabr, 40-son, 443-modd).

3. www.openbusiness.ru.

REZYUME. Maqolada oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishning huquqiy-meyoriy asoslari, bu jarayonda onlayn kurslardan, ta'limni raqamlashtirish elementlaridan, raqamli texnologiyalardan foydalanish roli tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируется важность и роль использования онлайн-курсов, элементов цифровизации образования и цифровых технологий в системе высшего образования.

SUMMARY. The article analyzes the importance and role of using online courses, elements of digitization of education, and digital technologies in the higher education system.

“TAORIFI MUSLIMIN” JURNALIDA TURKISTONDAGI ISLOHOTCHILIK JARAYONLARINING YORITILISHI

A.O.Xasanov – *tayanch doktorant*

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti

Tayanch so'zlar: “Taorifi muslimin” jurnali, milliy matbuot, Istanbul, Turkiston tarixi, Asfandiyorxon, Buxoro

Ключевые слова: журнал «Таорифи муслимин», национальный пресса, Стамбул, история Туркестана, Исфандиярхан, Бухара.

Key words: “taorifi muslimin” journal, national press, Istanbul, History of Turkistan, Isfandiarkhan, Bukhara.

XX asr boshlari butun Sharq olamida ozodlik g'oyalari keng yoyilgan, yangi uyg'onish pallasi boshlangan davrlardan biri sifatida tarixga kirdi. Xuddi shu davrda Rossiya imperiyasi tarkibidagi musulmon xalqlari hayotida ham mustamlakachilikka qarshi kurash yo'nalishida fikriy o'zgarishlar jarayoni yanada rivojlanib bordi. 1905-1911-yillar orasida Rossiya, Turkiya, Eron kabi davlatlarda yuz bergan inqiloblar ta'sirida qaram xalqlarning ozodlik sari intilishlari kuchaydi. Xususan, Turkiston o'lkasida ham xalqni yagona maqsad ostida birlashtirib, o'z haq-huquqlari uchun ongli siyosiy kurash orqali ozodlikka chiqarish harakati shakllandi. Yangi g'oyalar va islohotchilikka da'vat ichki va tashqi davriy nashrlar orqali keng yoyilib turdi.

Rossianing mustamlakachilik siyosatini fosh qilishda 1905-yildan so'ng faoliyatini yo'lga qo'ygan milliy matbuotning hissasi beqiyos bo'ldi. Butun imperiya tarkibidagi musulmon o'lkalari qatori Turkistonda ham yangi milliy nashrlar dunyo yuzini ko'rdi. Ammo imperiya hukmron doiralari bu holdan unchalik xushlanmadi. Turkistondagi ilk milliy matbuot namunalari bo'lgan “Taraqqiy” (1906) va uning davomchisi “Xurshid” (1906) gazetalari hukmron sinf siyosatiga muxolif fikrlari uchun mustamlakachilar tomonidan yopildi. “Tujjor” (1907) gazetasida bu haqida quyidagicha yoziladi: “... o'tgan yil Ismoil Abidov, Munavvarxon Abdilrashidxonovlar “Taraqqiy” va “Xurshid” gazetalarini nashr etsalar ham hukumat hozirag'a muxolif o'lg'anlari sababli gazetalari to'xtatildi” [1]. Undan so'ng chop qilingan “Shuhrat” (1907) va “Osiyo” (1908) gazetalarini boshiga ham yuqoridagi gazetalarining kuni tushdi. Va Turkiston milliy matbuoti 1913-yilga qadar biroz muddat sukutda qoldirildi.

Rossiya mustamlakachilarning har qanday taqiqlariga qaramay turkistonli millat oydinlari uning mustamlakachilikka asoslangan siyosatini fosh qilishdan bir zum ham to'xtab turishmadi. O'z fikrlarini nafaqat o'lkadagi milliy matbuot orqali, balki Qozon, Orenburg, Ufa, Boku, Istanbul va Qobul kabi shaharlarda maslakdosh taraqqiy-

Shu munosabat bilan ta'lim sohasidagi qonunchilik bazasini sifatli isloh qilish va “Ta'lim to'g'risida”gi qonunga o'zgartirish kiritish taklif etiladi. Biz ta'lim tashkilotlarining o'zlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish tamoyillari to'g'risidagi qonunning alohida moddasini joriy etish, ta'lim tashkilotlarini o'quv jarayonlarida ilg'or texnologiyalarni qo'llashga majbur qilish zarurligini ta'kidlaymiz. Bu O'zbekistonning barcha oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish jarayonlarini boshlashga imkon beradi, bu esa mahalliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

parvarlari tomonidan chiqariladigan turli gazeta va jurnallar orqali ham muntazam yoyib bordilar. Butun musulmon dunyosini rus mustamlaka changalida qolgan Turkiston ahvoli bilan tanishtirishga intildilar. Usmonli imperiyasida nashr qilingan “Taorifi muslimin” jurnali bu borada alohida minbar vazifasini bajardi. Jurnal bir tomondan Turkistondagi muxbirlari orqali u yerdagi voqea-hodisalar bilan Usmonli xalqini tanishtirishga intilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Buxoro, Samarqand, Xivadagi oz sonli taraqqiy-parvarlarning ovozig'a aylandi [10:340]. Shu sababli undagi islohotchilik va ozodlik g'oyalaridan qo'rquvga tushgan rus mustamlakachilar jurnal sahifalarini sinchiklab tekshirib bordilar [2].

Diniy, siyosiy, tarixiy, falsafiy va islom olamidan bahs etgan “Taorifi muslimin” haftalik jurnaliga 1910-yili Istanbulga ko'chib borgan tatar taraqqiyparvarlari Ahmad Tojiddin va Yoqub Kamol tomonidan asos solingan [11:394]. Abdurashid Ibrohimov uning bosh muharriri bo'lgan [3:1]. Nashriyot matbaa idorasi dastlab Istanbuldagi Marjon Ali Posho hovlisida, keyinchalik Boyazid chodirchilar ko'chasidagi idorada joylashgan. Jurnal 1910-yil 16-apreldan 1911-yil 2-fevralga qadar ikki haftada bir marta usmonli turkchasida chiqib turgan. Bir yilga yaqin muddat oralig'ida jami 32 son nashr etilib, maqolalarning asosiy yo'nalishi diniy, siyosiy, tarixiy, falsafiy va islom olami mavzularidan tarkib topgan. Qur'oni Karimning Oli Imron surasining 103-oyati “Allohning arkonini mahkam tut-sangiz, halokatdan saalanib aolasiz” hamda Huiorot surasining 13-oyati “Ey insonlar! Sizlarni bir erkak va bir ayoldan yaratdik. Bir-biringiz bilan tanishishingiz uchun, sizlarni turli xalalar va qabilalarga avirdik. Albatta, Allohga ko'ra eng hurmatligingiz gunohlardan saqlanuvchi — taqvodoringizdir...”¹ oyatlari jurnalga shior qilib olingan.

¹ Hozirda IRCICA nomi ostida faoliyat yuritayotgan Islom xalqaro madaniyat tashkiloti ham shu shior ostida ish olib boradi.

Jurnalning bosh maqsadi 1-sondagi ilk maqolada batafsil tushuntirib o'tiladi. Unda Sharqdagi butun musulmon olami yot ellar qo'ldi ezilayotgani, zulm ko'rayotgani, o'zligini yo'qatayotgani, islom olami zaif holatda ekanligi va shu sababli ularga yordam qo'lini cho'zadigan, taraqqiyot va ozodlik sari yo'l ko'rsatadigan bir vosita o'laroq ushbu jurnal nashr qilinishga ahd qilinganligi bildiriladi. Garchi jurnal islom dini g'oyalari asosida musulmonlar hayotini isloh qilishni o'zining asosiy vazifasi deb bilsa-da, muharrirlar jamoasining kelib chiqishi va Istanbul-Qozon o'rtasidagi mustahkam aloqalar sababli uning sahifalarida Rossiya musulmonlarini ozodlikka chiqarish masalasi doim ustuvorlik qilgan [13]. Uning asl faoliyat markazida Rossiya musulmonlari ozodlik harakati turgan [12:14]. Xususan, Turkistonning qaram ahvoriga achingan muallif bosh maqolasida shunday fikrlar yoziladi: *"Vaqtla nur madaniyat islomiya ufqini tutgan Movaroun-nahr bugun zulmat ichkarisindadir. Musulmonlari esa zulm haqorat ostida ingraydir. Ustlaridan odob islomiya sekin-sekin yo'qolib o'rniga Hindiston usulidagi odat majusiya, Ovro'padan kelgan madaniyat deya bilingan bir taqim gus-tohliq, safohat joy olmish. Faqat ajabo! Qaysimizning quloqlarimiz bu ahvolni eshitmoqda, ko'zlarimiz guvoh bo'lmoqda, qalblarimiz esa qonamoqda. ...Faqat maaltaas-suf bu hola osif ishtihola boqubda lison hollarina tarjimon bo'lajak, dardlarina darmon bo'lajak matbuot yo'q huk-mindadir"* [4:2]. Umuman, jurnal o'sha davrda mustamlaka zulmi ostida ezilayotgan va huquqlari poymol bo'layotgan barcha musulmon xalqlari hayotidan so'zlovchi, o'z erki, huquqi, madaniyati uchun kurashishga chorlovchi, mustam-lakachilik siyosatini fosh qiluvchi vosita sifatida yuzaga kelgan edi.

"Taorifi muslimin" jurnalining maqsadlaridan yana biri Rossiyadagi musulmon turklar bilan Usmonli turklar yagona ittifoqqa birlashtirish maqsadini ham ko'zlagan [10:28].

Tadqiqot jarayonida jurnalda e'lon qilingan Turkiston tarixiga oid jami 20 ta maqola aniqlandi. Ushbu maqolalarning 3 tasi Turkiston general-gubernatorligi, 4 tasi Xiva xonligi va 13 tasi Buxoro amirligi tarixiga oid bo'lib, aksariyat maqolalarning muallifi ko'rsatilmagan.

Turkiston tarixi bilan bog'liq ilk maqola jurnalning 1910-yil 2-sonida "Buxoro tahlikada..." nomi bilan chop qilinadi. Unda 1910-yili Buxoroga Rossiya imperiyasidan 2 marta tekshiruv komissiyasi kelib, Buxoro hududidagi yer-larni hisoblab chiqqani, aholi soni va xazinaga tushadigan daromadlar haqida mahalliy ma'murlardan ma'lumotlar olganligi, ammo bu 1873-yili Rossiya bilan imzolangan shartnomaga zid ekanligi haqida so'z boradi. Maqolaning bosh g'oyasi rus komissiyasining faoliyati mazmun-mohiyatiga qaratilib, bu holat Buxoro davlatining ichki mustaqilligiga barham berish yo'lidagi hatti-harakat sifatida baholanadi. Shuningdek, Rossiyadan kelgan tekshiruv komissiyasi raisi (*senator Palen nazarda tutilgan – A. X.*) Buxoro qushbegisi orqali Buxoro mufitylaridan domla Ikrom bilan suhbat o'tkazish uchun uni o'z huzuriga chorlaganligi ham yozilgan. Lekin, domla Ikrom bu holat mutaassiblar tomonidan noto'g'ri talqin qilinishi mum-kinligini nazarda tutib unga rozi bo'lmagan [5:29-30]. Shunda rus ma'murini o'zi domla Ikrom uyiga tashrif buyurib, u bilan suhbat qurgan va undan mamnun ekanligini izhor qilgan. Bundan ko'rinadiki, domla Ikrom o'z nufuzi, aqli va ochiq fikrga egaligi bilan nafaqat Buxoro, balki butun Turkiston mintaqasida tanilgan shaxslardan biri bo'lgan. Rus mustamlakachilari domla Ikromni milliy islohotchilik harakatining yetakchisi deb bilgan. Shuning uchun Buxoroga yuborilgan rus komissiyasi zimmasiga u bilan suhbat o'tkazib, uning yaxshilab "tekshirish" vazifasi yuklatilgan.

Jurnalning 25-sonida esa "Buxoroli Abdurauf" taxallusi ostida Fitratning fors tilidagi *"Buxoro vaziri Nasrullo biy parvonachi afandi hazratlariga ochiq maktub"* [6:10]

nomli maqolasi nashr qilingan. Unda o'zi kabi islohot tarafdorlari nomidan "yangi tartiblarga ehtiyojlari borligi", "mamlakat idorasidagi xatolar tufayli o'lka taraqqiyotdan orqada qolib, xarob bo'layotgani", "qo'shbegini islohot tarafdori bo'lgan kishi sifatida ko'rishlarini va undan bu yo'lda xizmat qilishini umid qilayotganlari" ochiq maktub orqali bildirilgan. Umuman olganda, maqolada mavjud davlat tuzumini isloh qilishga qaratilgan chaqiriqlar asosiy o'rinni egallagan.

Xiva xonligi tarixiga oid maqolalarning dastlabkisi jurnalning 1910-yilgi 22-sonida mavjud. *"Xiva va islohot"* nomli ilk maqolada Muhammad Rahimxon II vafotidan keyin Xivada amalga oshirilgan islohotlar haqida hikoya qilinadi [7:359-360]. Isfandiyorxonning taxtga chiqishi davlat boshqaruv hayotida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgani alohida ta'kidlanadi. Xonning maorif, soliq, davlat boshqaruvi va ijtimoiy islohotlarga kirishgani haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ayni paytda, bu islohotlar davomli bo'lsa, *"Xivaning Movarounnahrda mumtoz bir mamlakatga aylanishi"* ta'kidlanadi. Lekin, islohotlar davomiga ruslar yo'l bermasligi masalasiga to'xtalgan muallif o'z so'zlarini quyidagi jumlar bilan tugatadi: *"Faqat ajabo! u manhus murdor siyosat bunga yo'l berajakmi? Ishta bizlari eng ziyoda dushindiran nuqta burasidir. Qo'rqiyrizki, go'stardiklari shu asir hayot insoniyat va madaniyata xidmat edan ruslar tarafidan istiqloklarina yapilajaq bir suiqasdila natijalanmasun..."*.

Jurnalning yana bir sonida esa Isfandiyorxonning 1910-yilgi Islohot farmoni so'zma-so'z ko'chirib nashr qilinadi [8:375]. Yangi islohotlar o'tkazayotgani uchun Isfandiyorxonga *"...xon hazratlari g'oyat sof va buyuk yurakli, qalbinda millatning rafoh va saodatina chalishmoqdan boshqa bir amal dashimayan oliyanob vatanparvar bir hukmdor muhtaramdir"*, deb ta'rif beriladi [9:26].

Shuningdek, o'rganishlar natijasida jurnalning jami 32 sonida Turkiston mintaqasi tarixiga oid quyidagi maqolalar aniqlandi:

T/r	Maqola nomi	Muallifi	Chiqqan sana, soni va beti
1	Buxoro holi tahlikada...	Muallifi noma'lum	1910-yil 29-aprel, 2-son, 29-bet.
2	Buxoro holi tahlikada...	Muallifi noma'lum	1910-yil 13-may, 3-son, 47-bet.
3	Buxoroda xafiya usuli	Muallifi noma'lum	1910-yil 27-may, 4-son, 69-bet.
4	Buxorodan mak-tub	Abdulloh	1910-yil 8-iyul, 7-son, 119-bet.
5	Buxoro maktubi	Muallifi noma'lum	1910-yil 5-avgust, 9-son, 151-bet.
6	Buxorodan olgan bir varaqamiz	Muallifi noma'lum	1910-yil 27-avgust, 11-son, 183-bet.
7	Xivadan maktub (Hoja Xorazmning holati hozirasi)	Mulla Berdiquq Qori Mahmud	1910-yil 30-sentabr, 16-son, 260-bet.
8	Xiva va islohot	Shoh Ahmad	1910-yil 18-noyabr, 22-son, 359-bet.
9	Xiva xoni Isfandiyorxon tarafidan chiqaril-gan Farmoni oliy		1910-yil 25-noyabr, 23-son, 375-bet.
10	Buxoro vaziri Nasrullobiy par-vonachi afandi hazratlariga ochiq maktub	Buxoroli Abdurauf	1910-yil 8-dekabr, 25-son, 10-bet.
11	Xivada maktablar islohi	Shoh Ahmad	1910-yil 23-dekabr, 26-son, 26-bet.

12	Buxoro amiri Abdulahadxon hazratlarini vafoti munosabati ila	Abdurashid Ibrohim	1911-yil 12-yanvar, 29-son, 65-bet
13	Buxorodan maktub	Muallifi noma'lum	1911-yil 12-yanvar, 29-son, 73-bet
14	Buxoroda ijroot	Ahmad Tojiddin	1911-yil 12-yanvar, 29-son, 75-bet
15	Buxoro xoniya jadidi	Muallifi noma'lum	1911-yil 12-yanvar, 29-son, 79-bet
16	Buxoroda yong'in	Muallifi noma'lum	1911-yil 12-yanvar, 29-son, 79-bet
17	Turkiston falokat zodagoni	Ahmad Tojiddin	1911-yil 26-yanvar, 31-son, 101-bet
18	Buxoroda yangi amir	Sherik	1911-yil 26-yanvar, 31-son, 107-bet
19	Turkistonda safolat	Muallifi noma'lum	1911-yil 26-yanvar, 31-son, 109-bet
20	Turkiston zilzilasi uchun	Muallifi noma'lum	1911-yil 2-fevral, 32-son, 127-bet.

Turkiston mintaqasiga oid yuqoridagi maqolalarning aksariyat qismida asosan davlat hokimiyatining siyosiy ahvoli, hukmdorlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va

madaniy sohalarida yuritayotgan siyosati tahlil va tanqid qilinadi. Rossiyaning Turkiston o'lkasida olib borayotgan mustamlakachilik siyosatining asl mohiyati ochib beriladi. Buxoro va Xiva hukmdorlari rus mustamlakachilik siyosatining mazmun-mohiyatini to'la anglagan holda mutlaq istiqbolga erishish chora-tadbirlarini ko'rishga da'vat qilinadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilinsa:

"Taorifi musulimin" jurnali turkistonli oydin fikrli kishilar uchun senzura dan holi minbar vazifasini bajardi;

Usmonli davlati va xalqini Turkistondagi rus mustamlakachilik siyosati bilan tanishtirib bordi. Turkiy xalqlar do'stligi g'oyasini yoyishga intildi;

Butun Rossiya imperiyasi, shu jumladan, Turkistondagi ozodlik g'oyalarini yoyishga katta e'tibor qaratdi. O'z sahifalarida Turkiston, Buxoro va Xiva mintaqalaridagi qoloq va mustamlakachilik siyosiy boshqaruvni ayovsiz tanqid qildi. Hukmdorlarni yangi islohotlar o'tkazishga dav'at etdi. Islohotchilik harakatini qo'llab-quvvatladi.

Binobarin, unda o'z ifodasini topgan ma'lumotlar Turkiston mintaqasi tarixining kemtik sahifalarini to'ldirishda muhim manba o'laroq qimmatli ahamiyat kasb eta oladi.

Adabiyotlar

1. Matbuot olami yoki sababi ta'sis g'azeta (Tujjor). / "Tujjor" 1907-yil, 21-avgust.
2. O'zbekiston Milliy arxivi. I-461-fond. 728-ish.
3. "Taorifi musulimin" jurnali. 1910-yil 16-aprel. 1-son.
4. Maqsad. // "Taorifi musulimin" jurnali. 1910-yil 16-aprel. 1-son.
5. Buxoro tahlkada... // "Taorifi musulimin" jurnali. 1910-yil 29-aprel. 2-son.
6. Buxoroli Abdurauf. Buxoro vaziri Nasrullobiy parvonachi afandi hazratlariga ochiq maktub // 1910-yil 8-dekabr. 25-son.
7. Shoh Ahmad. Xiva va islohot. // "Taorifi musulimin" jurnali. 1910-yil 18-noyabr. 22-son.
8. Xiva xoni Isfandiyorxon tarafidan chiqarilgan Farmoni oliy. // "Taorifi musulimin" jurnali. 1910-yil 25-noyabr. 23-son.
9. Shoh Ahmad. Xivada maktablar islohoti. // "Taorifi musulimin" jurnali. 1910-yil 23-dekabr. 26-son.
10. Ahmet Kanlidere. Idil-Ural ve Turkistan'da fikir hareketlari: Dini islahçilik ve ceditçilik. -Istanbul: 2021.
11. Istanbul kütüphaneleri arap harfli süreli yayınlar toplu kataloğu (1828-1928). -Istanbul: 1986.
12. Sevdä Özkaya. Meşrutiyet dönemi basınından örneklerle Türkistan. -Istanbul: 2016.
13. Qarang: <https://katalog.idp.org.tr/dergiler/60/tearuf-i-muslimin>

REZYUME. Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkiyada nashr qilingan "Taorifi musulimin" jurnali haqida ma'lumot beriladi. Jurnal sahifalarida yoritilgan Turkiston tarixi bilan bog'liq maqolalar tahlil qilinib, ularning mazmun-mohiyati va ko'lami ochib beriladi. Jurnal Turkistonning siyosiy, ijtimoiy va madaniy tarixi bo'yicha qimmatli manba ekanligi asoslanadi.

РЕЗЮМЕ. В статье даётся краткая информация о журнале «Таорифи Муслимин», который издавался в Турции в начале XX века. Анализируются опубликованные в журнале статьи по истории Туркестана, раскрывается их статистика и содержание. Показано, что журнал является важным источником для изучения политической, социальной и культурной истории Туркестана.

SUMMARY. This article gives us a brief information about the journal "Taorifi Muslimin" which was published in Turkey at the beginning of the 20th century. Published articles in the journal are based on the history of Turkestan are analyzed and their statistics and content are here in revealed. This has shown that the journal is an important source for studying the political, social and cultural history of Turkestan.

UDK 221(2024)

DEVELOPMENT OF THE BASICS OF FINGERING TECHNIQUE IN THE PIANO STYLE OF G.DEMESINOV'S MUSIC

G.I.Hojametova - PhD. professor

Nukus branch of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

Tayanch so'zlar: musiqa, fortepiano, partiya, ovoz, solist, sikl, tokkatina, nokturn.

Ключевые слова: музыка, фортепиано, партия, звук, солист, цикл, токкатина, ноктюрн.

Key words: music, piano, part, sound, soloist, cycle, toccatina, nocturne.

He created many works in all musical genres from symphony to song. These include symphonic works, works for chorus with symphony orchestra and arrangements of Karakalpak songs for voice and folk orchestra, a cycle of piano pieces for youth, chamber instrumental works, romances and songs. Being an innovator in many genres of professional academic music, the composer always strived to maximize the realization of his ideas and designs. According to musicologist, a member of the Union of Composers of Karakalpakstan D.Khudaibergenova "In the basis of all his works there is an original, creative thought, deep national origin" [1:31-33].

Honored Art Worker of Karakalpakstan, laureate of the Berdakh State Prize, composer and conductor Gaip Demesinov occupies one of the most honorable places among composers and art workers of the twentieth century. His contribution to the treasury of Karakalpak music and

his influence on the development of musical creativity of the country are exceptionally important. G. Demesinov is a composer who came to the musical art in the early 70s of the XX century. Gaip Demesinov's compositional work is multifaceted.

From an interview with the composer: "I was born in Karakalpakstan, in Kungrad. I know the language, culture, traditions, customs of the people and I cannot imagine myself outside of Karakalpak music. My first symphony is dedicated to the establishment of Soviet power in Karakalpakstan. Its first movement is called "Komsomolists". The second symphony "Bozatau" is about the historical past of the people, the ancient land of the Karakalpaks.

The piano concerti utilize the intonation and harmonic structure of instrumental melodies of the Karakalpak people. This principle is preserved in the Prelude and Fugue

for Symphony Orchestra. Besides, there are compositions of chamber-instrumental genre and vocal works. I consider it my duty to write music for the people on whose land I was born and grew up" from the interview with the composer [2:106].

After graduating from the conservatory, he attracted the attention of the musical community with his bright multi-genre works imbued with Karakalpak folk tunes and soon achieved recognition by the people. In 1973 he became a member of the Union of Composers of Uzbekistan.

In order to develop modern musical creativity in Karakalpakstan, he worked hard: he created, taught, directed an orchestra, processed and propagandized folk music. Despite the fact that he lived a short life, he left a great trace in the history of music of the country.

The fusion of man and nature expressed in the Nocturnes requires the performer to immerse himself in the world of spiritual life of the romantic soul of an artist who perceives reality poetically. The piano works of Gaip Demesinov, represented mainly by works of small form, are characterized by a bright and original style, the comprehension of which by the performer reveals fascinating creative tasks. The Toccata, which embodies images of will, energy and action, is indicative in this respect. The feeling of a huge intonational growth, rhythmic assertiveness, combined with the peculiar character of the work, prophesize the performer's artistic persuasiveness and impression in conveying the style of G.Demesinov's music.

The speed and accuracy of the motor reaction to the text being read depends to a great extent on the fingering technique, i.e. the ability to quickly select the most convenient fingering for a given situation, brought to automaticity. The development of auditory perceptions is constantly ahead of learning to read sheet music: elements of rhythm, melody, and harmony that are new to the child are mastered first by hearing and only then in musical notation. The rhythmic element of the recording is mastered first; rhythmoslogues are applied; the motor reaction is developed in the process of reproduction of ostinato rhythmic figures by musical notation [1:78].

The pitch element of the recording is introduced immediately in the form of intonation turns consisting of two or three sounds. The image of the minor tertia becomes a graphic familiar-symbol of this intonation, causing a clear sound image and accurate motor response. It is necessary to pay attention to the formation of complex perception of the musical text.

Along with the development of auditory perceptions, free movement of the hands on the keyboard without the aid of visual control is fostered. Fingering exercises help to develop a quick and accurate reaction of the fingers to the note pattern. Work on the formation of piano playing skills should by no means be limited to the initial stage of training. This process should be continued throughout the entire period of study at the music school. The ability to quickly and freely play notes will open before young musicians wide opportunities to familiarize themselves with the richest musical literature [2:132-134].

The result of these lessons should be the need to learn new things, to constantly make music. The mastering of musical notation takes place in the process of active music-making: singing, picking by ear, transposing, improvising, composing, etc. The student's auditory, visual and motor memory gradually accumulates typical textural, rhythmic and melodic forms characteristic of various styles of piano music. It is known that fingering is based on certain general rules, on well-learned formulas, on the progressive movement of the fingers. "Typical fingering of the original formulas of piano technique - scales, passages, double notes and chords - must enter the student's blood, otherwise the situation can reach anarchy with the choice of random fingering" [3:52].

The development of the basics of fingering technique is closely connected with the formation of sensitive orientation on the keyboard of the hands: mastering a singing, smooth legato, achieving a clear articulation of the fingers. Fingering exercises give the best results only when they are used simultaneously with work on mastering the keyboard using the "blind" method. This method is introduced during the period of familiarization with rhythm recording - approximately at the beginning of the second month of study.

Piano music, just like a score, should be read, first of all, vertically. The skill of such reading can be developed by the following exercises:

1) playing a sequence of chords in the form of harmonic figures, starting from the bass;

2) we play these figurations as consonances [4:102].

Such exercises form the ability to quickly determine the harmonic logic in the accompaniment based on broken chords. The main condition for rapid horizontal reading is the ability to quickly divide the text into syntactic units.

The initial phenomenon that tells us about the division of music is repetitions within a form. In this case, metrorhythmic similarity plays the most important role. Another less unambiguous indication of the division of music is the long durations that delay movement (resting points).

It is necessary for a coherent performance - each beat is prepared in the process of continuous movement. Continuity, without which there can be no coherent and expressive performance by notes, is possible only if the performer has at least a rough idea of the nearest continuation of the text in advance. "Reading from the sheet is to a large extent reduced to anticipation, as you can see by analyzing your reading of books." (I. Hoffmann) [5:221].

The possibility of "anticipating" the continuation of the text depends on:

1. The degree of complexity of the text (objective factor) - for example, it is easier to read classical style works - this is explained by the "transparency" of the texture, a high degree of orderliness of the elements of this style.

2. The volume of so-called "formulas" (textural, rhythmic, melodic) accumulated in the student's memory (subjective factor). That is, in order to easily reproduce the musical text, it is necessary to accumulate in the visual, auditory and motor memory a sufficient stock of "typical turns" of piano music [6:90].

To form and develop this skill:

1. The teacher stimulates the accumulation of stable models or "formulas" in the student's consciousness (horizontal - scales, arpeggios; vertical - intervals, chords)

2. The teacher works on overcoming the inertness of the student's thinking, achieves long concentration of attention and continuity of thinking. (this is facilitated by playing in an ensemble with the teacher light pieces, where the student's part is extremely simple melodically and rhythmically, and the teacher's part is an even pulsation, replacing the student's score) [7:46-47].

The fusion of man and nature expressed in the Nocturnes requires the performer to immerse himself in the world of spiritual life of the romantic soul of an artist who perceives reality poetically.

Comprehension of Demesinov's piano style will allow the pianist to see and hear the world of his music - deliberately original and modern. Gaip Demesinov's works are performed by the Philharmonic Symphony Orchestra and the Karakalpakstan State TV and Radio Orchestra. The composer's chamber-instrumental works are used as teaching and methodological material in the repertoire of children's music schools, at various competitions for young performers and festivals. These works can be used to successfully form the intonational thinking of musicians in reliance on national musical traditions. The works differ

from each other by a variety of style features, figurative structure, texture, writing technique, but each of them contains a grain of ethnos mentality. Gaip Demesinov's works are set out in such a way that they take into account practically all the possibilities of the playing performing apparatus. Deep comprehension and organic perception of folklore artistic and expressive means allows the composer to saturate the musical fabric of his works with developed melodic structures characteristic of Karakalpak folk song and instrumental art [8:143].

National characteristics are also manifested in rhythmic and harmonic forms.

The music of G. Demesinov is characterized by dynamic development of the theme, polyphonization of the texture, epicism of expression, and cantilena. The use of such a wide range of expressive means forms the composer's compositional style, intonational and harmonic originality, national characteristic of his works. With all the complexity and versatility of the musical architectonics, the emotional openness and wisdom of philosophical generalizations conquer with artistic power.

References

1. Abrosimova T.N. «Содержание и формы организации музыкально-образования учителей начальных школ конца XIX нач. XX в.». Author's abstract of Cand. ped. sciences: 13.00.01.
2. Azarova J.I.H. Развитие творческой индивидуальности младшего школьника в условиях семейного и общественного воспитания». Author's abstract Dis. kand. ped. nauk: 13.00.01. –M.: 1997. –С. 24.
3. Скребков С. Художественные принципы музыкальных стилей. –М.: «Музыка», 1973.
4. Рабинович Д. Исполнитель и стиль. Избранные статьи. – Вып. 1. Проблемы пианистической стилистики. –М.: Советский композитор, 1979.
5. Михайлов М. Стиль в музыке. –Л.: «Музыка», 1981.
6. Назайкинский Е. Стиль и жанр в музыке. // Учеб.пособие для студ.высш.учеб.заведений. –М.: «Владос», 2003.
7. Чинаев В. Исполнительские стили в контексте художественной культуры XVIII-XX веков (на примере фортепианного исполнительского искусства): Автореф.дис.д-ра искусствоведения. – М.: 1995.
8. Хашимова Д. Фортепианные произведения композиторов Узбекистана. Автореф. дис. канд. искусствоведения. –М.: 1985.

REZYUME. Maqolada qoraqalpog bastakori G. Demesinovning fortepiano asarlarining uslubi va janri ochib berilgan, fortepiano-ning ifodalash imkoniyatlari – temбри, dinamik ranglari, kolorit palitrasi haqida soʻz boradi. Ayniqsa, bu yerda keng nafas ohanglari bilan bir qatorda musiqaga epik hikoya, vazminlik va ulugʻvorlik baxsh etgan holda mavzularning deklomativ bayoni katta oʻrin tutadi.

РЕЗЮМЕ. В статье раскрывается стиль и жанр фортепианных произведений каракалпакского композитора Г. Демесинова, о выразительных возможностях фортепиано – его тембр, динамические краски, колористическую палитру. Особенно большую роль играет мелодии широкого дыхания и декламационное изложение тем, сообщающее музыке эпическую повествовательность, сдержанность и величавость.

SUMMARY. The article reveals the style and genre of piano works by Karakalpak composer G. Demesinov, the expressive possibilities of the piano - its timbre, dynamic colors, coloristic palette. Especially, the declamation of themes plays a great role where along with the melodies of wide breathing, giving the music epic narrative, restraint and majesty.

УДК:394

ҚАРАҚАЛПАҚ ТОЙЛАРЫНДА ӨЗ АРА ЖӘРДЕМ ДӘСТҮРИНИҢ ӘХМИЙЕТИ

Г.М.Хожаниязова – таянч докторант

*Ўзбекистан Илимлер академиясы Қарақалпақстан бөлими
Қарақалпақ гуманитар илимлер илим-изертлеу институты*

Таянч сўзлар: қарақалпоқлар, ўзаро ёрдам, никоҳ тўйи, сарпой, дастурхон очиш.

Ключевые слова: каракалпаки, взаимопомощь, свадьба, сарпа, открывать подарки.

Key words: Karakalpaks, mutual assistance, wedding, sarpai, “opening the gifts”.

Қарақалпақ халқы эсирлер даўамында түркий халықлар болған өзбек, қазақ, қырғыз, түркмен халықлары менен биргеликте турмыс кеширип, өз ара татыў жасап киятырған халықлардан бири есапланады. Бул халықлар күнделikli турмысында той хәм мерекелерди бирге атқарып, бирге ўақты хошлық етип байрамлағаны менен де, олардың той хәм мерекелеринде үрп-әдет дәстүрлери хәм қәделериндеги бир қанша парықлықты сезиўимизге болады. Эсиресе, миллий өзгешелик, үрп-әдетлердиң айырмашылығы, дәстүрлердиң сақланып қалғанлығы тойларда көзге тасланады. Мәселен, қарақалпақлардағы той мәресимлеринде халықтың өзине тән болған үрп-әдет дәстүрлери, қәделери арқалы эсирлер даўамында сақланып қалған ҳалда басқа халықлардан түптен парықланады.

Mamlakatimizda bugungi kun oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan asosiy maqsadlardan biri bu – “Yangi O'zbekiston”ni barpo qilishda milliy qadriyatlarimizga sodiq, kreativ fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarni egallagan, chin vatanparvar kadrlar tayyorlashdir. Yoshlar uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlar va sa'y-harakatlarning negizida ham ularni har tomonlama tarbiyalash, ta'lim berish, ularning iste'dodini qo'llab quvvatlash va kelgusida o'zi tanlagan kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishlariga ko'maklashish masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor berib kelinmoqda.

Mazkur jarayonda oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning talabalarga bugungi zamonaviy ta'lim nuqtayi-nazaridan didaktik va tarbiyaviy yondashuvlar asosida ta'lim berishi yuqoridagi ezuq maqsadlar kaliti hisoblanadi.

«Jamiyatimizda bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, olivgohlarning professor-o'qituvchilari va ilmiy-ijodiy zivoliylarni bugun biz intilavotgan Uchinchi Renessansning to'rt tayanch ustuni deb e'tirof etmoqdamiz» – deya, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev mazkur yo'nalishning qay darajada dolzarb ekanligini ta'kidladilar [1]. Biroq o'qituvchilar orasida bugungi kunda ta'lim jarayonida eng ko'p uchrayotgan salbiy psixologik holatlardan biri sifatida ularda psixik jihatdan o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasining yaxshi rivojlanmaganligi va kasbiy faoliyatini rejali asosda tashkillashtira olmasligi kabi muammolarni e'tirof qilish mumkin. Bu holat quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Mehnat unumdorligining pastligida;
- Yangi faoliyat boshlagan o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga yetarlicha tayyor emasligida;
- Kasbiy va shaxsiy rivojlanish maqsadlarini qo'ya olmasligida;
- O'z ilmiy va kasbiy faoliyatlarini rejalashtira olmasligida.

Mazkur muammo barcha davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarida kuzatilmoqda.

Aslini oladigan bo'lsak, bunday holatlarga olib keluvchi sabablar bir emas balki, bir nechta omillar ta'sirida ma'lum bir muddatlar mobaynida shakllanadi, desak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Psixologiya fani nuqtayi nazaridan o'z – o'zini boshqarish – bu shaxsning turli xil psixofiziologik funksiyalarining ishlashini maqsadli ravishda o'zgartirishi, buning uchun faoliyatni nazorat qilishning maxsus vositalarini shakllantirish talab etiladi [9].

Darhaqiqat, shaxs kamoloti ko'plab, xususan, fiziologik va psixologik omillar bilan belgilanadi. Professor-o'qituvchilarda aynan o'z-o'zini boshqarish sohasidagi muammolarning ko'payishi ham yuqoridagi psixofiziologik funksiyalarning ishlashini maqsadli ravishda o'zgartira olmasligi va buning oqibatida faoliyat nazoratining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur muammoga qiziqish Antik davr yunon olimlari tomonidan bir qancha fikr va mulohazalarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Aristotel mazkur muammoga fikr bildirar ekan, asosiy e'tiborni muloqot tushunchasiga qaratadi. Biroq, muallif «muloqot»ga singib ketgan inson dunyosi, haqiqiy sadoqatga ega, mavjudlik va bir-biri bilan yashaydigan, intiluvchan, o'zaro aloqada bo'lgan odamlarga xosdir.

Insonning hayoti har xil muammolar va tashvishlar bilan to'lib toshgan, qo'llab-quvvatlanishga muhtoj, o'z mavjudligi sabab turli xil ishlarni bajarishi, qat'iy aytganda, o'z-o'zini ro'yobga chiqarishdan ko'ra ko'proq tashqi natijalarga yo'naltirilgan va oshkor qilingan o'z shaxsiy mohiyatiga ega tushuncha ekanligi ta'kidlanadi [5].

Aristotelning muloqot rolini yuqori baholashi bejiz emas, albatta. Chunki insonlar orasida sodir bo'ladigan turli xil tushunmovchilik va ziddiyatlarning yechimi bu chiroyli muloqot hisoblanadi. Bu esa uni o'rab olgan ijtimoiy muhit, shaxs xarakter xususiyatlari hamda uning axloqiy tamoyillari asosida tarkib topadi, desak to'g'ri bo'ladi.

O'qituvchilarda kasbiy faoliyatda yuksak natijalarga erishishda o'zining hissiy-emotsional hamda kognitiv sohalarini muvofiqlashtira olishi juda muhim faktor hisoblanadi.

O'rta asrlar Sharq Uyg'onish davrida ijod qilgan mutafakkirlarimiz ham mazkur muammo bo'yicha o'zlarining farqli va o'xshash nazariy qarashlarini bayon etishgan. Buyuk alloma, qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar haqida dastlabki qarashlarni ilgari surgan. Uning ta'kidlashicha, ta'lim – so'z va ko'nikmalar majmuyi hisoblanib, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligini, muayyan bir kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosiga aylanishini ta'kidlagan [6].

Mazkur qarashning ahamiyati shundaki, shaxsning muvaffaqiyatga erishishi, kasb-hunar o'rganishi va o'z-o'zini boshqarishi, tartibga solishi nafaqat ijtimoiy omillar ta'sirida balki, fiziologik omillar bilan bog'liq ekanligi ham ta'kidlanadi.

O'qituvchilarning psixologik xususiyatlari va ta'lim berish jarayoniga doir mulohazalarni ilgari surgan buyuk allomalardan yana biri Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ilm berishda ta'lim bilan tarbiyaning bir butunligini ko'rsatadi; faqat shu birlikka amal qilgan ustozlarning shogirdlari kamolot sari bora oladi, deb ishontradi.

Bilim berish xilma-xil yo'l bilan, eng muhimi, talabani toliqtirmasdan va charchatmasdan turli vositalar bilan uning xotirasini kuchaytirish, tafakkurini boyitish va bilimni chuqurlashtira borish orqali amalga oshirilishi zarurligini uqtiradi. U ustozlar haqiqiy maqsadga erishishi uchun yo'lini to'sib turgan hamma noaniqliklar va shubhalarni bartaraf qilish, bunda juda ehtiyotkorlik bilan harakat qilish lozimligi, o'zlashtirilgan bilimlar shaxsiy va kasbiy hayotda tajriba qilib olinmasa, bundan hech qanday naf bo'lmisligi haqida gapiradi [7].

Bundan tashqari, bugungi zamonaviy ta'lim tizimi sharoitida professor-o'qituvchilarning axloqiy jihatdan mukammal darajada bo'lishi tamoyili hozirda har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Chunki bolada tasavvur – xayollarni rivojlantirish dastavval oilada ota-ona tomonidan shakllantirila boshlaydi, keyin esa ta'lim muassasalarida tarbiyachi, ustozlar tomonidan ta'lim-tarbiya berish jarayonida shakllanadi [10].

Darhaqiqat, talabalarga didaktik va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng samarali usuli bu “shaxsiy namuna” bo'lishdir. Professor-o'qituvchilarning axloqiy va ma'naviy hislatlari talabalar xulq-atvorining rivojlanishida asosiy omillardan biri sifatida ishtirok etadi.

Jahon psixologiyasida mazkur muammoning faol o'rganilish jarayonining boshlanishi XIX asr oxiri XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Amerika psixologiyasining otasi Uilyam Jeymsning 1890-yildagi istak va motivatsiya maqsadni amalga oshirishdagi asosiy kuchini va iqtidorning katta ahamiyatga ega ekanligi haqidagi farazidan qariyb bir asr o'tib, motivatsiya va malakaning o'zni ham muhim ahamiyatga ega ekanligi o'z tasdig'ini topdi, chunki har bir odamda bulardan qaysidir biri mavjud, lekin ikkalasi ham emas, degan fikr yuzaga keladi [2].

U.Jeyms fikriga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, inson hayotida maqsadlarni amalga oshirishda asosiy uchta omil – istak, motivatsiya hamda iqtidor muhim rol o'ynar ekan. Aynan mana shu uchta asosiy sifatlar o'qituvchilar kasbiy faoliyatida ham asosiy harakatlarni ta'minlovchi hamda muvaffaqiyatlarga erishishlarida katta ahamiyatga ega tushunchalar deb hisoblash mumkin.

David Mayers asarlarida o'z-o'zini boshqarish masalasiga motivatsion yondashuvni ham ko'rishimiz mumkin. Uning fikricha, shaxslar o'z ijtimoiy aloqalarini uzmaslikka harakat qiladilar. Yaqin munosabatlar insonlarda nafratlanishni emas, balki, simpatiyani paydo qiladi. Ya'ni bog'liqlik insonlarni bir-biri bilan qolishga undaydi [3].

Aynan shu motivatsion omillar shaxsga o'z-o'zini va xatti-harakatlarini boshqarish ehtiyojini yuzaga keltirar ekan. Bu omil shaxslararo munosabatlarni qo'llab-quvvatlanishi bo'lar ekan.

Ayniqsa, so'nggi o'n yilliklar davomida ruhiy o'zini o'zi tartibga solish muammosi ko'plab tadqiqotchilar va amaliy psixologlar e'tiborini tortib kelmoqda.

O'z-o'zini tartibga solish psixologiyasining predmeti – bu harakatlarning, xulq-atvorning, hayotning faol subyekt sifatida shaxs individualligining, ruhiy faoliyatining va o'z-o'zini tashkil etishni ta'minlaydigan integral ruhiy jarayonlarining yaxlitligi sifatida qaraladi. Rus olimlari o'zini o'zi nazorat qilish borasidagi tadqiqotlarining asosiy tendensiyasi – bu tadqiqot funksiyalari va o'z-o'zini nazorat qilishning tuzilishi hamda uning xususiyatlaridan tadqiqotga o'tish o'z-o'zini

boshqarishning rivojlanishi individual xususiyatlari va uning shaxsiy determinantlaridan iborat deb ta'kidlab kelishgan [4].

Rus psixologiyasida ilmiy va ilmiy-amaliy muammolarni hal qilishda muayyan yutuqlar turli sohalarda inson faoliyatini o'zini o'zi boshqarish masalalari xususiyatlarini ta'kidlash asosida va o'z-o'zini tartibga solishga ta'sir qiladigan shaxsning yo'nalishlari nuqtayi-nazaridan o'quv faoliyati talabalarini L.I.Bojovich, A.K.Markova va boshqalar o'rganishgan bo'lsa, mehnat unumdorligini oshirishning subyektiv omillarini Y.M.Zabrodin, O.A.Konopkin, V.A.Morosanova, A.K.Osnitsky, B.F.Lomov, N.P.Fetiskin, V.D.Shadrikov va boshqa olimlar ilmiy faoliyatida o'rganilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Aniqroq aytadigan bo'lsak, ta'lim beruvchi subyekt sifatida o'zini o'zi boshqarish psixologiya fanida hal qilinmagan muammolardandir. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu muammo alohida ahamiyatga ega individual tipologik yondashuvni talab qiladigan o'qitish nazariyasi va amaliyoti hisoblanadi [8].

Xulosa. Professor-o'qituvchilarning o'z-o'zini boshqarish masalasiga psixologiya fanida bir nechta yondashuvlar va fikrlar mavjudligini ko'rsatish mumkin. Bulardan eng asosiy nazariyalarga qaraydigan bo'lsak, birinchisi, o'z-o'zini boshqarish muloqot va shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq holda tahlil qilingan, ikkinchisi, ehtiyojlar, motivatsiya va qiziqishlari tizimi tomonidan belgilanadi, deb hisoblaydigan tadqiqotlar va uchinchisi, o'z-o'zini boshqarishni o'z-o'zini baholashdan kelib chiqadi degan g'oyalar atrofidagi ilmiy va boshqa qarashlar mavjud. Yuqoridagi fikrlar o'qituvchilarning o'z-o'zini boshqarishi masalalari fanda dolzarb va ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan muammo ekanligini ko'rsatadi. Va kasbiy rivojlanishda o'z-o'zini boshqarish omillarini yanada chuqurroq zamonaviy sharoitlarni inobatga olgan holda yangi tadqiqotlar olib borish lozimligini e'tirof etish mumkin.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning o'qituvchi va murabbiylarga yo'llagan bayram tabrigidan. www.president.uz 29.09.2021.
2. Handbook of Self-Regulation: Research, Theory, and Applications. (2004). R.F. Baumeister & K.D. Vohs (Eds.) New York: Guilford Press. Walter Mishel, Ozlem Ayduk. Willpower in a Cognitive-Affective Processing System. The Dynamics of Delay of Gratification 6.
3. Devid Mayers Psixologiya. –Minsk: 2008, 496-b.
4. Morosanova V.I Conscious self-regulation of voluntary activity: differential approach. Psychology in Russia: State of the Art. Scientific Yearbook, Moscow: Lomonosov Moscow State University; Russian Psychological society; 2010; p. 333-350. Extraversion and neuroticism: the typical profiles of self-regulation. European Psychologist 2003; 4: -P. 279-288.
5. Метафизика действия у Аристотеля [Текст] К.И.Потапова. Известия Уральского федерального университета. Сер. 3, Общественные науки. 2016. Т. 11, № 4 (158). - С. 224-233. Библиогр. - С. 226.
6. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: 2016. 67-b.
7. Беруний. Минералогия. –Ленинград: 1963. –С.21.
8. Зобков А.В. Акмеология саморегуляции учебной деятельности: монография. Владимир – Санкт-Петербург: 2013.
9. Головин С.Ю. Словарь практического психолога (около 2000 терминов, 1998. –С. 248)
10. Raximov B., Egamov Y. Shaxs rivojlanishida muhit va ta'lim- tarbiyaning o'zni borasida Abu Ali Ibn Sinoning psixologik qarashlari. // Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. 2023. T. 3. №. 3. -S. 29-30.

РЕЗЮМЕ. Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida o'z-o'zini boshqarish masalasi bo'yicha psixologik nazariyalar, shuningdek, o'z-o'zini boshqarishning psixologik va akmeologik omillari tahlil qilinib, ko'rib chiqilayotgan muammo yuzasidan fikr va xulosalar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье проанализированы психологические теории, а также психологические и акмеологические факторы саморегуляции в профессиональном развитии педагогов, работающих в системе высшего образования, изложены мнения и выводы по рассматриваемой проблеме.

SUMMARY. This article analyzes psychological theories on the issue of self-regulation in the professional development of lecturers operating in the higher education system, as well as psychological and acmeological factors of self-regulation, and describes opinions and conclusions on the problem under consideration.

RAXBAR KADRLARNING INNOVATSION YETAKCHILIGINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sh.B.Saparov – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

T.A.Nurabullaev – ilmiy tadqiqotchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: ijtimoiy-psixologik koʻnikmalar, innovatsion yetakchilik, faol tinglash, nizolarni boshqarish, oʻz-oʻzini rivojlantirish, muvaffaqiyatli mutaxassis, koʻnikmalarni rivojlantirish, amaliyot.

Ключевые слова: социально-психологические навыки, инновационное лидерство, активное слушание, управление конфликтами, саморазвитие, успешный профессионал, развитие навыков, практика.

Key words: socio-psychological skills, innovative leadership, active listening, conflict management, self-development, successful specialist, skill development, practice.

Kirish. Innovatsion yetakchilik oʻzgarishlar tez sodir boʻlayotgan va raqobat shiddatli boʻlgan zamonaviy dunyoda tashkilotni muvaffaqiyatli boshqarishning asosiy tarkibiy qismidir. Samarali innovatsion rahbar boʻlish uchun maʼlum ijtimoiy-psixologik koʻnikma va fazilatlariga ega boʻlish kerak. Birinchidan, innovatsion rahbar kelajak haqida aniq tasavvurga ega boʻlishi va uni va jamoani oʻz maqsadlariga erishishga yoʻnaltiradigan strategiyaga ega boʻlishi kerak [3]. Ushbu tasavvur xodimlar uchun rahbarning maqsadlarini baham koʻrishi va ularga erishish uchun ishlashi uchun ilhomlantiruvchi va ragʻbatlantiruvchi boʻlishi kerak. Ikkinchi muhim ijtimoiy-psixologik xususiyat empatiyadir. Xodimlarning his-tuygʻulari va ehtiyojlarini tushunish va idrok etish qobiliyati rahbarga jamoada ishonchli munosabatlarni oʻrnatishga yordam beradi, bu esa aloqa va hamkorlikni yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari, innovatsion rahbar oʻz jamoasi orasida ijodkorlik va innovatsion gʻoyalarni ragʻbatlantirishi kerak. Xodimlarning ijodkorligini rivojlantirish innovatsion yechimlarning paydo boʻlishiga va tashkilotning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Oʻzgarishlarni boshqarish qobiliyati ham innovatsion yetakchilikning muhim jihati hisoblanadi. Rahbar tashkilotda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlarga samarali javob berishi va xodimlarning mumkin boʻlgan qarshiligini yengib, innovatsiyalarni amalga oshirish jarayonini boshqarishi kerak [5]. Va nihoyat, yaxshi muloqot qobiliyatlari innovatsion yetakchilikda muhim rol oʻynaydi. Rahbar oʻz gʻoyalarini aniq ifoda eta olishi, jamoani birgalikda ishlashga ilhomlantirishi va hamkasblari bilan ochiq va konstruktiv muloqotni rivojlantirishi kerak. Umuman olganda, innovatsion yetakchilikning ijtimoiy-psixologik jihatlari tashkilotning muvaffaqiyatli rivojlanishi va maqsadlarga erishish uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu sohalarida yetakchining koʻnikmalari va fazilatlarini doimiy ravishda takomillashtirish unga oʻzgarishlarning haqiqiy agenti boʻlishga yordam beradi va oʻz jamoasini innovatsiyalar sohasida katta yutuqlarga ilhomlantiradi.

Tadqiqot obyekt. 1. Rahbarlarning Psixologik Xususiyatlari: Rahbarlarning shaxsiy xususiyatlari, jumladan, xarakteri, qaror qabul qilish uslubi, ijtimoiy moslashuvchanligi va stresga chidamliligi. 2. Innovatsion Yetakchilik Koʻnikmalari: Bu koʻnikmalar rahbarning yangiliklarni qabul qilishiga, yangi gʻoyalarni ilgari surishiga va islohotlarni amalga oshirishga qanchalik qodir ekanligini oʻz ichiga oladi. Shuningdek, bu borada rahbarning ijodkorligi va tashabbuskorligi ham muhim hisoblanadi. 3. Ijtimoiy Muloqot va Jamoa Boshqaruv Usullari: Rahbarning jamoa bilan muloqoti, jamoa ichida va tashqarisida oʻzaro munosabatlarni qanday boshqarishi, jamoaviy ishlarni qanday tashkil etishi, konfliktlarni qanday hal etishi kabi jihatlar. 4. Motivatsion Usullar: Rahbarlar qanday motivatsion usullar qoʻllaydi, ularning jamoaviy ishga va innovatsion faoliyatga qanday taʼsiri borligi.

Tadqiqot metodlari. 1. Soʻrovnomalar va Anketalari: Rahbar kadrlar va ularning jamoalari oʻrtasida oʻtkazildi. 2. Kuzatuvlar: Rahbarlarning ish jarayonida oʻzaro muloqot va boshqaruv usullari kuzatildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Innovatsion yetakchilik tashkilotning rivojlanishi va muvaffaqiyatli ishlashida muhim rol oʻynaydi. Rahbarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari uning jamoani innovatsion gʻoyalarni amalga oshirishga ilhomlantirish va ragʻbatlantirish qobiliyatiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Ishonch va qoʻllab - quvvatlash, oʻzgarishlarni boshqarish qobiliyati, aloqa va jalb qilish, ijodiy fikrlashni qoʻllab-quvvatlash, hurmat va tushunish innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim rol oʻynaydi. Yangi boshlanuvchilar uchun ishonch va qoʻllab-quvvatlash muvaffaqiyatli innovatsion yetakchilikning asosiy elementlari hisoblanadi. Xodimlar bilan ishonchli munosabatlarni oʻrnatishga va ularni qiyin paytlarda qoʻllab-quvvatlashga qodir boʻlgan rahbar har bir jamoa aʼzosi oʻzini ishonchli his qiladigan va innovatsiyalar jarayoniga hissa qoʻshishga undaydigan muhit yaratadi. Oʻzgarishlarni boshqarish qobiliyati innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ham muhim rol oʻynaydi [8]. Innovatsiya koʻpincha tashkilotdagi oʻzgarishlarni oʻz ichiga oladi va innovatsion rahbar ushbu oʻzgarishlarni qabul qilishi va boshqarishi kerak. Aniq rejalashtirish, jamoaning fikr-mulohazalariga qaror qabul qilishda moslashuvchanlik yetakchiga jamoani oʻzgarishlar orqali muvaffaqiyatli boshqarish va yuzaga kelishi mumkin boʻlgan toʻsiqlarni engib oʻtishga imkon beradi. Muloqot va jalb qilish muvaffaqiyatli innovatsion yetakchilikning asosiy omilidir. Jamoa bilan samarali muloqot qilish, xodimlarning fikrlari va gʻoyalarini tinglash qobiliyatiga ega boʻlgan rahbar jamoaviy ijodkorlik va innovatsiyalarni amalga oshirish uchun sharoit yaratadi. Fikr-mulohazalarga ochiqlik va konstruktiv muloqot rahbarga eng yaxshi echimlarni topishga va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi. Ijodiy fikrlashni qoʻllab-quvvatlash ham innovatsion jarayonda muhim rol oʻynaydi. Oʻz xodimlarida ijodkorlik va innovatsiyalarni ragʻbatlantiradigan rahbar tashkilotda innovatsion salohiyatni rivojlantirishni ragʻbatlantiradi. Gʻoyalarni erkin ifoda etish uchun sharoit yaratish, aqliy hujumlarni amalga oshirish va tajribalarni ragʻbatlantirish jamoaga innovatsion echimlarni topishga va kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi [4]. Va, albatta, innovatsion rahbar tomonidan hurmat va tushunish ijobiy ish muhitini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi. Oʻz xodimlarining fikrlari va qadr-qimmatini hurmat qiladigan rahbar innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va jamoaning motivatsiyasini oshirish uchun sharoit yaratadi. Hurmat va tushunish xodimlar bilan yaqin munosabatlarni oʻrnatishga va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi. Shunday qilib, innovatsion rahbarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkilotda innovatsion gʻoyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Ushbu xususiyatlarning rivojlanishi yetakchiga jamoaga samarali taʼsir koʻrsatishga, uni ishga ijodiy va innovatsion yondashishga ilhomlantirishga imkon beradi va tez oʻzgaruvchan bozor sharoitida tashkilotni rivojlantirish uchun muvaffaqiyatli strategiyalarni yaratishga yordam beradi.

Innovatsion yetakchilikning ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalardan foydalanish mumkin:

1. Faol tinglash. Ijtimoiy-psixologik yetakchilikning asosiy ko'nikmalaridan biri bu tinglash va xodimlarga o'z fikrlari va g'oyalarini ifoda etish imkoniyatini berishdir.

2. Empatiyaning rivojlanishi. Empatiya ijtimoiy-psixologik yetakchilikning asosiy mahoratidir. Xodimlardan his-tuyg'ulari va tajribalarini tushunishga va his qilishga intilish, ularning o'rniga qo'yish, qo'llab-quvvatlash va hamdardlik ko'rsatish. Aloqa, psixologik treninglar, psixologiya bo'yicha adabiyotlarni o'qish orqali empatiyani rivojlantirish mumkin.

3. Mojarolarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish. Mojarolar ko'pincha innovatsiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladi va ularni samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'lish muhimdir [6].

4. Doimiy o'z-o'zini rivojlantirish. Innovatsion yetakchilik doimiy o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirishni talab qiladi. Master-klasslarda, treninglarda, yetakchilik, psixologiya, aloqa kurslarida ishtirok etish muhimdir. Ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni, muloqotni, shaxsiyat psixologiyasini rivojlantirish bo'yicha adabiyotlarni o'qish mumkin [10].

Ushbu amaliy ko'rsatmalarga rioya qilish va doimiy ravishda o'z ustida ishlash orqali innovatsion yetakchilikning ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilash va jamoa uchun yanada muvaffaqiyatli va ilhomlantiruvchi yetakchiga aylanish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, innovatsion yetakchilikda ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni rivojlantirish rahbarning muvaffaqiyatli ishinining muhim elementi. Ushbu ko'nikmalar rahbarga xodimlar bilan samarali muloqot qilish, ularni ijodkorlik va rivojlanishga ilhomlantirish, nizolar va muammolarni boshqarish imkonini beradi. Faol tinglash, empatiya, aloqa, nizolarni boshqarish va doimiy o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini amaliy rivojlantirish orqali rahbar nafaqat muvaffaqiyatli mutaxassis, balki yanada samarali va ta'sirchan rahbarga aylanishi mumkin. Doimiy amaliyot va olingan bilimlarni amalda qo'llash sizning ijtimoiy-psixologik ko'nikmalingizni yaxshilashga va innovatsiya va yetakchilikda yangi marlarni zabt etishga yordam beradi. Innovatsion yetakchilik ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq, shuning uchun bu masalaga rahbar va umuman tashkilot sifatida muvaffaqiyatga erishish uchun alohida e'tibor qaratish lozim.

Adabiyotlar

1. Адизес И.К. Управление жизненным циклом корпорации / И.К. Адизес. -СПб.: -Питер: 2007. -С. 384.
2. Аксеновская, Л.Н. Ордерное понимание организационной культуры / Л.Н. Аксеновская. // Психологический журнал. - 2009. №4. -С. 25-32.
3. Базаров Т. Ю. Психология управления персоналом. Теория и практика. -М.: Юрайт, 2014. -С. 381.
5. Базаров Т.Ю. Управление персоналом. -М.: Академия, 2013. -С. 224.
6. Батлер-Боудон, Т. Бизнес и инновации. / Т. Батлер-Боудон, П.Ф. Друкер. -М.: Эксмо, 2012. -С. 432.
7. Белинская Е.П. Социальная психология личности / Е.П. Белинская, О.А. Тихомандрицкая. - М.: Academia, 2009. -С. 304.
8. Блейк Э. Теория социальной идентичности в контексте организации / Э. Блейк, М. Фред // Организационная психология. - 2012. №1. -С. 4-27.
9. Липатов С.А. Управление персоналом развивающейся организации / С.А. Липатов // Организационная психология. 2014. №2. Т. 4. -С. 92-95.
10. Луговая Е.С. Инновации как основа модернизации современного общества / Е.С. Луговая. - Вестн. Волгогр. гос. ун-та. - Сер. 7. Филос. 2012. №2(17). -С. 103-108.
11. Манфред К. Де В. Мистика лидерства. Развитие эмоционального интеллекта / К. Де В. Манфред. 2-е изд. -М.: «Альпина Бизнес Букс», 2005. -С. 312.

REZYUME. Ushbu maqolada rahbar xodimlarning muvaffaqiyatli innovatsion yyetakchiligi uchun zarur bo'lgan asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlar tahlil qilinadi va ularni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ko'rib chiqiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье мы проведем анализ основных социально-психологических особенностей, необходимых для успешного инновационного лидерства руководящих кадров, и рассмотрим практические рекомендации по их развитию и улучшению.

SUMMARY. In this article, it is analyzed the main socio-psychological characteristics necessary for successful innovative leadership of senior personnel, and considered practical recommendations for their development and improvement.

ПСИХОЛОГИЯ ФАНИНИНГ ДОЛЗАРБ ВАЗИФАЛАРИДАН БИРИ

Л.С.Турсунов – психология фанлари номзоди, доцент

Низомий номидаги Тошкент давлат университети

Таянч сўзлар: ахборот бўронлари, ёшлар тарбияси, ўзликни англаши, билимлар, ўзлаштириш, ажримлар, нотўлиқ оилалар, шахслараро, муносабат, миллий кадрият, фидоий.

Ключевые слова: информационные бури, образование молодежи, самосознание, знание, мастерство, решения, неблагополучные семьи, межличностное, отношение, национальная ценность, самоотверженность.

Key words information storms, youth education, self-awareness, knowledge, mastery, decisions, dysfunctional families, interpersonal, attitude, national value, selflessness.

XXI асрнинг дастлабки чораги якунланиши арафасида дунё миқёсида юзага келаётган ижтимоий, иқтисодий, экологик, тиббий ҳамда турли муаммолар инсониятни боши берк кўчага олиб қириб қўяётганлиги ҳеч кимга сир эмас. Турли ахборот бўронлари оқими, ёшлар тарбияси, ўзлигини англаши ва билимларни ўзлаштиришга таъсири оқибатлари эртани ўйловчи ҳар қандай тарракийпарвар инсонни хаяжонга солмай қўймайди. Оилавий ажримлар, нотўлиқ оилаларни кўпайиши, етимлик аламида ўсаётган ёшлар ва жиноятчиликни ошиб бориши қайси бир миллатпарвар инсонни бефарқ қолдириши мумкин. Замондошларни ўзаро беэтиборликлари, шахсни ўз қобиғига ўраниб олаётганлиги, шахслараро муносабат узоклашиб бораётганлиги миллий кадриятларни ўйловчи қайси бир ўз даврини фидоий инсонни четлаб ўтиши мумкин?

Юқоридаги ваҳимали саволларни исталганча давом эттириш мумкин. Аммо уларни жавобига келганида ҳар қандай даража қомилликка эришган инсон ҳам ўйга толиб қолиши табиий ҳол ҳисобланади. Санаб ўтилган муаммоларнинг юзага келишининг сабабчиси шахс эканлигини тан олишимиз нуктаи назаридан ёндошадиган бўлсак, инсоншунослик билан машғул фанлардан бири психологияни долзарб вазифаларига оид мулоҳазаларимиз билан фикр алмашишимиз фойдадан холи бўлмаса керак.

Психология фанини мамлакатимиз ҳудудидаги филогенезига эътиборимизни қаратадиган бўлсак салмоқли тарихига эга эканлигини кўришимиз мумкин. Аммо шунинг ҳам таъкидлаб ўтишимиз керакки, сўнгги ўн беш йилликдаги каби космик тезликда психологияни ривожланишини психология фани тарихи билан шуғулланувчи мутахассислар эслай олмасликлари аниқ.

Сабаби психологик билимлари саёз, аммо унга нисбатан эҳтиёжи юқори бўлган халқимизга ўз бағрини моддий бойлик орттиришга ўч сохта психологлар томонидан, ким нимани хоҳласа, ўшанга мослаштирилиб очилди ва очмокда десак хато бўлмайди.

Чуқур психологик билимга эга бўлмаган сохта (кўча) психологлари оммавий ахборот тармоқлари орқали содда мижозларига шунақанги оханаболи тўрни ташлайдиларки, аста қўяверасиз, унда жамиятимиздаги барча соҳаларию, шахсга оид бўлган ҳамма хусусиятларини ўзида акс эттирган зардўзлик иплари мавжуд.

Халқимизни этнопсихологик хусусиятларидан ишонувчанлик ва эътиқодимиздаги диний бағрикенглигидан ҳамда оилапарварлигидаги кечиримлилигидан фойдаланган ҳолда психологияга алоқаси бўлмаган ҳолатларга ҳам психологик тўнни кийдириб ўзларини донолигини намоён этаётган бу психологлар кундан-кунга баҳордаги қўзқорин каби кўпайиб бораётганликларини кўриб хайратланмасликни иложи йўқ.

Келинг, энди бу сохта психологни юзага келиши, оммавий психозни ташкил этишли ва уни гуруҳий фаолиятини олиб бориш тизимини бир кўриб чиқамиз.

Биринчи босқич – тармоқдаги сохта тадбиркор психологлар курсларини тинглаб, маълумотларни жамлаб бориб уларга берилаётган саволларни ўрганиб бориш;

Иккинчи босқич – ўзига ўхшаган бекорчи аммо пулга муҳтож жамоани (камида ўн кишидан иборат) ядро халқани ташкил этади. Мазкур жамоадагиларни қарийб тенг ярни компьютер технологиясини яхши билиши шарт бўлади;

Учинчи босқич – бирор ном билан психологик марказни тадбиркор сифатида камида беш – ўн кишини иш билан таъминлашни кўрсатган ҳолда рўйхатдан ўтказиш ва марказ реклама асосида амалга оширила бошлайди;

Тўртинчи босқич – рекламани ҳам энг осон йўли оммавий ахборот воситасида текин дарсларни ташкил этиш;

Бешинчи босқич – текин дарсни ўтказиш технологиясини ишлаб чиқиш яъни қандай саволлар берилади, унга қандай жавоб бериш режасини тузиш;

Олтинчи босқич – курслар ташкил этиш ва якка тартибда мижозларни жалб этиш технологиясини ишлаб чиқиш;

Еттинчи босқич – ядро гуруҳидаги беш кишининг фаолияти бошланиши яъни ўзига тўқ бўлган мижозларни марказга жалб этиш, компьютерчиларни ўз – ўзидан администраторга айлантириш;

Саккизинчи босқич – пуллик курсларни ёзиш ва уларни ташкил қилинган гуруҳларга қўйиб бериш, мисоли тўғридан – тўғри зум орқали курс жараёни ўтилатгандек таассурот қолдириш. Дарс жараёни жонли бўлаётганини исботлаш учун беш кишилик ядро гуруҳ вакиллар турли номлар билан савол беришлар амалга оширилади.

Тўққизинчи босқич – курслар, маслаҳат ва текин дарс ўтаётган сохта психологни кўқларга кўтариб макташ ва ундан буюқ, олий тоифадаги даҳо психологни шакллантириш.

Ўнинчи босқич – жамоага илмий даражаси бор бир психологни маслаҳатчи сифатида қўшиб қўйилса бўлди.

Миллатимизни энг нозик томонлари яъни эътиқод, соғлиқ, фарзанд тарбияси, оила ва пул ҳақида хоҳлаганингизча курсларни ташкил қилаверинг. Фақат унутманг, курсларни нархи қанчалик юқори бўлса, унга кириб ўқувчиларнинг сони шунчалик кўп бўлади, бу энг асосий даромадингиз бўлса ёрдамчи даромадингиз

алоҳида мижозларни қабул қилиш бўлади. У ҳам қийин эмас озгина суҳбатлашсангиз бўлди ўзи қандай тузалиши вариантларини ўзи тушунтириб беради.

Курсларни қанча кўп очсангиз сизга шунча онсон бўлади мижозларингизга мени мана бу курсимга кириб ўзингизга керакли билимларни олишингиз керак ёки ана у курсимга кириб тингласангиз дардингизга шифо топасиз деган таклифларни бериб мижозни кўпайтираверасиз. Қолган ишларни админларингиз қилаверади.

Охирги босқич – турли вилоят ва шаҳарлардаги катта анжуман биноларида учрашувлар ташкил қилинг. У ерда ҳам сизни қўлловчи ядро гуруҳи бўлади. Сиз эса учрашувни 75% вақтини курсларингизни макташ билан ўтказинг. Сариқ прессага тааллуқли, кўчирмачилик асосида юзага келган 5 ва 6 турдаги китобларингизни сотиш ҳам айнан ана шу учрашувларда амалга оширилади.

Юқоридаги босқичларни амалга ошириб олган тадбиркор сохта психолог энди даҳо мутахассис сифатида минг-минглаб содда халқимизни руҳиятига салбий таъсир этиб, ўз манфати ва ядро гуруҳини эҳтиёжи йўлида фаолиятини олиб бораверади. Энди у бемалол; “Нимага”, “нимага керак”, “ўзини сев”, “ҳеч нарсани ўйлама”, “қунига минг маротаба мана бу дуони такрорла”, “онгини тўғирла”, “чуқур қовлаб ҳамма ҳасратларинг ёзилган рўйхатни кўм” каби установақларни бераверади. Шунинг ҳам таъкидлаш лозимки бирор бир мижози “сиз берган тавсиялар таъсирини сезмаяпман” деса жавоб тайёр “билимингиз камлик қилапти, палончи курсимга кириб ўқинг” деган жавоб тайёр. Агар мижоз “у курсингизда бўлганман” дейиши билан “яхши ўқимагансиз яна ўқиб кўринг, чегирма бор” деган жавоб ўқдек отилиб чиқади.

Биз мақоламизнинг кириш қисмида инсониятни ваҳимага солаётган саволлар билан бир қаторда: турли ахборот бўронлари оқими ёшлар тарбияси, ўзлигини англаши ва билимларни ўзлаштиришга таъсири оқибатлари эртани ўйловчи ҳар қандай тараққийпарвар инсонни ҳаяжонга солмай қўймайди. Оилавий ажримлар, нотўлиқ оилаларни кўпайиши, етимлик аламида ўсаётган ёшларни ва жиноятчиликни ошиб бориши қайси бир миллатпарвар инсони бефарқ қолдириши мумкин. Замондошларни ўзаро безътиборликлари, шахсни ўз қобигига ўраниб олаётганлиги, шахслараро муносабат узоклашиб бораётганлиги ҳақида ҳаяжонланиб ёзган эдик. Мазкур муаммоларни юзага келишига энг катта сабабчиларидан бири ана шу сохта психологлар эмасми? Улар етук бир салмоғли фан мутахассисларини юзига қора суртиб, эл-юрт олдида обрўсизлантиришмоқда дейишга ҳақлимиз.

Турли беҳаё ёки бепарда маслаҳатларию илмий асосга эга бўлмаган тавсиялари билан халқимизни айниқса ёшлардаги ибодатларини очилиб кетишга хизмат қилаётганларини сезишмасан? Қолаверса Россия, Европа ва бошқа мамлакатларда фаолият олиб бораётган психологларни фикрларини кўр-кўрона таржима қилиб олиб, миллатимизни этнопсихологик хусусиятларини ҳисобга олмаган ҳолда уларнинг натижаларини ҳаётимизга татбиқ этишга ҳаракат қилаётганликларини кўриб, нима қилишингни билмай қолсан.

Юқоридаги фикрларни истаганча давом эттириш мумкин, аммо фикримизни бир ерга жамлаб айтадиган бўлсак, XXI асрнинг биринчи чораги яқунланиши арафасида илмий психология вакилларини асосий вазифаларидан бири сохта (кўча) психологларга қарши курашиш ва халқимизда уларга нисбатан иммунитетни шакллантиришдан иборат. Бунинг учун аввалом бор республикамизда фаолият олиб бораётган психологлар асосатцияси имкониятларини кенгайтириш ва

таъсирини орттириш керак, кейинги долзарб вазифа эса психологларни мутахассис сифатида тайёрлаш сифатини янада такомиллаштиришимиз лозим.

Давлатимиз худудидаги оммавий ахборот воситаларига фақат илмий даражага эга бўлган психологларни жалб этиш билан бир қаторда ижтимоий фанларнинг етук мутахассисларини шахсни такомиллаштириш ҳамда тарбиялаш нуктаи назаридан жалб этиш мақсадга мувофиқдир.

Э.Ғ.Ғозиев таъкидлаганларидек. “XXI асрда ҳам одамларнинг камолоти негизи сифатида оила, мактаб, ижтимоий муҳит, ишлаб чиқариш ўз мавқеини сақлаб қолаверади. Шахсни тарбиялаш қуйидаги манбалар асосида амалга оширилиши мумкин:

1) муайян тизимли, узлуксиз тарбиявий, дастурий таъсир орқали;

2) идеал, намуна тимсолида ўз-ўзини тарбиялаш, такомиллаштириш;

3) ижтимоий муҳитдаги шахслараро муносабатда таҳлил қилиш, ибрат олиш воситалари ёрдами билан хулқ-оодоб, фикрлаш малакаларини эгаллаш;

4) аждодаларимиз яратган бадиий, фалсафий, санъат асарларини ўзлаштириш орқали янги хислатларни ўзлаштириш кабилар” [1:134].

Психологлар доимий равишда шахслар билан ишлайдилар, шу сабабли ҳам шахс ким деган саволга

Адабиётлар

1. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. –Т.: “Ўзбекистон ФМЖ нашириёти” 2010. 134-б.

2. Ғозиев Э.Ғ. Онтогенез психологияси. –Т.: “Ношир”, 2010. 71-б.

РЕЗЮМЕ. Мақолада асосий этибор психология фанининг долзарб вазифаларидан бирига қаратилиб, илмий психологияни ўзига хос қирраларига ургу берилган.

РЕЗЮМЕ. В статье основное внимание сосредоточено на одной из актуальных задач науки психологии, подчеркнуты особенности научной психологии.

SUMMARY. In the article, the main attention is focused on one of the current tasks of the science of psychology, and special aspects of scientific psychology are emphasized.

SHAXSDA RUHIY VA JISMONIY SALOMATLIK

O.M.Zaripov – *psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: faoliyat, salomatlik, munosabat, individ, ruhiy hayot, stress, halovatsizlik, muammo, muomala, kuzatish, oila.

Ключевые слова: деятельность, здоровье, отношение, личность, психическая жизнь, стресс, депрессия, проблема, поведение, наблюдение, семья.

Key words: activity, health, attitude, individual, mental life, stress, depression, problem, behavior, observation, family.

Shaxs salomatligi uning jismoniy hamda ruhiy yetukligi masalasi barcha davrlarda bashariyatni qiziqtirib kelgan masalalar qatorida munosib o'rin egallaydi. Jamiyat rivojlanishida shaxs salomatligi uning taraqqiyotiga katta ahamiyat kasb etadi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Biz xalqimiz salomatligi uchun har qancha mablag' va kuch-imkoniyat sarflashga tayyormiz, faqatgina sog'lom xalq, barkamol millat buyuk ishlarga qodir bo'ladi”- deb alohida ta'kidladilar [1]. Shaxs salomatligi faqatgina tana ichki muhitiga bog'liq emas, balki atrof-muhit, mavjud ekologik omillar, shaxslararo munosabatlar ham bog'liq. Sog'lom vazn va faol hayot tarzidan ko'ra salomatlik uchun muhimroq narsa yo'q. Bu shunchaki kasallikdan xoli bo'lishni anglatmaydi. Shaxsning doimiy salomatligi ongimiz hamda tanamizning mutanosibligiga bog'liq. Shaxslararo munosabatlarda jismoniy va ruhiy salomatlikning uyg'unligiga ishonishda juda ko'p shaxslar ikkilanadilar, aslida biri ikkinchisiga ta'sir qiladi, ruhiy va jismoniy charchoq o'rtasidagi bog'liqlikka ko'ra, jiddiy sinovlar (talabalikka qabul uchun sinov imtihonlariga tayyorlanish, musobaqa oldidan bo'ladigan sport mashg'ulotlarida toliqish) dan oldin ruhan toliqqan ishtirokchilar ruhiy va jismoniy jihatdan dam olganlarga qaraganda, ancha tez charchashlari ma'lum bo'ldi. Shaxslarda kuzatiladigan bunday holatlar zo'riqish yoki stressdan keyin dam olish zarurligini isbotlaydi, tana kerakli energiya bilan ta'minlansagina faoliyatda samaradorlik yuqori darajada bo'ladi. Ruhiy va jismoniy salomatlik o'rtasidagi bog'liqlik surunkali kasalliklarni boshidan kechirayotgan shaxslarning psixologik xususiyatlarida ya-

“Муайян жамоа, гуруҳ аъзоси, жисмоний, жинсий, ижтимоий камолотга эришган, биологик ва ижтимоий социологик шартланган хислатлар эгаси, ўз имкониятларини рўёбга чиқарувчи, билишга интилувчи фаолият, хулқ-атвор, муомала субъектига шахс дейилади” [2:71], деб жавоб бера олишимиз ва шу нуктаи назардан ёндашиб комил инсонни шакллантиришда фаол иштирок этишимиз давр талаби ҳисобланади.

Э.Ғ.Ғозиев томонидан комил инсонга қуйидагича таъриф берилади. “Субъектликнинг инстанционал, супер станционал тажрибаларини ўзида мужассамлаштирган, табиат, жамият қонунлари ҳақидаги билимларнинг соҳиби, хулқ-атвори тўқис, бошқа оламлар тўғрисидаги тасаввурларини кашф қилувчи донишманд зот (аллома, даҳо) комил инсон” [1:134].

Давлатимиз раҳбари томонидан пойдевори қўйилган Учинчи Ренессанс мақсадларидан бири ҳам комил инсонни тарбиялаш орқали мамлакатимизни илмий салоҳиятини дунёга яна бир бор танитишдан иборат.

Учинчи Ренессанснинг куриш жараёнида психологларнинг роли чексиз эканлигини унутмаган ҳолда психологик билимларни тўғри тарғиб қилишда ҳеч бир билимли, олий маълумотли психолог четда қолмаслиги лозим.

qqol namoyon bo'ladi. Kuzatishlarimiz natijasida ijtimoiy munosabatlarda shaxslarda doimiy negativ fikrlash, ruhiy nosog'lomlik shaxsning jismoniy holatini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shaxsda hayoti davomida tana kasalliklari bilan doimiy davolanib yashovchi odamlarda ruhiy salomatlik yomonlashishi yaqqol namoyon bo'ladi. Shaxsda ruhiy va jismoniy salomatlik bilan bog'liq muammolar paydo bo'lishining oldini olishning bir qancha usullari mavjud:

– to'yimli oziq-ovqatlarni iste'mol qilishning vaqt mezonlariga amal qilish;

– o'z faoliyati davomida jismoniy faollikni oshirish;

– ruhiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

Shaxs jamiyatda qaysi sohada faoliyat olib bormasin, ruhiy nosog'lomlik uning salomatligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jismoniy jarohat olgan shaxs ruhiy jihatdan kasallikni yengishga o'zida kuch topa olsagina, pozitiv fikrlar bilan harakatlanib faoliyat olib borsa katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Masalan, sportchi olgan tan jarohati sababli g'amgin, tushkunlik, qo'rquv yoki tashvishga tushsa, mashg'ulotlarga qaytganidan keyin o'zini himoyasiz his qilishi mumkin, bunday holatdan chiqish uchun, faqatgina tan jarohatini emas ruhiyatni ham davolash muhim vazifalardan hisoblanadi. Tadqiqotlar davomida katta yoshdagilarning jismonan sog'lom bo'lish yoshga qarab kattaroq aqliy qobiliyatga olib kelishi aniqlangan. Shaxsning o'z faoliyati davomida doimiy ravishda jismoniy mashqlar qilishi, salomatlik va ruhiyatning ko'tarinki tarzda bo'lishidagi asosiy sabablardan hisoblanadi, shuningdek, jismoniy mashqlar nafaqat salomatlikni o'zgartiradi,

shaxsni baxtli odamga aylantiradi, inson tanasidagi depressiya, tashvish yoki stress alomatlarini kamaytiradi. Shaxs o'zining ish faoliyati davomida turli holatlardagi og'ir kundan keyin sport zaliga borishi, yoki ochiq havoda sayr qilganida, ruhiy charchoqlardan butunlay xalos bo'lib, ruhan va jismonan tetiklashganligi kuzatiladi. Katta yoshli shaxslarda tana vaznining ortishi, ruhiy funksiyalar va rivojlanishida boshqa o'zgarishlar kuzatiladi.

Ontogenezda akseleratsiya natijasida yuzaga keladigan ko'pgina o'zgarishlar dunyo olimlarini doimo qiziqitirib, akseleratsiyaga olib keluvchi omillarni ko'rsatib beruvchi o'z gipotezalarini yaratganlar. Olimlarning bir guruhi ultrabinafsha nurlarining kuchli ta'siri bolalarning tez o'sishiga sabab bo'lmoqda desalar, boshqa bir guruh olimlar esa magnit to'lqinlarining ichki sekretiya bezlariga ta'sirini ta'kidlaydilar, boshqa bir guruh vakillari buni sababini kosmik nurlarga bog'laydilar. Shaxslarning oqsillar, yog'lar, uglevodlar, mineral tuzlar va vitaminlarga bo'lgan ehtiyojning tobora ortishi, fan va texnikaning o'lg'a siljishi, ta'lim-tarbiya jarayonida yangi shakl va usullarning paydo bo'lishi, sport va jismoniy mehnat bilan shug'ullanish, genetik omillarni ham sababalar deya ta'kidlaydilar, bu omillar biologik va ijtimoiy omillardir. Shaxsning o'sishi va rivojlanishi murakkab jarayon, undagi yashirin miqdor o'zgarishlari ochiqdan-ochiq sifat o'zgarishlari va ko'rinishlariga olib keladi. Bola shaxs sifatida shakllanib, atrof-muhitga, undagi o'zgarishlarga qiziqish bilan e'tibor beradi, unda o'yin orqali dunyoqarash o'zgaradi ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z boyligini ortishi kuzatiladi. Oilada bola tarbiyasini uzluksiz, bosqichma-bosqich amalga oshirish shaxsning xarakteri shakllanib, individual xususiyatlari rivojlanishida muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Oiladagi ulg'ayib borayotgan farzandlarning hayotiy tajribasi kam ular ota-onalar hamda katta yoshlilarning yo'l-yo'riqlari, pandu-nasihatlar asosida faoliyatlarini olib borishlari natijasida o'zlarining individual sifatlarini rivojlantiradilar. Shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ta'lim-tarbiyani e'tibordan qoldirmasdan, uni doimiy rejalı amalga oshirib borish lozim deb hisoblaymiz.

Bolalarni yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda, ularning jismoniy va ruhiy salomatliklariga alohida e'tibor qaratishlari, tinglay olishi, turli hayotiy sharoitlarda insonparvarlik, ochiqlik va samimiylık tamoyillarini o'rgatishi shaxs sifatida tan olishi, hissiyotlariga befarq bo'lmaslik farzandning ruhiy va jismoniy salomatligini yanada mustahkamlab, qat'iy ishonch bilan faolligi yuqoriligini ta'minlaydi. Shaxsning ruhiy va jismoniy kamolotida ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan ziyolilarning mehnati nihoyatda muhimdir. Shaxslararo munosabatlarda shaxs tarbiyasida obyektiv va subyektiv omillar asosiy o'rinni egallaydi:

obyektiv omillar: oilaning moddiy ta'minoti, maishiy turmush darajasi, oila byujetining holati, undan foydalanish borasidagi tajriba, sog'lom ruhiy muhitning barqarorligi;

subyektiv omillar: oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a'zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan ma'lumotlilik darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o'zaro yordam hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish sirasiga kiradi.

Shaxs tarbiyasida oilada farzandlar hayotini to'g'ri uyushtirish, ularni vaqtan to'g'ri va unumli foydalanuvchi, qat'iyatli, irodasi mustahkam inson qilib o'stirish nihoyatda muhim deb hisoblaymiz. Shaxs oilada jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shakllansagina jamiyatning faol a'zosiya aylanadi. Shaxs tarbiyasi mazmuni bolalarga ruhiy tarbiyaning yo'nalishlari axloqiy, aqliy-estetik mehnat, ekologik iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g'oyaviy ta'lim berish, ularda yuqori darajadagi faollik, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Shaxsning ruhan sog'lom va jismonan baquvvat bo'lishida, asab tizimi mus-

tahkamlanishi uchun yaxshi dam olish talab etiladi, insonning tiniqib uxlashi bosh miya asab hujayralarining to'la orom olishini ta'minlaydi, bu esa butun organizmning mo'tadil o'sishiga, ish qobiliyatini saqlash va qayta tiklashga yordam beradi. Shaxs salomatligini saqlashda ertalabki badantarbiya bilan shug'ullanish bolani saranjomlikka, intizomga irodaviy xususiyatlarini mustahkam bo'lishiga yordam beradi, shuningdek, to'g'ri va o'z vaqtida ovqatlanish sog'lom bo'lib o'sishining asosiy omillaridan biri ekanligini tasdiqlamoqda.

